O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI

“3-RENESSANS”

YOSH OLIMLAR VA IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

NAMANGAN-2023

Ushbu to‘plamda Namangan davlat universiteti pedagogika-psixologiya fakultetida o‘tkazilgan yosh olimlar va iqtidorli talabalarning “3-RENESSANS” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari keltirilgan.

Mas’ul muharrir: **M.M.Qambarov**

Tahrir hay’ati: **D.D. Inamov**

B.S.Abdurahmanov

Konferensiya materiallari Namangan davlat universiteti Ilmiy texnik kengashining 2023-yil -may, 5-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO‘Z BOSHI

Jahon ta’lim tizimi jarayonida yosh avlodni intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma’naviy yuksalishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat kabi tushunchalar mavjud bo‘lib, ular pedagogika sohasidagi o‘zgarishlarni jamiyat taraqiyoti bilan bog‘liq holda o‘rganishni talab etadi.

Ilmiy-tadqiqot metodlari, tarbiya va ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, oliy o‘quv yurtlari talabalari, magistrlar va doktorantlar, shuningdek, «Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari»ni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish mavzusiga oid fundamental hamda «Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy, pedagogik va ma’naviy-ma’rifiy sohalar bo‘yicha zamonaviy ta’lim jarayonlarida o‘quvchi shaxsida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning kelajak istiqbollari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

“Ta’lim sifatini oshirish — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir.

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

«Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi,

Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi».

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqat qilib, o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak”[1] kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo‘lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o‘rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqlir.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаати.2022. –Б.4.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining to‘rtinchi bo‘limida ta’kidlangan, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish. 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.[2]

Mamlakatimizda yoshlarning o‘z ijodiy va intellectual salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarda “Ta’lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylar va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash samarali tizimini yanada rivojlantirish” ko‘zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari orasida bilimlar, har tomonlama bilimdonlik, intellekt va madaniyatning ajratib ko‘rsatilishi tasodifiy emas.

Ta`kidlash joizki, har bir xalqning salohiyati, avvalo, uning ma`naviy kamoloti, aql-zakovati, kuch-qudrati va bunyodkorlik dahosi bilan belgilanadi.

Mazkur o‘ninnchi marotaba nashr etilayotgan to‘plamda yosh ilmiy tadqiqotchilarimiz tomonidan 2022-2023 -o‘quv yillada yaratilgan ilmiy va uslubiy tavsiyalari o‘rin olgan.

Tashkiliy qo‘mita

[2] Yangi O’zbekistonning 2022-2026 yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasi “taraqqiyot strategiyasi” markazi. @dsc.uzbekistan www.strategy.uz @dsc_uzb @dscuzbekistan @dscuzbekistan Development Strategy Center

USTOZ HAYOTI – IBRAT MAKTABI

M.M.Qambarov, M.B.Badriddinova

Ilm – ruh ozig‘i. Insoniyat ilm bilan haqiqiy saodatni qo‘lga kiritadi, uning sharofati bilan yuksaladi. Ilm ustozning sa’y-harakati bilan egallanadi. Ustozlar bejizga payg‘ambarlarning merosxo‘rlari deb e’zozlanmagan.

Shogidlarining yutuqlarini ko‘rib, xalqimizning – ”Tarbiya bergan ustozingga balli!”, degan tahsini bejiz aytilmaydi. Bu samimiy, haroratli minnatdorchilikka sazovor shogird keng jamoatchilik oldida imtihondan o‘tgan, o‘ziga bildirgan ishonchni oqlagan hisoblanadi. “Shogird kamoli – ustoz jamoli!” degan naql ham behuda aytilmagan. Ustozimiz Satarov Aleksandr Xoshimovich shogirdlarini insoniylik e’tiqodini yanada mustahkamlab, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, vijdon oldida javobgarlik hissini doimo his qilish, sadoqat, mardlik, jasorat, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydi va o‘zi o‘rnak bo‘ladi.

Shu jihatdan faylasuf Frensis Bekonning fikrlari diqqatga sazovordir. U ko‘plab shogirdlar orttirgan olimlarni uch guruhga bo‘ladi. “Birinchi guruh olimlar, – deydi u, – o‘z “men”i atrofida o‘ralashib qolgan olimlardir, ularni o‘rgimchakka qiyos etish lozim. Chindan ham o‘rgimchak juda mohir, to‘qigan to‘rini yasash boshqaning qo‘lidan kelmaydi. Lekin u to‘r o‘rgimchakdan o‘zga hech kimga kerak emas. Ikkinchisi bu chumolilar yo‘li. Chumolilar hech narsa ijod etmaydilar. Ammo mehnatkashdirlar, shuning uchun hamma narsani o‘z uyalariga tashib ketadilar. Ularning boyligidan birov bahramand bo‘lmaydi. Uchinchi yo‘lni tanlaganlar esa mutafakkirlardir. Bu toifa donishmandlarning moddiy va ma’naviy qanotlari bor. Ular asalarilardir. Asalarilar guldan gulga qo‘nar ekan, qatralab bol yig‘ib, odamlarga beradi, o‘zlariga olib qolmaydi”, - deydi.

Mazkur ta’rif bo‘yicha uchinchi toifaga kiruvchi zahmatkash ustozlardan biri Namangan davlat universiteti dotsenti Satarov Aleksandr Xoshimovichdir. Ustozning maqsadlari hamisha ezgulik bilan yo‘g‘irilgan. Shogirdlarning fikrlarini

qunt bilan tinglash va ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish kabi olijanob fazilatlar taqsinga loyiqdir.

Ustoz hayoti ibrat maktabidir. Ustozda g‘oyaviy-siyosiy e’tiqod, ya’ni fidoyilik, qatiyatlilik, ijtimoiy faollik, tashkilotchilik, kasbiy-tadqqiqotga moyillik, bilimdonlik, axborotlarni tahlil qilish, ilmiy tadqiqotga moyillik, hissiy va axloqiy fazilatlar: talabchanlik, kamtarlik, o‘zgalarni hurmat qilish, o‘ziga ishonch; halollik, adolatlilik, samimiylik, beg‘arazlik, vijdonlilik, nutq madaniyati, hamdardlik, voqea-hodisalarga adekvat baho berish; maxsus qobiliyaatlar: deontologik, aniqlik, xolislik, safarbarlik kabi hislatlar yaxshi rivojlangan.

Aleksandr Xoshimovichdan sabr-toqatlilik, fidoyilik, mas’uliyatlilik, faoliyatni to‘g‘ri tashkil qila olish, talabalarga zamonaviy ta’lim berish va ularni milliy ruhda tarbiyalash, o‘qituvchining pedagogik qobiliyati va kasbiy sifatlarini yosh mutaxassis sifatida o‘rganmoqdamiz.

Ustoz hozir ham shogirdlari davrasida qizg‘in faoliyat olib borayotganlari, ijoddan to‘xtamaganlari quvonarlidir. Nuroniy chehralariga qarab, shunday aziz insonning shogirdlari bo‘lganimizdan faxrlanamiz. Fursatdan foydalanib, zahmatkash olim, fidoyi murabbiyga uzoq umr, mustahkam sihat-salomatlik tilab qolamiz. Ta’limning dolzarb masalalariga oid yangi-yangi darslik va qo‘llanmalar yaratishda hech ham charchamasliklarini istab qolamiz. Zotan, ustozlarning o‘gitlari biz uchun hamisha dil kaliti bo‘lib qoladi, binobarin, o‘zimiz ham yosh ustoz sifatida buni talabalarga o‘rgatishni mas’uliyatli va sharafli burchimiz, deb bilamiz.

К педагогическому делу надо призывать тех,
которые чувствуют к этому делу
и к науке сознательное призвание
и предчувствуют в нём удовлетворение,
понимая общую народную надобность.
Д. И. Менделеев

Философское эссе

ЧТО ПИТАЕТ ДИНАСТИЮ ПЕДАГОГОВ?

Сатаров Александр Хашимович
к.п.н., доцент НамГУ

Питательной средой для династии педагогов Саттаровых является:

- беззаветное служение Родине;
- желание внести свой вклад в развитие общества;
- любовь к своим ученикам;
- удовольствие от получения новых знаний, умений, навыков;
- доброта и сопереживание к своим близким;
- удовлетворение от успехов своих учеников;
- моральное и материальное благополучие в семье и в обществе.

Касаясь первого источника подпитки корня династии педагогов, хочется перечислить особый путь становления и развития большого Учителя, с которого начинается наша династия учителей – ***Саттарова Хошимжона.***

Жизнь его была наполнена различными событиями - радостными и трагическими. Рано вступил он на трудовой путь педагога. Будучи учеником 7 – 8 классов он в тоже время учил детей начальных классов. Это было принято в 30-е годы XX века. Эта профессия дала ему уважение в семье и обществе.

С началом Великой Отечественной войны он добровольно ушёл на фронт. Был пулемётчиком, а после ранения, как образованный по тем меркам, человек был отправлен на учёбу в танковое училище, после

окончания которого, вновь вернулся служить Родине на боевом посту. Был неоднократно ранен. Будучи старшиной танковой роты с боями, дошёл до Праги в 1945 году. До 1952 ***Саттаров Х.С.*** продолжал службу в армии, помогая воспитывать молодое пополнение солдат.

После окончания службы он вернулся в родной Узбекистан к своей любимой профессии учителя. Он преподавал в начальных классах, вёл военное дело в старших классах. Этому делу он посвятил более пятидесяти лет своей жизни. До конца жизни он вёл активную военно – патриотическую работу среди учащейся молодёжи.

Как член Совета ветеранов, он постоянно активно вёл общественную работу. Среди его бывших учеников мы можем увидеть докторов наук, врачей, педагогов, хороших людей разных профессий, которые с любовью и признательностью вспоминают его за доброту, внимание, строгость и бескорыстное отношение к своей работе.

По стопам отца пошли: его сын, Сатаров Александр Хошимович, кандидат пед.наук, доцент Наманганского Государственного Университета; невестка – Сатарова Ольга Николаевна учительница русского языка; внуки и внучки. Они выбрали специальности: английский язык, история, методика начального образования, физика. Правнучка заканчивает Наманганский Государственный Университет и собирается стать, как прадедушка учительницей начальных классов.

Все они питаются от одного корня – любви к Родине, желания служить обществу; любить своих учеников и быть любимыми преподавателями. Слова благодарности учеников – это самое великое счастье в жизни педагога.

TALBALARINING MUSTAQIL FIKRLASH MADANIYATINING RIVOJLANTIRISH SHARTLARI

Inamov Dilmirza Dedamirzayevich
Pedagogika fanlari bo‘yich falsafa doktori dotsent

Annotatsiya: *Maqolada talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatining mohiyati, uni rivojlantirish bilan bog‘liq izlanishlar yo‘nalishi, ta’lim-tarbiya jarayonida motivatsiyali, kognitiv-axborotli, operatsion-faoliyatli, hissiy-irodaviy, baholovchi-refleksiv komponentlarining namoyon bo‘lishiga xos hususiyatlar yoritilgan. Muallif uzluksiz ta’lim tizimi bosqichlarida mustaqil fikrlash madaniyatini va uning komponentlarini rivojlantirish yuzasidan amaliy tavsiyalar bergan.*

Kalit so‘zlar: *fikrlash madaniyati,* ***kreativ,*** *uzluksiz ta’lim, intellektual salohiyat, motivatsiyali; kognitiv-axborotli; operatsion-faoliyatli; hissiy-irodaviy; baholashli-refleksiv, ijodiy jarayon.*

Аннотация*: В статье раскрывается сущность культуры самостоятельного мышления студентов, направления исследований, связанные с ее развитием, а также особенности проявления мотивационного, когнетивно-познавательного, оперативно-деятельностного, эмоционально-волевого, оценочно-рефлексивного компонентов в образовательном процессе. Автором даны практические рекомендации по развитию культуры самостоятельного мышления и ее составляющих на этапах непрерывного образования.*

Ключевые слова*: культура мышления, креативность, непрерывное обучение, интеллектуальный потенциал, мотивация; когнитивно-познавательный; оперативная деятельность; эмоционально-волевая; оценочно-рефлексивный, творческий процесс.*

Annotation. *In this article it is given information on the essence of students' independent thinking culture, the direction of research related to its development, and the peculiarities of manifestation of motivational, cognitive-informative, operational-activity, emotional-will, evaluative-reflexive components in the educational process. The author provided practical recommendations for developing a culture of independent thinking and its components at the stages of continuous education.*

Keywords: *culture of thinking, creative, continuous learning, intellectual potential, motivation; cognitive-informative; operational; emotional-will; evaluation-reflexive, creative process.*

Bugungi kunda yuksak intellektual salohiyatga ega, hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan, jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘sha oladigan, har jihatdan yetuk insonlarni tarbiyalash maqsadiga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchida mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi amaliyotda o‘quvchini o‘qitib-tarbiyalashgina emas, balki uning o‘zini o‘qishga, o‘z-o‘zini tarbiyalash, muhim hisoblanadi. Bu jarayon shaxsda ta’lim jarayonida o‘zlashtirgan bilim va axborotlardan to‘g‘ri va o‘z ichki ehtiyojlariga ko‘ra foydalanish malakalarini shakllantirish dasturini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Fikrlash jarayonida maqsad o‘qitishning axborotli asosini tashkil etadi, natijalarni bashoratlash uchun asos vazifasini o‘taydi, to‘g‘ri qabul qilingan pedagogik qarorlar sifatida namoyon bo‘ladi, mazkur qarorlarning samarali ijro shakllari belgilanadi, o‘quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sub’ekt sifatidagi o‘zaro ta’siri asoslanadi, o‘qitishning turli bosqichlarida erishilgan natijalarni nazorat qilish va baholashda etalon bo‘lib xizmat qiladi. “Har qanday maqsad, quyidagi beshta xossaga ega bo‘lishi lozim: mazmunning to‘laligi, kutiladigan natijani aniqlashning mumkinligi; uning vaqt jihatidan aniqlanganligi; realligi, olg‘a undash xususiyatiga egaligi”[3].

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani oliy ta’lim muassasasi talabalarida ta’lim-tarbiyaning pedagogik maqsadlarini to‘g‘ri shakllantirish ko‘nikmasini qaror topdirishga xizmat qiladi. Buning uchun ushbu fandagi asosiy ilmiy yondashuvlar talabalarda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish yo‘lida quyidagi maqsadlarni belgilash samarali bo‘lishini ko‘rsatadi: tarbiyaviy maqsad – bo‘lajak mutaxassis shaxsiyatini har tomonlama va garmonik rivojlantirish; ta’limiy maqsad – “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani mazmunining to‘la o‘zlashtirilishini ta’minlash, har bir mavzu va mashg‘ulotning o‘z vaqtida o‘zlashtirib borilishiga erishish; rivojlantiruvchi maqsad – mazkur fanda o‘zlashtirilgan bilimlar orqali o‘zlarida nostandart vaziyatlarda ham qo‘l keladigan tarbiya usullarini mustaqil ravishda topa bilish qobiliyatini shakllantirish kabilardan iboratdir.

Muammoga oid qarashlar bo‘lajak mutaxassisning “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani asosida mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish jarayoni ta’minotining quyidagi komponentlarini ajratish imkonini berdi: 1) motivatsiyali;

2) kognitiv-axborotli; 3) operatsion-faoliyatli; 4) hissiy-irodaviy; 5) baholashli-refleksiv.

[3] Гальперин П.Я. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий /Исследование мышления в советской психологии. Под ред. Е.В. Шороховой. – Москва: “Наука”, 1966. – С. 269-276

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani mazmunini o‘zlashtirish orqali bo‘lajak mutaxassislarda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish to‘rt bosqichli jarayon sifatida amalga oshiriladi:

1.Umumiy nazariy tasavvurni shakllantirish bosqichi mazkur bosqichda talabalarga mustaqil fikrlash madaniyati va uning xulq-atvorida namoyon bo‘lish shakllari haqida nazariy bilimlar beriladi.

2.O‘quv fanlarining materyallari asosida bo‘lajak mutaxassislarga mustaqil fikrlash madaniyatiga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bog‘liq vazifalar amalga oshiriladi.

3.O‘qitish jarayonida barcha fanlarga oid ma’lumotlarni berish, darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda mustaqil fikrlash madaniyati rivojlantiriladi.

4.Talabalar shaxsiyati darajasi mustaqil fiklash madaniyatini shakllantirish har bir talabaning extiyojlariga aylanishi o‘zining aqliy faoliyatida undan foydalana olishida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarida tayyorlangan mutaxassislar faqat kasbiy tayyorgarlik va ilmiy dunyoqarashga ega bo‘libgina qolmasdan, balki olgan bilimlarini uzluksiz takomillashtirib, amaliyotda oqilona qo‘llay bilish ko‘nikmalarini ham egallashlari lozim. Mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun eng qulay sharoitlar shunday ta’lim muhitida yaratiladi. Shuning uchun ham hozirgi milliy pedagogika fanida shaxsda mustaqil fikrlashni shakllantirishga doir qator ilmiy qarashlar yuzaga kelgan.

M.Qambarov fikricha, xilma-xil mazmun, shakl va turdagi o‘quv materialini tanlash va undan foydalanish; talabalarga o‘quv vazifalarini bajarish usullarini tanlashda mustaqillik berish; individual va jamoaviy faoliyatda noan’anaviy shakllardan foydalanish, o‘quv ishining individual usullarini tahlil qilish va baholashga o‘qituvchining doimiy e’tibor berishi, tadqiqiy (izlanish) fikrini modellashtiradigan individual (yakka tartibli) o‘qitish dasturlaridan foydalanish, mashg‘ulotlarni dialog, imitatsiyali-rolli o‘yinlar, treninglar asosida tashkil etish, hamda ularni o‘tkazish uchun o‘qituvchining maxsus tayyorgarlik ko‘rishini o‘z

ichiga oladi. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani mazmunini o‘zlashtirish asnosida talabalarni mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda shularga asoslanish mumkin.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalarda bilimlarni o‘zlashtirish, bilish va amaliy faoliyat ongli qabul qilish va xotirlab qolish; bilimlar va faoliyat usullarini namuna bo‘yicha yoki o‘xshash vaziyatda qo‘llash shaklida amalga oshiriladi. Bo‘lajak mutaxassisda mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanishi, hozirgi pedagogik amaliyotda ro‘y berayotganidek, faqat dastlabki ikki darajasida emas, balki barcha darajalarda ta’minlanishi lozim.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanishda quyidagilar hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir:

– pedagogik oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil fikrlash madaniyati namoyon bo‘lishining individual, jamoaviy, kasbiy-bilish, ijtimoiy va tarixiy bilish singari komponentlarining rivojlanishini ta’minlash;

– metodlar tanlashda bo‘lajak mutaxassis tanlagan ixtisosni, uning hayotiy tajribasi va madaniy darajasini hisobga olish;

– mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanilganda individga xos xususiyatlarni hisobga olish va shaxsning o‘zligini namoyish etishiga imkoniyat yaratish;

– ta’lim muhitida talabalarda mustaqil fikrlash madaniyati rivojlanishining pedagogik holatini hisobga olish va samara beradigan metodning natijalarini oldindan ko‘ra bilish.

Ma’lumki, o‘qitish metodlari talabalarning bilish faoliyatlarini tashkil etishning tabiati bo‘yicha tasniflanadi. Shunda ta’limda quyidagi metodlari borligi qayd etiladi: tushuntirish; axborotli-retseptiv; reproduktiv; muammoli bayon etish; qisman izlanishli (evristik); tadqiqiy. Bular orasida so‘ngi uchta o‘qitish metodi talabalarda mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanishini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Tushuntirish, retseptiv va reproduktiv kabi o‘qitish metodlari esa yordamchi rol o‘ynaydi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasasida kasbiy tayyorgarlik xususiyatlarini hisobga olib, mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning metodlarini o‘qish-bilish va amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishning integral xarakteristikasi asosida tasniflash mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaga mos ravishda tayyorlash muammosining qiyosiy tahlili bu borada quyidagi ziddiyatlar mavjudligini ko‘rsatdi:

- oliy pedagogik ta’lim muassasalari oldida turgan nazariy va amaliy masalalar, yosh pedagog va talabalarni tayyorlashning mavjud mazmuniga maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari tomonidan qo‘yilayotgan yangi talablar bilan bo‘lajak pedagoglarga kasbiy ta’lim berishning nazariy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida;
- fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga qo‘yadigan talablari bilan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimi o‘quvchilarining tayanch bilimlari darajasi o‘rtasida;
- Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ishlashini tashkil qilishga qo‘yilgan talablarning kuchaytirilishi bilan mustaqil o‘rganish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ularda bilim va malakalar yetishmasligi o‘rtasida;
- mavjud pedagogik ta’lim tizimining ko‘p jihatdan reproduktiv xususiyatga ega ekanligi va oliy pedagogik ta’lim muassasasi bitiruvchisi – bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik moslashuvchanligini shakllantirishga individual-ijodiy yondashish zarurligi o‘rtasida;
- o‘qitish jarayoniga mavjud qarashlar bilan jamiyatning kasbiy ta’lim rivojlanishiga qo‘yadigan zamonaviy ijtimoiy talablari o‘rtasida;
- o‘qituvchilik kasbining ommaviylik xususiyati bilan maktab hamda akademik litsey va kasb-hunar kolejining ijodiy fikrlovchi, yuksak kasbiy, pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchiga ehtiyoji o‘rtasida;
- pedagogik texnologiyalarning ta’lim amaliyotiga nisbatan keng tatbiq etilishi hamda ularning yakuniy natijalari kafolatlanganligi muammosining hal etilmaganligi o‘rtasida;

- o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari sifatiga qo‘yiladigan talablar o‘sganligi bilan ularni loyihalashtirishdagi an’anaviy yondashuvlar o‘rtasida;
- pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarni o‘qitish mahoratini shakllantirish zarur bo‘lgani holda shu vazifani bajarish uchun yetarli didaktik ta’minotning yo‘qligi o‘rtasida;
- eng yaxshi o‘qituvchilar faoliyati natijasida paydo bo‘lgan o‘qitish texnologiyasining sifat ko‘rsatkichi va ularni baholashdagi eski metodlar o‘rtasida.

Ko‘rsatib o‘tilgan ziddiyatlarni bartaraf etish, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, kasbiy faoliyat yaxlit manzara hosil qilishi uchun ta’lim jarayoni maqsadlari, mazmuni, shartlari, vositalari, natijalari o‘rtasidagi mustahkam aloqani ta’minlovchi mutaxassis tayyorlash modelini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Adizov B. Talabalar o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirish. Met.Qo‘l. Buxoro. 2001 yil. 46 b.
2.Qambarov M.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik komponentlarini shakllantirish //NamDU Ilmiy axborotnomasi.-Namangan, 2021-y. №11. – B.681-686.
3. Qambarov M.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari // NamDU Ilmiy axborotnomasi.-Namangan, 2021-y. №12. – B.693-697.
4. Qambarov M.M. Talabalar mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish. Monografiya-Namangan: Arjumand mediya. 2021-y.
5. Qambarov M.M. Pedagogik atarixi. Toshkent: Bayoz. 2022-y.
6.Musaev J. O‘quvchilarni mustaqil fikrlash salohiiyatini rivojlantirish. Monografiya. T.: Sharq, 2010. – 251 b.

PEDAGOGIK QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Xalimova Ozoda Ma’murjon qizi
NamDU Pedagogika- psixologiya fakulteti Defektalogiya (Logopediya) yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada qobilyat va uning turlari, pedagogik qobilyat, qobilyat o‘zi qanday paydo bo‘ladi, nimalar natijasida shakllanadi taraqqiy etadi nimalarda ko‘riladi, qobilyat o‘zi insonga nimaga kerak shular haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Qobilyat, gnostik, konstruktiv, kommunikativ, didaktik, akademik, pertseptiv, avtoritar, diagnoz, uyushqoq, dinamika, tashkiliy, tarbiyachilik.*

МЭТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА

Халимова Озода доч Мамурджана
Наманганский Государственный Унверситет Факультет Педагогики и психологии студентка 3 ступени курса дефекталогии (логопедия).

Наусҳный руководител: *Камбаров Мусохан Мухторжонович.*

Аннотация: *В данной стате рассматриваеця, что такое способност, как появляеця способност, что в результате развиваеця, для чего исползуеця что нужно человеку.*

Ключевые слова: *Способност, гностическая, конструктивная, дидактическая, академисҳеская, персептивная, авторитарная, диагностисҳеская, организованная, динамичная, организаторская, образовательная.*

METHODS OF FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS

Namangan State University Faculty of pedagogy and Psychology 3 rd stage student of defectology (Speechology) course Halimova Ozoda Mamurjan’s daughter.

Scientific leader: *NamDu PhD Department of Educational Management Faculty of Pedagogy- psychology Qambarov Musakhan Muktarjonovich.*

Abctract: *In this article, what is the ability, its types, how does the pedagogical ability appear, what is it formed as and result of, what does it develop what is it used for, and what does a person need the ability.*

Keywords: *Ability, gnostic, constructive, communicative, didactic, academic, perceptive, authoritarian, diagnosis, organizational dynamics, organizational education.*

“Bolalar tarbiyasi jarayoniga o‘z ishini puxta biladigan malakali va har bir bolaga indivudial yondasha oladigan pedagog kadrlarni jalb qilgan holda ularni go‘dakligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin.” **Sh.M.Mirziyoyev.**

O‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy- axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, yetuk o‘qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shish zarur.

Pedagogik mahorat- 4 komponentlikni o‘zi ichiga oladi.

1. Pedagog shaxsini insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi.

2. Mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi,pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o‘qib olish);

4 pedagogik texnikani egallash, ya`ni o‘z-o‘zini boshqarishi, o‘zaro ta`sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik mahorat- yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim- tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o‘tmish qadriyatlari, o‘rta osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo‘lish, ilg‘or xorijiy davlatlarning o‘qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida tarkib topadi.

Shulardan biri qobiliyatdir. **Qobiliyat**- shaxsning individual- psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart- sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisidir. Qobiliyatni inson tug‘ma, tabiat in’omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi. Qobiliyat bilimdan farq qiladi.

Bilim – ilmiy mutolaalar natijasidir. Qobilyat esa- insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo‘lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma’lum darajada bilim olish mahsulidir.Umumiy va maxsus bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatlar faoliyatning muhim komponentlari bo‘lishi bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan aynan bir narsa bo‘lmasa-da, ular bir- birlari bilan bog‘liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko‘nikmalarning o‘zida ko‘rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‘ladi, ya’ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda

namoyon bo‘ladi. Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi.

Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanish jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turli shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda bironta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oldigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo‘llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg‘unlikda olib boorish yo‘llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi is’tedod va daholik namoyon bo‘ladi.

Pedagogik qobiliyatlar – ta’lim- tarbiyaviy maqsadlar va o‘quvchilarning individual- psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zaruriy shakl, metod va vositalarni samarali qo‘llay olishdir.

Pedagogik – psixologiyada o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o‘rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib boriladi. Psixolog S.L. Rubinshteyn ta’kidlab o‘tganidek, pedagogik jarayon o‘qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o‘quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog‘liq. Tadqiqotchi A.I. Shcherbakov fikriga ko‘ra, pedagogic faoliyat- bu o‘qituvchi oldiga jiddiy talablar qo‘yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o‘qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik, qobiliyatiga, mustahkam xarekterga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lishini taqazo qiladi. I.A. Shcherbakov o‘qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy- tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

1. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat;
2. Yo‘nalishning aniq ifodalanganligi;

3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi;

4. Yuqori darjada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik;

5. Qat’iy va silliq xarekter;

6. Pedagogik qobiliyatlar.

F.N. Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

1. Didaktik qobiliyatlar;

2. Akademik qobiliyatlar;

3. Perseptiv qobiliyatlar;

4. Nutq qobiliyatlar;

5. Tashkilotchilik qobiliyati;

6. Avtoritar qobiliyatlar;

7. Kommunikativ qobiliyatlar;

8. Pedagogik xayolot;

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati;

10. Konstruktiv qobiliyatlar;

11. Gnostik qobiliyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar pedagogik kompitentlikni tarkibiy qismi bo‘lib yuqoridagi qobiliyatlar o‘qituvchining pedagogik kompitentligining komponentlarini tashkil etadi.

1. **Didaktik qobiliyat**- bu oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o‘qituvchining o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘ota olishi ko‘zda tutiladi. O‘qituvchi zarurat tug‘ilgan hollarda o‘quv materialini o‘zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz , noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. **Akademik qobiliyat**- barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z fanini o‘quv kursi

hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fantexnika, ijtimoiy- siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko‘p narsalarni o‘rganib boradi.

3. **Perseptiv qobiliyat**- qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchlik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o‘qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo‘lmagan tashqi belgilar asosida o‘quvchi ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. **Nutqiy qobiliyat**- ixcham, ma’noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo‘lgan nutq, shningdek , o‘qituvchi nutqning jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg‘uga rioya qilishi. Qobiliyatli o‘qituvchining nutqi darsga hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi.

5. **Tashkilotchilik qobiliyati**- sinf-guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste’dodi. Tashkilotchilik o‘quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vzifalarni hal etishga ruhlantirish bo‘lsa, ikkinchidan, o‘z shaxsiy ishini to‘g‘ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. **Obro‘ga ega bo‘lishlik qobiliyati**- o‘zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatili, mustahkam irodasi bilan obro‘ orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi avtoritar qobiliyat deb ham yuritiladi. Obro‘ga ega bo‘lish o‘qituvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunochi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat’iyligi, talabchanligi va hakozo). Shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish ma’suliyatini his etishga, bu ishonchni o‘quvchilarga ham yetkaza olishiga bog‘liq bo‘ladi.

7. **Kommunikativ qobiliyati**- muomala va muloqat o‘rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o‘quvchilarga to‘g‘ri yondashish yo‘lini topa olish, ular bilan pedagogic nuqtai nazardan samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazoratning mavjudligi.

8. **Psixologik tashhis (diagnoz**) qobiliyati- insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorat.

9. **Diqqatni taqsimlash qobiliyati**- bir necha ob’yektlarga bir davrning o‘ziga o‘z munosabatini bildirish. O‘quvchi, o‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari: hajmi, uning kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etgan bo‘lishi muhimdir.

10. **Konstruktiv qobiliyati**- o‘quv- tarbiya ishlarni rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o‘quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o‘quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o‘quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. **Gnostik qobiliyat** – tadqiqotga layoqatlilik bo‘lib, o‘z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Qobiliyat o‘quvchi shaxsini rivojini loyihalashga, o‘quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, o‘quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi. Shuningdek zamonaviy o‘qituvchi o‘zida aqli donishlik qobiliyati, iymon-e’tiqotga, faol hayotiy pozitsiyaga yo‘naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlashtirish kabi qobiliyatlari bo‘lishi zarurligi ko‘zda tutilmoqda.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o‘rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg‘usi iroda sifatlarning namoyon bo‘lishidan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Pedagogik qobiliyatlar umumiy qobiliyat, masalan adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash, qobiliyatlari bilan bog‘langan. Pedagogik qobiliyatlar xarekter xislatlari bilan bog‘langan. Uyushqoqlik, qat’iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasining ortishiga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko‘ngichanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi. Har bir o‘qituvchi o‘ziga xos individual- psixologik xislatlarga ega bo‘ladi. Ulardan ba’zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba’zilari qattiqo‘lroq, boshqalari yumshoqroq bo‘ladilar. Bu xususiyatlarning hammasi juda yaxshi xususiyatlar bo‘lib, ulardan foydalanishning ahamiyati katta. Bundaay o‘qituvchiga his- tuyg‘ular, emotsiyalar

yot narsa bo‘lishi kerak, degan ma’no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishni ham, g‘azablanishni ham, qayg‘uga tushish ham lozim. Bu yerda gap o‘qituvchining qandaydir bir andozadagi (qolipdagi) shaxsga barobarlashtirish zarurligi to‘g‘risida emas, balki uning o‘z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanish, o‘zida shaxsning zarur xislatlarini tarkib toptirish, o‘z kamchiliklariga barham berishi to‘g‘risida boradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘qituvchining barcha ijobiy umuminsoniy axloq me’yorlariga mos keluvchi xislatlari katta axamiyatga ega. Agar biz quyidagi xislatlarni olib qaraydigan bo‘lsak, bularning barchasi ham o‘ta muxim omillardir.Jumladan, o‘qituvchining tashqi qiyofasi uning ob’rosi shakllanishiga ta’sir etadi. O‘qituvchining ozodaligi,ixchamligi uning pokizaligi, sarishta-saramjonligi,uning qiliqlari, o‘zini chiroylik tutishi, qaddi-qomati va yurish – turishlari o‘quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston respublikasining “Ta’lim To‘g‘risidagi Qonuni” 2020y . Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020-yil 24-sentabr.

2. Xadjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T. sano- standart.2017

3. Xadjaev B.X. Choriev A. Salieva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metadologiyasi. Darslik-T. Iqtisod dunyosi 2018.

4. Ro‘zieva D.L. Tolipov, O‘. Q. Pedagogik texnalogiyalar va pedagogic mahorat 383s.T. Innovatsiya ziyo.2019.

ORGANIK KIMYO TA’LIMIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

M.L. Boltayeva
NamDU Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani p.f.n., dotsent,
A.T. Jo‘rayev Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Maqolada sifatli bilim olishning zaruriy sharti sifatida umumta’lim maktablari o‘quvchilarining asosiy bilimlarini mustahkamlash masalalari muhokama qilinadi.*

Tayanch so`zlar*: organik kimyo, elektron, izomeriya, ta'lim sifati, o'quv jarayonini tashkil etish, bilimlarni baholash, axborot texnologiyalari, kitoblar, maqolalar, ma'ruzalar, shaxsiy muloqot, ustozning maslahati.*

Аннотация: *В стате рассматриваюця вопросы закрепления базовых знаний усҳащихся общеобразовательных школ как необходимое условие полухения кахественного образования.*

Клюсҳевые слова*: органическая химия, электроника, изомерия, качество образования, организация учебного процесса, оценка знаний, информационные технологии, книги, стати, лексии, личное общение, консултации наставника.*

Abstract: *The article discusses the issues of strengthening the basic knowledge of students of secondary schools as a prerequisite for obtaining quality knowledge.*

Keywords: *organic chemistry, electronic, isomeric, quality of Education, Organization of the educational process, knowledge assessment, Information Technology, books, articles, lectures, personal communication, mentor's advice.*

Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q. Yana bir muammoni hal etish ham o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur.[4]

Mamlakat rivojlanish darajasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri - uning ta’lim tizimi, fan, va texnologiyalar transferi raqobatbardoshligi hisoblanadi.

Mazkur muammoni hal etish nafaqat fan va ta’limga doimiy investitsiyalarni kiritishni, balki yangi vazifalar va zamon talablariga nisbatan moslashuvchan bo‘lishi lozim bo‘lgan ularning tuzilmasini to‘g‘ri tashkil etishni ham talab etadi. Ta’lim va fan tizimi iqtisodiyot va jamiyatdagi yangi yo‘nalishlarga moslasha olishi kerak.

O‘quv-bilish jarayoni ta’limning mohiyati, mazmuni, yo‘nalishi, ijtimoiy omillariga ko‘ra aniqlanadigan, istiqbolga yo‘naitirilgan didaktik hodisa bo‘lib, u «o‘qish, o‘rganish, rivojlanish» tizimida amal qiladi. U ta’lim jarayonida amalga oshadi. Ta’lim o‘qitish, o‘qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Bugungi kunda ta’lim jarayoni talaba shaxsiga yo‘nalririlishi bilan alohida qimmatga ega. Ta’limga nisbatan «pedagogik jarayon», «o‘quv jarayoni», «ta’lim jarayoni» iboralari qo‘llaniladi.

[4] Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак – Тошкент: Ўзбекистон, 2017, 45-б.

Yillar davomida ta’lim mazmuni, uni o‘qitish usullari takomillashib rivojlanib kelgan. Xususan, organik kimyo fanini o‘qitish jarayoni va unda tayanch bilimlarni tatbiq etish ham bundan mustasno emas. O‘rta Osiyoda qadimiy Turon yurtida qadimdan fan, ayniqsa, qomusiy fanlar keng rivoj topganligi hech kimga sir emas. Tabiatshunoslik fanlari, tabobat, ilmi nujum, handasa, riyoziyot, falsafa, mantiq, axloq barq urib yashnagan. Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Tarag‘ay, Ulug‘bek, at-Termiziy, Imom Ismoil Buxoriy, Bahovuddin Naqshband kabi son-sanoqsiz allomalarimiz butun dunyo fani va ma’naviyatining rivojiga beqiyos hissa qo‘shganlar. Forobiy “Ixso al-ulum” asarida inson bilimi, umumiy dunyoqarashining o‘zgarishida tarbiyaning rolini takidlab bunday deydi: “Inson yaxshi tarbiya ko‘rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo‘lsa ko‘p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo‘rin ko‘rinadi. U bilim va tajribaga ega bo‘lgandan so‘ng fikri o‘zgaradi, noo‘rin bo‘lib ko‘ringan narsalar zaruriy bo‘lib chiqadi.

Mana shunday mazmundagi javoblar berilganda ijobiy xulosalar chiqarish mumkin edi. Ammo talabalar qiynalib, qisman javob qaytarishdi. Demak, tayanch bilimni tatbiq etishni o‘quvchiga o‘rgatish lozim ekan.

“Talabalar organik kimyoning yetakchi g‘oyalarini va asosiy tushunchalarini ongli va puxta o‘zlashtirishlariga e’tiborni qaratish muhimdir”, deb alohida ta’kidlanadi. To‘g‘ri, barcha fanlarda bo‘lganidek, organik kimyo fani qo‘lga kiritgan yetuqlar ham benihoya ko‘p, unda aniq ma’lumotlar zahirasi keng va yetarli. Ularning hammasini darslikka kiritib talabaga o‘rgatish qiyin yoki vaqtning kamligi va boshqa sabablarga ko‘ra mumkin emas. Buning ustiga haligacha fan asoslari tayanch bilimlarni faoliyatga tatbiq etishga doir organik kimyoni o‘qitish metodikasi ilmiy asoslarga tayanib, intelektual g‘oyalar ishlab chiqilmagan.

Dialektika nuqtai nazaridan kishining moddiy dunyo to‘g‘risidagi bilimi nisbiy bo‘lib hisoblanadi. Albatta, inson bilimi har bir aniq narsa to‘g‘risida mutlaq emas. Shu narsa to‘g‘risidagi bilim doimo rivojlanib, chuqurlashib boradi. Har bir

yangi avlod o‘zidan oldingi avlod bilimini o‘zlashtiradi, yangi sharoitlarda uni boyitib, rivojlantirib boradi.

Umumta’lim maktablarida organik kimyo fani dastur asosida mavzulari o‘qitilib kelinyapti. Mavzularni 10-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “Organik kimyo” darsligi asosiy adabiyot sifatida foydalaniladi.[5]

Bilimning to‘planishi juda murakkab jarayon bo‘lib, u kundalik tajriba, ilmiy kuzatishlar, nazariyalar orqali sodir bo‘ladi. Shunga ko‘ra u ijtimoiy mazmunga ega. Insonning bilimi, bilish jarayoni natijasida to‘planadi. Bilish esa voqelikning inson ongida aks etishidir. Bizga malumki, bilishning maqsadi tabiat va jamiyat-dagi narsa va hodisalarni insonga bo‘ysintirish va unga xizmat qildirishdan iborat.

Bilish jarayoni esa jonli mushohada (hissiy bilim) dan abstrakt tafakkur (aqliy bilish)ga, undan esa amaliyotga o‘tish bilan xarakterlanadi. Falsafadan bizga ma’umki, dunyoni to‘la va chuqur bilishning eng yuqori cho‘qqisi ilmiy bilishdir. Ilmiy bilish fan orqali amalga oshib, uning analiz, sintez, induksiya va deduksiya kabi usullari mavjud. Ko‘nikma insonning Ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati bo‘lib hisoblanadi. Malaka muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlishishi hisoblanadi.

Mamlakatimizga bilimli yoshlar va kuchli iqtisodiyot kerak. Hozirgi kunda dunyoda kelajak iqtisodiyoti talablariga javob beradigan yangi ta’lim madaniyati shakllanmoqda. Iqtisodiyot va ta’lim tizimining umumiy maqsadi - mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan, o‘z-o‘zini rivojlantirish va qayta tayyorlanishga moyil, raqobatbardosh va mas’uliyatli kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -104 b.
2. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –56 b.
3. Султанова В. К. Педагогические особенности общения между учителем и учащимися и пути эго организации. Челябинск: 2013.

[5] A. Mutalibov, E. Murodov, S. Masharipov, H. Islomova. Organik kimyo-Toshkent: G’ofur G’ulom, 2017.-160 b.

4. В. К. Султанова. Педагогика: традиции и инновации: материалы ИИИ междунар. науч. конф. (г. Челябинск, апрел 2013 г.). — Челябинск: Два комсомолса, 2013.
5. Mansur Ergashov, Aziz Jo‘rayev. Organik kimyo fani ta’limida zamonaviy metodlardan foydalanish orqali talabalarda interaktivlikni oshirish // Pedagogik mahorat: Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. №3. 2021.
6. Жураев Азиз Туроб угли. Развитие базовых знаний в процессе обучения // Универсум: теория и методика обучения и воспитания: электрон. научн. журн. 2021. № 9(87).
URL: *http://7universum.com/ru/psy/archive/item/12235* .
7. A.T. Jurayev. Development of basic knowledge in educational activity using basic knowledge in teaching organic chemistry. International Engineering Journal For Research & Development. vol. 6 no. 6 (2021): voulme 6 issue 6.
URL: *http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/2410*.
8. A.T. Jo‘rayev. Kimyo o‘qitish metodikasi [darslik]. - B.: Durdona, 2022, 400 b.
9. Aziz Jo‘rayev. Organik kimyo fanini o‘qitishda tayanch bilimlardan foydalanib o‘quv-biluv faoliyatida bazaviy bilimlarni rivojlantirish // Pedagogik mahorat: Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. №6. 2021.
10. B.B. Umarov, A.T. Jo‘rayev. Oliy ta’limda talabalar o‘quv-biluv faoliyatining psixodidaktik asoslari // NamDU ilmiy axborotnomasi: №2. 2022.
11. Aziz Turob o‘g‘li Jo‘rayev. OTM larda organik kimyoni o‘qitishda tayanch bilimlardan foydalanib talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini takomillashtirish strategiyasi [monografiya]. – B.: Durdona, 2021, 187 b.
12. Jo‘rayev A.T., Salimov N.G. OTM larda organik kimyo ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligini baholash // NamDU ilmiy axborotnomasi: №5. 2022. –B. 753-758.
13. Jo‘rayev A.T., Boltayeva M.L. Organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv biluv faoliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarining zaruriyatligi // NamDU ilmiy axborotnomasi: №8. 2022.-B. 440-448.
14. Jo‘rayev A.T., Boltayeva M.L. Organik kimyo ta’limida talabalarning o‘quv – bilish faoliyatini rivojlantirishda axborot va texnologiyalaring zaruriyatligi // NamDU ilmiy axborotnomasi: Maxsus son 2022. .-B. 894-903.

SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGANISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Tohirova Nodira
Turon xalqaro universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Baxodir Qo‘chqorov
Turon xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Antonatsiya: *Ushbu maqolada mualliflar boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z turkumlarini o‘rganishda kompyuter texnalogiyalaridan foydalanishning avzallik tomonlari xususida fikr yuritgan, tavsiyalar ishlab chiqqan.*

Kalit so‘zlar: *kompyuter texnalogiyalari, multimediya vositalari, so‘z turkumlari jadvali, boshqotirmalar.*

Антонация: *В данной стате авторы задумалис о преимуществах исползования компютерных технологий при изучении словосочетаний на уроках родного языка в началных классах и разработали рекомендации.*

Клюсҳевые слова*: компютерные технологии, мултимедийные средства, словарная таблица, ребусы.*

Antonation. *In this article, the authors thought about the advantages of using computer technologies in the study of word groups in primary-grade native language classes, and developed recommendations.*

Key words: *computer technologies, multimedia tools, vocabulary table, puzzles.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi „O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida“gi PF-4947-sonli, 2018-yil 5- noyabrdagi „Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi PF-5538-sonli, 2019-yil 29-apreldagi „O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida‘‘gi PF-5712-son Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi „Umumiy o‘rta va o‘rta mahsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘ri‘‘idagi 187- son qarori maskur faoliyatiga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifzlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega

Kuchli axborot bosimi ostida o‘zini va olamni anglashga urinayotgan olti-yetti yoshli bolakaylar tafakkuri, dunyo qarashi, nuqtayi nazari qanday tarkib topib rivojlanadi? Bu jarayonga axborotlar, ma’lumotlar oqimi orqalli ta’sir ko‘rsayish samarali kechadimi yoki ilm-fan vositasida muayyan tizimli ta’sir samaraliroqmi?

Bu kabi savollarga XX asrning oxirgi o‘n yilliklarida dumyo olimlari kibernitik, fizik, matematik qonuniyatlar aosida olamni bilish, o‘zlashtirish haqidagi falsafiy talqinlar orqali javob berishga uringanlar. XXI asrga kelib, ta’lim falsafasi dunyoni ma’naviy o‘zlashtirish eng ko‘p samara berishini isbotladi.Bolaning kundalik fikrlash jarayoni, olamni ma’rifiy anglash, ma’naviy yuksalish uchun intilish-dunyo olimlari tomonidan tilga olingan falsafiy madaniyat mukammalligiga erishishing birlamchi shakllari sifatida o‘rganildi. Bola tug‘ilgandan boshlab, olamni eng sodda tasavvurlar asosida o‘zlashtiradi.His qilish, tasavvur, tushunish, anglab yetish, mohiyatiga intilish va unga yetib borib, muayyan xulosaga kelish-tushunchaning shakllanish bosqichlariga ta’lim-tarbiya orqali ta’sir ko‘satiladi. Bu ta’sir dastlab bolaning fikrlash jarayoniga qaratiladi. Shu bois, bugungi ta’lim falsafasida ta’lim maqsadi bilan mazmunini o‘zlashtirish

inson va jamiyat, inson va tabiatni yaxlit, uzviy, o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida o‘rganish va anglash imkonini beradi, deb talqin etilayotir.Tabiiy, ilmiy va gumanitar bilimlarni ,,tabiat-inson‘‘ tizimida uzviylashtirish esa muayyan didaktik tamoyillar ustuvorligini talab qiladi. Bu tamoyillar kompyuterlashtirilgan ta’lim texnologiyasi mazmunida aks etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi fanlardan biri bo‘lgan “ona tili” fani asosiy ta’lim turi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bilan birga ijodiy tafakkur sohiblarini, kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk komil inson sifatida tarbiyalashdir. Bu masala “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunda ham batafsil yoritilgan. Prezidentimiz XXI asrni axborot texnalogiyalari asri deb nomlaganlari barchamizga ma’lum. Dastlab yuqori tashkilotlarda hujjat uchun xizmat qilgan kompyuter keyingi yillarda katta-yu kichikning ermagiga aylanib qolganki, undan o‘rinli va o‘rinsiz turli ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida foydalanmoqdalar, lekin shuni ham ta’kidlash kerakki, asosiy masalalarni hal qilishda, ish yurish hujjatlarini tayyorlashda ushbu texnikaning o‘rni nihoyatta muhimdir.

Biz tahlil qiladigan masalaning asosi yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi davr bolasi bu imkoniyatlardan qanday foydalanmoqda? Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, televideniya va radio eshittirishdagi ba’zi ko‘rsatuvlarda badiiy kitob bilan shug‘ullanish va umuman, bolaning darsga munosabati haqida ko‘pgina dasturlar beriladi. Bunga sababchi qilib kompyuterdagi bolalarni e’tiborini tortadigan har xil o‘yinlar tanqid qilindi. Bu kabi tanqidlar o‘z samarasini topgan emas, albatta!

Boshlang‘ich ta’limning 3-4-sinf o‘quvchilariga kompyuter orqali dars tashkil qilinsa bo‘ladi. Bunda ikki xil usulda dars o‘tiladi. Birinchisi yakka kompyuterda o‘qituvchi dars o‘tadi va o‘quvchilar tinglaydilar, ikkinchisi o‘quvchi yakka holda kompyuter orqali dars qilishga ega bo‘lishadi. Birinchi ko‘rinishda o‘qituvchi katta ekran orqali ona tiliga oid mavzularni tushuntirib boradi.

Demak, bunday kompyuter orqali dars o‘tish ona tili o‘ituvchisining o‘zidan ham kompyuter haqida ko‘pgina bilim talab qiladi va u haqida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Ikkinchi bosqichda har bir o‘quvchi o‘zi alohida kompyuterda mashq bajaradi, bu birinchi bosqichdan so‘ng amalga oshiriladi.

Buning uchun ona tili darsligidagi mashqlar kompyuterga dastur sifatida ularning bilim, malaka va ko‘nikmalariga mos holda kiritilishi lozim. Bunda til fanining fonetika, leksikologiya, morfologiya sintaksis bo‘limlarini qamrab olgan quyidagicha mashqlar kiritilishi mumkin. Masalan, birinchi turdagi mashqlarga qoidalarga oid tushunchalar yoki qoidaning o‘zi tanlo sifatida aks etadi. Bunda o‘quvchi tanlaydi va to‘g‘risini belgilaydi. Bu tipdagi mashlarning galma-galligining so‘ngida biror qiziqarlio‘yin yashirinsa o‘quvchi mashqni bajarganidan keyin o‘yinga kirishga muvafffaq bo‘ladi.

Agarda bunday jarayonning qiziqarliligini ta’minlamoqchi bo‘lsak, yana quyidagicha shartlarni kiritishni tavsiya etamiz. Bunga ko‘ra besh yoki undan ortiq qiziqarli tezkor mshqlar joylashtiriladi va ikki o‘yin yashirinadi. Agar o‘quvchi 3-4 savolga javob topsa, nisbatan qiziq emas, besh savolga javob topsa qiziqarli o‘yin yechimi topilishi belgilanadi.

Mashqlarni quyidagicha joylashtirishimiz mumkin. Ular qoidalar tushunchalardan so‘ng, son tushunchaga oid mashqlarni matematikaga bog‘lab kasrli ko‘rinishga keltiriladi va avvalida sharti ko‘rsatiladi. Masalan: Ikkala qiz chiqdi ariq bo‘yiga.

Bundan tashqari jadvalli mashqlar kiritilishi va jadvalni to‘ldirish sharti belgilanadi.

Ot	sifat	Son	fe’l	olmosh	bog‘lovchi

Bu jadval keyinchalik yuqori sinf o‘quvchilari uchun murakkablashtirilsa ham o‘z natijasini beradi. Yuqoridagi kabi mashqlarni bajarish uchun kompyuterda vaqt meyori o‘rnatiladi. U tezda bajarilishini ta’minlaydi. Quyidagi boshqotirma-

dan ot, sifat, son fe’l so‘z turkumlariga oid so‘zlarni yasang. Albatta ularning bir nechtasi keltiriladi va ularning o‘rinlari almashtiriladi. O‘quvchilar unga kompyuter sichqonchasi orqali o‘rnini belgilaydi.



Shunday mashqlar qatoriga tovush o‘zgarishi holatga oid mashqlarni quyidagicha jonlash mumkin: Albatta bu so‘z turkumlari doirasida bo‘ladi.

1. Tovush tushishi
2. Tovush o‘zgarishi
3. Tovush orttirilishi

Ularning bir nechtasi keltiriladi va o‘rinlari almashtiriladi. O‘quvchilar ularni kompyuter sichqonchasi orqali o‘rnini belgilaydi. Mashqlar odatdagidek, belgilangan vaqtda tezda bajarilishi kerak.

Keying mashqlar leksikalogiya bo‘limiga bog‘liq bo‘lib, uni jadval, test, gap tarkibida mantiqqa asoslangan mashqlar orqali boyitishimiz mumkin.

Jadvalli leksik mashq:

So‘z	**So‘z turkumlari**	**Lug‘aviy ma’no**	**Grammatik ma’no**	**Omonim**	**Sinonim**	**Antonim**
Kichik paxta		Bor Yo‘q	Bor Yo‘q	Ha Yo‘q	Bor Yo‘q	Bor Yo‘q

Endi „Sinkveyn ‘’ usulidagi topshiriqni kompyuter texnologiyasi asosida ko‘rib

Chiqsak Talabalar uch guruhga ajratilib, har bir guruhga bittadan so‘z berildi.

Talabalar bu so‘zni mavzu sifatida olib, unga sifat va fe’llar qo‘shib, so‘z birikmalari hamda gap tuzdilar.Masalan:

1-guruh

Daraxt: o‘rik

Mavzu: o‘rik

Sifat: sershox, katta

Fe’l: gullaydi, meva berdi

Gap: O‘rik daraxti chiroyli gulladi.

2-guruh

Gul: atirgul

Mavzu: atirgul

Sifat: qizil, xushbo‘y

Fe’l: ochiladi, zavq bag‘ishlaydi

Gap: Atirguldan xushbo‘y ichimlik ishlab chiqariladi.

3-guruh

Giyoh: isiriq

Mavzu: Isiriq

Sifat: foydali, shifobaxsh

Fe’l: davolaydi, urug‘laydi

Gap: Isiriq ko‘pgina kasalliklarga davodir.

Topshiriqlarni tez va bexato bajargan guruh rag‘batlantiriladi.

Dars ta’lim-tarbiya berishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars jarayonida o‘quvchilarning bilimi boyitiladi, savodxonlik oshiriladi, dunyoqarashi kengaytiriladi, axloqiy fazilatlari va tushunchalar orttiriladi. Bu maqsadga erishishda ona tili darslarini boshqa o‘quv fanlari bilan kompuyuter ta’lim texnologiyasi asosida integratsiya qilib tashkil etish yaxshi natija beradi

Xulosa qlib shuni aytamizki, bizning taklifimizdagi ona tili darslarini kompyuter orqali tashkil qilish o‘z samarasini beradi va ayni paytda kompyuterga murojaat davr talbi bo‘lib, qolaveradi. Shunday mshqlarni kiritishda yuqori darajali mutaxassislarga murojat qilib olamiz. Sababi shundaki, yuqoridagi qiziqarli mashqlar xomaki bir reja tarzida aks ettiriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi „O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risi“dagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 yil. 6-son 70-modda.
2.. O‘zbekiston Respublikasining „Ta’lim to‘g‘risi“dagi qonunlari . O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Axborotnomasi 2020yil 7 avgust N: 9 son/
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti. Toshkent. 2017-yil.
4. Boqiyeva. N. Har darsda hamkorlik.// „Boshlang‘ich ta’limi“ jurnali. 2-son. 2008-yil.
5. Fuzalov S., Xudayberganova M., Yo‘ldasheva Sh. Ona tili. 3-sinf darslik. „O`qituvchi‘‘ nashiryoti. Toshkent. 2019-yil.
6..Ikramova R., G‘ulomova X., Yo‘losheva Sh., Shodmonqulova D.Ona tili. 4-sinf darslik. „O‘qituvchi“ nashiryoti. Toshkent. 2017-yil.
7.Qosimova. K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. T: „Nashr“ nashriyoti.

MAKTABGACHA TA`LIM YOSHIDAGI BOLALARNI ARBIYALASHDA O`YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Qosimova Aziza
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida o`yin texnologiyasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *o`yin, texnologiya, didaktika, metodika, tamoyil.*

ZNACHENIE ISPOLZOVANIYA IGROVЫX TEXNOLOGII DETEY DOSHKOLNOGO VOZRASTA

Аннотация: *В данной стате освещаюця педагогисҳеские возможности изполвования игровых технологий в дошколных образовательных организациях.*

Клюсҳевые слова: *Игра, технология, дидактика, методика, принсип.*

THE IMPORTANCE OF THE OF GAME TECHNOLOGIES IN THE *UPBRINGING OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE.*

Annotation: *this article highlights the pedagogical possibilities of using the game yechnology in preschool educational organizations.*

Keywords: *game, technology, didactics, methodology, principle.*

Bugungi kunda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni komil inson bo`lib,shaxs sifatida shakllanishi, el-yurt ravnaqi, sha`nini butun dunyoga tanitishi uchun maktabgacha ta`lim tashkilotlarida har bir tarbiyachilari ta`lim va tarbiyaning barcha vositalaridan oqilona foydalanishlarini taqozo etmoqda.

Bu borada bola shaxsini rivojlantirish orqali ta`lim maqsadiga erishishni taminlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, o`yin texnologiyalaridan foydalanish orqali oldindan ko`zlangan natijalarga erishish mumkin. Bu borada L.S.Vigotskiy o`yin bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalaini o`zlashtirish vositasi ekanini ta`kidlaydi va quyidagi vazifalarni bajarishini ta`kidlab o`tgan:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o`z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o`yin ishtirokchilari o`rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

Shuningdek, o`yinlar to`rt asosiy xususiystga ega ekanligini S.A.Shmakov ta`kidlab o‘tgan:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya`ni bola o`yinni o`zi tanlab, faol ishtirok etuvchiga aylanadi;
- ijodiy xarakter, ya`ni o`yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar yaratadi;
- emotsional ta`sir ko`rsatib, bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;
- o`yin qoidalari o`yin mazmunini mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.
- o`zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo`ladi.
- o`yin faoliyatiga o`qitish metodi deb qarash mumkinligi e`tirof etilgan.

aktabgacha ta`limda o‘yinli texnologiyalar didaktik ta`lim shaklida qo‘llaniladi. Bu jarayonda tarbiyalanuvchilarning bilim olish jarayoni o‘yin

faoliyati orqali amalga oshirilib, o‘yin faoliyati orqali bolaning o‘qishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Didaktik o‘yin davomida bolaning kommunikativ madaniyati, o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘quvchlarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab: syujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferentsiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin.

Tarbiyachi-pedagog avval bolalari individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki bolalar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Tarbiyachi-pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;

2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;

4. O‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;

5. Mashg‘ulotlar davomida didaktik printsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflab, ko‘p ta’limiy-tarbiyaviy natijalarga erishishi lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta`lim tashkilotida o`yin ta`lim texnologiyasidan foydalanishning muhim jihati shundaki, bolalarga

ta`lim va tarbiya berishda o`zaro munosabatlarni shakllantirishda muloqotni, nutqni rivojlantirishda yordam beruvchi vosita sifatida `foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika .”Tafakkur bo`stoni”Toshkent-2013.
2. https://qomus.info.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI

Nazarova Asila Mamarasulovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Maktabgacha ta’lim mutaxassisligi magstranti

Annotatsiya: *maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligi hamda kompetentlik tarbiyachida qanday nomoyon bo‘lishi. Kompetenlik modelini yaratish bo'yicha qanday algoritmni taklif etishimiz mumkinligini ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar*: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetenttlik darajalari hamda kompetentlik modeli*

Аннотация: *в стате описываеця профессионалная компетентност воспитателя досҳколной образовательной организации и то, как эта компетентност невидима у воспитателя. Показано, как можно предложит алгоритм создания модели компетенсий.*

Ключевые слова*: компетентност, профессионалная компетентност, уровни компетентности и модел компетентности.*

Abstract: *the article describes the professional competence of a teacher of a preschool educational organization and how the competence is invisible in the teacher. It is shown how we can propose an algorithm for creating a competency model.*

Key words: *competence, professional competence, levels of competence and model of competence*

Hozirgi kunda Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanishiga qaratilgan. Butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda.Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga eng avvalo mutaxassis tarbiyachilar bo‘lishi lozim. Tarbiyachi eng avvalo, bilimli bo‘lishi, o‘zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo‘lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani

har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Buning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodni bilimlar bilan boyitish lozim milliy qadiryatlarimizni hamda manaviyatimizni tiklash jahon madaniyati miliy madaniyatimiz durdonalarimiz bilan tanishtirish. Tarbiyalanuvchilarni komil inson yani jasur sog‘lom yetuk qilib tarbiyalash vazifalari qo‘yiladi. Bunda tarbiyachi o‘z ustida ko‘p ishlashi hamda maktabgacha talim tashkilotlariga qo‘yilgan talablarni bajara olish lozim.

Bunga quyidagilar kiradi:

- bolaning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash.

- aqliy qobiliyatini o‘stirish.

- milliy qadriyatimiz va ma’naviyatimizning g‘oyaviy-aqliy tamoyillariga mos keluvchi e’tiqod va qarashlarini tarkib toptirish.

- ona vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish. Yosh avlodda o‘rtoqlik, do‘stlik hissini halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olish lozim. Tarbiyachi bolalarni ko‘zata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sab-blarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak.

Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi va uning nutqi quyidagi xususiyatlarda aks ettira olishi kerak.

• Nutqning aniqligi.

• Nutqning irodaviyligi.

• Nutqning sofligi (uning turli sheva so‘zlaridan xoli bo‘lib), faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislarga xos so‘zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqqa o‘zga millatlarga xos so‘zlarning o‘rinsiz qo‘llanilishi), vulgarizm (harakat qilish, so‘kishda

qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rinli bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so‘zlash) so‘zlaridan xoli bo‘lishi va pedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak.

Tarbiyachi bolaning mustaqil harakat qilishga, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishgaharakat qilishi lozim . Tarbiyach, shuningdek, bolalarda har qanday ishonch hissining paydo bo‘lishiga yordam beradi. Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o‘z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o‘z ishini teng sheriklik asosida quradi.

Kasbiy kompetentlik

Kasbiy kompetentlik – mutaxasis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi.

Kasbiy kopetentlik mutaxasis tomonidan alohida bilim malakalarning egalanishi emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va xarakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek kampetesiya mutaxasislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarizlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘lay bilishni taqazo etadi.

Kasbiy kompetenttlik quyidagi holarda yoqqol namoyon bo‘ladi.

- murakab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid malumotlardan foydalanishda :
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda:

Kasbiy kampatentlikka ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi:
- yangi axborotlarni o‘zlashitiradi;

- davr talablarini chuqur anglaydi:

- yangi bilimlarni izlab topadi:

- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko'rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko'rsatib beradi. Mutaxassislarning malakasini baholash muntazam, mustaqil, maqsadli, shaffof, aniq mezonlarga ega bo'lishi kerak.

Kompetentlik nima ekanligini tushungandan so'ng, uning darajalarini aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Kompetenlik modelini yaratish bo'yicha quyidagi algoritmni taklif etishimiz mumkin:

1 bosqich – lavozim yo'riknomasini ishlab chiqish. Ushbu bosqichda lavozim uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar turlarini aniq ko'rsatish muhimdir.

2 bosqich – tekshirish sur'atini aniqlash. Bu ta'lim muassasasining o'ziga xos xususiyatlariga va kadrlar almashinuviga bog'liq.

3 bosqich – har bir o'rin uchun taqqoslash asosida sinov yoki imtihonni o'tkazish tartibini tasdiqlash.

4 bosqich – sinov yoki imtihondan o'tish.

5 bosqich – ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni tizimga keltirish.

6 bosqich – baholash natijalari to'g'risida qaror qabul qilish: qo'shimcha o'qishga yuborish, boshqa lavozimga o'tish, ishdan bo'shatish.

7 bosqich - hisobot davrida ta'lim muassasasining vakolati va ishini baholash samaradorligini yakuniy tahlilini qilish.

8 bosqich - xavf-xatar va to'siqlar bo'yicha ish namunasini to'liq ishlab chiqish. Xususiy yoki asosiy kompetensiyalarga ega bo'lish uchun qanday vakolatlarga ega bo'lish har qanday ishda qo'llanilishi kerak. Ular ta'lim muassasaning qadriyatlariga bog'liq: strategiya, axloq kodeksi.

Shaxsiy samaradorlik kompetensiyalari pedagogning shaxsiy fazilatlari bilan birga o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- yetuklik, o'sishga intilish, masalan, kasbiy qadriyatlarni izlash, ijodiy qobiliyat;

- yetarli darajada o'zini o'zi anglash va o'ziga ishonch;

- moslashuvchanlik, o'zgartirish istagi;

- ish etiketini bilish;

- stressga qarshi o'z-o'zini boshqarish;

- imidj.

Pedagoglarning boshqaruv kompetentligi sifatida jamoaviy ish, rahbarlik, hamkorlik, murabbiylik, rasmiy vakolatlardan foydalanish kabi mezonlar ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasining ilil va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari, T: 2018
2. “Ilk qadam”maklabgacha talim muassasasining davlat o‘quv dasturi.-T.:2018.
3. N.M Quchqarova Pedagogik kompetenttligi va kreativlik.-T: 2022

AUTIZM SABABLARI, TURLARI VA BARTARAF ETISH METODIKALARI

Ahmedov Diyorbek Anvarjon o‘g‘li
Defektologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar*: *Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna

Annotatsiya: Ushbu maqoladan maqsad, turli yoshdagi bolalarda namoyon bo‘ladigan psixologik og‘ir sindromlardan biri bo‘lgan autizmni keng va mukammal o‘rganish, uning etiologiyasini,uni keltirib chiqaruvchi asosiy faktorlarni,ushbu sindromning shaxsda yuzaga keltiradigan salbiy holatlarni o‘rganish va shu bilan bir qatorda ushbu sindromning oldini olish va aynan mana shu sindrom uchun pedagogik-psixologik korreksion metodlarni ishlab chiqish hamda autik bolalar bilan ishlash jarayonida nimalarga e’tibor berish kerak ekanligini tahlil etishdan iboratdir.Shuningdek ushbu maqolada autizm sindromida uchraydigan belgilarni o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: biosotsial,autizm,sindrom,autik bola, nutqiy buzilishlar, aura,RBIMM, psixogen omillar, stress,depressiya.

Hammamizga ma’lumki inson biosotsial mavjudot. U tug‘iladi, o‘sadi, rivojlanadi, inson bo‘lib shakllanadi va sotsial ya’ni ijtimoiy tizimlardan biriga aylanadi ya’ni u jamiyatga shaxs sifatida kirib boradi. Mana shuning uchun ham

biz uni biosotsial mavjudot deya ta’rif ettik. Inson o‘sish va rivojlanishda davom etar ekan hamisha atrof-muhitning turli hil omillari ta’sirida bo‘ladi va bu jarayonlar albatta tabiiy hisoblanadi. Mana shu omillar sirasiga irsiy omillar, tashqi muhit omillari, tarbiyaviy omillar, ijtimoiy omillar hamda bevosita psixogen omillarni ham kiritsak bo‘ladi.

Bugunga kelib insonning shaxs sifatida shakllanishida yuqorida sanab o‘tgan omillarimiz muhim o‘rin tutmoqda. Har bir ontogenetik jarayonda ushbu omillar inson shaxsiyatida rivojlanib bormoqda lekin psixogen omillarning ayrim faktorlari orqada qolib insonni shakllanishdan ortda qoldirmoqda. Psixogen omillarning ayrim salbiy bo‘laklari,masalan: tushkunlik,stress,depressiya,kuchli emotsional affektlar; kuchli hayajon, qo‘rquv va shu kabi omillar insonda turlicha lekin natijasi bitta bo‘lib tugaydigan salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu salbiy oqibatlardan biri,bugungi kunda dolzarb bo‘lib kelayotgan lekin hali hanuz yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan, chuqur tadqiq etilmagan psixik buzilishlardan biri autizm sindromidir. Autizm asosan bolalik davrida rivojlanadi. Shuning uchun ham bu sindrom ko‘p hollarda yosh bolalarda ko‘p uchraydi. Quyida autizmga oid ta’rif va tushunchalar tanishib o‘tamiz va kerakli izohlar beramiz.

•Autizm-shaxsning o‘zini atrof-olamdan olib qochishi hamda o‘zining ichki dunyosida yashashi ma’nosini anglatadi.

Autizm-grekcha "autos", ya’ni "o‘zi"degan ma’noni anglatib, reallikdan uzoqlashish, tashqi dunyodan ajralish va tashqi olam bilan kommunikativ funksiyaning buzilishi kabilarni o‘z ichiga oluvchi sindrom hisoblanadi.

Autizm sindromi yuzaga kelish sababiga binoan faqat orttirilgan sindrom hisoblanadi. Ya’ni ushbu psixik sindrom insonning umri davomida rivojlanadi va ma’lum bir nuqtaga yetganda yuzaga keladi.

Autizm sindromini keltirib chiqaruvchi psixogen omillar quyidagilar:

- qattiq qo‘rquv, kuchli hayajon, muntazam ravishda qilinadigan tazyiqlar;
- stress, depressiya, nafrat;

- kuchli psixik zarbalar, muntazam asabiylashish;

Autizmni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy omillar quyidagilar:

- oilaviy muammolar, janjallar, bee’tiborlik, qattiq tartib intizom;

- ota-onaning bolaga qo‘rsligi, haddan tashqari qattiqqo‘llik, ota yoki onaning asabiyligi;

- ota-onaning bolani haddan ziyod erkalashi, aytganini qilishi bolani ma’lum bir psixik qismini tizimdan chiqaradi;

- ota-onaning farzand tarbiyasiga befarqligi va bolaning ehtiyojlarini mensimasligi;

Autizm sindromini keltirib chiqaruvchi tashqi muhit omillari quyidagilar:

- atrofdagi odamlarning mensimasligi, nojo‘ya hatti-harakatlari;

- boshqalarning bolaning o‘zi haqida bildirayotgan tanqidiy qarashlari, o‘zi haqida eshitgan salbiy fikrlar;

Biz yuqorida sanab o‘tgan ushbu omillar bolalarda autizm sindromini keltirib chiqaruvchi asosiy faktorlar sirasiga kiradi.

Autizm sindromi bolalarda qanday salbiy holatlarni keltirib chiqaradi? Ushbu savolga autizm sindromining sabablarining mohiyatini o‘rganishimiz davomida javob topamiz.

Autizm sindromi bolalarda quyidagi holatlarni keltirib chiqaradi:

- odamoxunlik;
- jizzakilik;
- sababsiz va ko‘p asabiylashish;
- kamgaplik, qo‘rqoqlik;
- jur’atsizlik, irodasizlik;
- ruhiy ojizlik;
- o‘zining individual psixik aurasiga o‘ralib olishi;
- attofdagilarga nisbatan umuman ishonch hissining bo‘lmasligi;
- unga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lgan shuningdek unga kuchli ta’sir qilgan salbiy holatlarni yuzaga keltirgan shaxslarga nisbatan kuchli nafrat;

- atrof muhitda bo‘layotgan voqea hodisalar haqida salbiy fikrlash;

- ayrim holatlarda ong va tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligi, idrok sferasining pastligi;

- qo‘rslik tezda jazavaga tushish, asabiylashish;

- muntazam ravishda tushkunlik, stress;

- gap ko‘tara olmaslik, sal narsalarga arazlab olish;

- yaqin insonlari hatto ota-onasiga nisbatan ham qo‘rquv, ishonchsizlik, havotir va hadik bilan qarash, ular meni kaltaklashmaydimi, ular meni urushmasmikan, aybimni yana yuzimga solsachi degan chuqur konfliktiv hissiyotlar bilan munosabatda bo‘ladi.

- chuqur iztirob, dard, alam, alamzadalik kabi salbiy psixik holatlar.

Biz yuqorida alohida ta’kidlab o‘tgan holatlar autizmning "mevalari" hisoblanadi.

Autik bolada ushbu sindrom kechish jarayonida bolaning alohida patalogik xususiyatlari ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bola hech kimga qo‘shilmaydi, hech kimga ishonmaydi, o‘zi bilan o‘zi andarmon bo‘ladi, o‘zining olamiga kirib oladi va undan chiqmaydi. Autik bola kuchli psixik zarbalardan qattiq ta’sirlanadi. Bu jarayonda bola bir burchakka borib biqinib oladi,qo‘llari bilan quloqlarini mahkam berkitib oladi yoki tizzalarini quchoqlagancha bir nuqtaga tikilib o‘tiradi,hech kimni eshitishni istamaydi. Undagi kechayotgan jarayonlar asta sekinlik bilan uning ong va ong osti sferasida kuchli salbiy affektlarni keltirib chiqaradi. Buning natijasi o‘laroq ayrim holatlarda autik shaxslar o‘rtasida suitsid holatlar ham kelib chiqishi shubhasiz.Autik bola chetdan qaraganda erkalatilgan,tantiq,tarbiyasiz, injiq bola haqida tasavvur hosil qilishi mumkin, atrofdagilarning ko‘chada, transportda, do‘konda uni tushunmasliklari, tanqidlari bolaning hamda ota-onasining holatini murakkablashtiradi. Natijada autik bolalarda "butun dunyoga qarshi chiqishga"intilish istagi paydo bo‘ladi, o‘rtoqlik bog‘lanishlari uziladi, jamoat joylarida bo‘lishdan qo‘rqish hissi tug‘iladi, ya’ni oilaning ikkilamchi autizatsiyasi shakllanadi.

O‘z vaqtida tashxis qilinmaslik va tegishli yordamning, atrofdagilarning xayrixohligi va to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlashining mavjud emasligi tufayli autik bolalarning ko‘p qismi "ta’limga qobiliyatli emas" deb topiladi va ijtimoiy jihatdan moslashmaydi. Autizm sindromiga ega bo‘lgan bolalarning rivojlanish jarayoni quyidagicha kechadi:

-1yoshdan boshlaboq autik bolalarda normal rivojlanishdan chetlashish kuzatiladi;

- ular uzoq vaqtgacha nigohlarini narsalarga, hattoki, o‘z qo‘llariga ham qaratmaydilar, ularda bosh miya po‘stloqlarining integrativ funksiyasi buziladi;

- qichqirish, yig‘lash, so‘zlar paydo bo‘lsa-da, autik bolalar ularni nutqda qo‘llay olmaydilar;

- odatda 10-15 ta so‘zlar ularning passiv va aktiv lug‘atida shakllanadi. Lekin keyinchalik bu so‘zlar ham yo‘qoladi;

- nutqiy aloqaga kirishmaslik, nutqdan foydalanishdagi zaiflik, suhbatdoshining gaplarini tushunmaslik, so‘zlayotganning nutqiga bee’tiborlik - bularning barchasi suhbatni qo‘llashda qiyinchilik tug‘diradi;

- autik bolalarni ko‘pchiligi qo‘zg‘aluvchan, jahldor. Bolani tinchlantirish juda qiyinchilik bilan kechadi.

Autizm sindromini qisman bo‘lsada korreksiya qilishda maxsus pedagog-psixologning ahamiyati katta. Chunki faqat va faqat bunday toifadagi bolalar bilan pedagog-psixologgina ishlay oladi va to‘g‘ri yondasha oladi. Buning uchun mutaxasis kuchli, sabrli, irodali va har tomonlama yetuk salohiyatli va shu bilan bir qatorda juda ham mas’uliyatli bo‘lishi talab etiladi. Ushbu toifadagi shaxs bilan ish olib borayotgan pedagog kim bilan ishlayotganini zinhor unutmasligi va pedagog-psixolog deontologiyasi qoidalariga qat’iy amal qilishi lozimdir. Amaliyotda esa rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga, ayniqsa autizm sindromiga ega bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan korreksion metodikalar ko‘p emasligini hisobga olgan holda mutaxasis ham pedagog, ham psixolog sifatida tashabbuskor bo‘lishi doimo izlanishda bo‘lishi lozim.

Autizmga ega bo‘lgan bolalarning nuqsonlarini bartaraf etish bo‘yicha pedagogik tavsiyalar. Autizm muammolarning murakkabligi va psixik (ruhiy) rivojlanish buzilishining darajalarini inobatga olgan holda, O.N.Nikolskaya autik bolalarni to‘rtta guruhga ajratgan. Korreksion ta’limni tashkil etishda ushbu tasnif individual dastur tuzishga imkon beradi.

1. Bolalarda nutqning yo‘qligi va ularga qaratilgan nutqqa nisbatan befarq bo‘lishi hamda kommunikativ faoliyatning noverballigi.

2. Bolalarda nutqning sodda shaklda va qisman mavjudligi, lekin bolaning muloqotga kirisha olmasligi.

3.Bolalar atrofdagilar bilan muloqotdan qochishi, hatto imo-ishorali muloqot turiga ega emasligi, o‘zgaruvchan sharoitga yomon moslashishi. Bu holat bolaning ota-onasi va logoped bilan muloqotga kirishishida qiyinchiliklar tug‘diradi.

4. Bolalarda psixik, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida sustlashishlar va diqqatini jamlashdagi muammolar kuzatilib, bu ijtimoiy moslashmaganlik va soddalikda namoyon bo‘ladi.

Autizmli bola bilan ishlovchi logoped, defektologlar, pedagog-psixologlar uchun tavsiyalar.

• Mutaxasislar malaka oshirish kurslarida maxsus "Autizm" kursini o‘qishlari lozim.

• Ta’lim va tayyorlov o‘z ichida besh sohani qamrab oladi, ular quyidagilardir:

- autizmga oid nazariy bilimlar. Nazariy yo‘nalish diagnoztika va belgilab olish sohasini o‘z ichiga oladi.

- autizmga ega bo‘lgan mijozni tashxis qilish.

- autizmga nisbatan atrof-muhitning moslashtirilishi.

- funksionallik. Shuni unutmaslik lozimki, autizmga ega bo‘lgan insonlar biz qanday funksional ko‘nikmalarga o‘rgatgan bo‘lsak, shularnigina o‘rganadi.

- "o‘qitish va ta’lim usullari qay tarzda autizmli bolaga moslashtirilishi lozim" degan savolga taalluqli.

Autizmga ega bo‘lgan bolalar uchun maxsus ta’lim tizimining ishlab chiqilishi va qo‘llanilishi, ehtimol, eng muhim vazifadir, chunki hech kim bunga an’anaviy maxsus ta’lim orqali tayyorlanmagan.

•Pedagogik strategiyaning asosini individual yondashuv tashkil etishi lozim.

•Jamoatchilikning autizm haqidagi xabardorligini oshirish bilan bog‘liq tashviqot ishini yo‘lga qo‘yish ham juda muhimdir

Xulosa o‘rnida quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Bugungi kunimiz uchun har tomonlama sog‘lom yoshlarni kamol toptirish uchun jamiyatimiz har tomonlama sog‘lom bo‘lishi darkor. Avvalambor o‘zimiz sog‘lom muhitni yaratmog‘imiz lozim. Biz o‘rganib chiqqan toifadagi shaxslar ya’ni autizm sindromli insonlar ham biz kabi bo‘lishni xohlaydi, biz kabi sog‘lom fikrli bo‘lishni,sog‘lom auraga ega bo‘lishni istaydi. Ularning mana shu istaklarini qondirish uchun biz pedagog-psixologlardan katta mas’uliyat va sabr-matonat talab qilinadi.

Logopediya, psixologiya, neyropsixologiya, korreksion pedagogika va maxsus psixologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichi bolalarning psixik rivojlanishidagi turli-tuman xususiyatlarni chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan e’tibor bilan ajralib turadi va bu g‘oyat katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Rivojlanishda turli kamchiliklari bo‘lgan, jumladan, autizm va kompleks nuqsonlarga ega bolalarning soni tobora ortib bormoqda.

So‘ngi yillarda bolalarda har xil psixik buzilishlarni o‘rganish va korreksiya qilish muammosiga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Masalan, erta bolalar autizmiga oid ko‘plab adabiyotlar, jumladan, tavsiyanomalar internet tarmoqlarida paydo bo‘lmoqda.

Bugungi kunimizda siz-u bizdan talab qilinadigan talab shundan iboratki, o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga, farzandlarimiz tarbiyasiga hech qachon befarq bo‘lmasligimiz, ularning istak va xohishlarini, ayniqsa, ulardagi mavjud his-tuyg‘ularni hurmat qilishimiz darkor. O‘zimiz ularga o‘rnak va zarbulmasal

bo‘lishimiz lozim. Ana o‘shandagina bizdan keyingi hayotimiz davomchilari har tomonlama yetuk, sog‘lom va yuksak komillikka erishgan yetuk shaxslar bo‘lib tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov Diyorbek Anvarjanovich - "Autizm sindromi bo‘yicha ilmiy-amaliy izlanishlar". NamDu 2023.
2. L.R.Mo‘minova - "Autizm sindromi, uning sabablari,turlari va bartaraf etish metodikalari". Toshkent "Spectrum Media Group" 2015.
3.w.w.w.arxiv.uz.
w.w.w.ziyonet.com.
w.w.w.Kun.uz.

PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA – DEONTOLOGIK KOMPETENTLIK

Qambarov Musoxon Muxtorjanovich
NamDU.Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: maqolada pedagogik kompetetlikning komponentlari sifatida Pedagogik deontologiya – Deontologik kompetentlik ktushunchalarinini mohiyati ochib berilgan. Kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning yaxlit tizimini shakllantirish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda Deontologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: deontologiya kompetentlilik, mediasavodxonlik, audioviZual ma’lumotlar, media, kompyuter, shaxsga oid ma’lumotlar, axborot, gazeta, jurnal, radio, televideniya, kompetentlik tushunchasi.

Камбаров Мусохон Мухторжанович,
Доктора философии, по педагогическим наук доцент НамГУ

Аннотация: В статье раскрыта сущность понятий медиаграмотность и медиакомпететность как компоненты педагогической компетентности. Указаны педагогические основы медиакомпететности будущих учителей в процессе формирования целостной системы профессиональных знаний, умений и навыков.

Ключевые слова: компетентность, медиаграмотность, аудиовизуальные информации, медиа, компьютер, информации о личности, информация, газета, журнал, радио, телевидение, понятие компетентность.

Qambarov Musokhon Mukhtorzhanovich,
NamSU. Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, dotsent

Annotation: The article reveals the essence of the concepts of media literacy and media competence as components of pedagogical competence. Furthermore, it is given information on the process of formation of the holistic system of professional knowledge and skills, pedagogical bases of development of media competence that will be indicated in future career of students.

Keywords: competence, media literacy, audiovisual data, media, computer, personal data, information, newspaper, magazine, radio, TV, the concept of competence.

Xorijiy so‘zlar lug‘atida «kompetentlik» tushunchasi biror shaxs yoki muassasaning vakolati va huquqlari majmuasi yoki biror bir insonga tegishli

ishlar, savollar majmuasi sifatida ta’riflangan. Fransuzcha «competent» so‘zi kompetentli, vakolatli sifatida tarjima qilinadi. Inglizcha «competense» atamasida shaxsning sifati ma’nosi mavjud: kompetentlik - qobiliyat sifatida keltirilgan.

Kompetentlik alohida jihatlariga ko‘ra tadqiq qilinsa ham, umuman olganda, fundamental pedagogik muammo sifatida hali nafaqat yechimi topilmagan, balki, muammo sifatida ham yetarlicha shakllantirilmagan. Xususan, kompetentlik yondoshuvini tizimli tahlil etishga, uni umuman ta’lim tizimida ham, kasbiy ta’limda ham qo‘llashning nazariy-metodologik va didaktik asoslarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Ma’lumki, har bir kasb o‘z mazmuniga maxsus yondashuvni va kasbiy faoliyatning u yoki bu funktsional vazifasiga ko‘ra maxsus shakllanishini talab qiladi. Pedagogik faoliyatda mutaxassisning pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi zarur. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi kasbiy yetuklikligini baholovchi me’yoridir.

Deontologik kompetentlik – kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy xarakatlarni tashkil etish, pedagogik faoliyatda odob, axloq, burch va majburiyatlarni yuqori darajada xis etish va unga amal qilish.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan pedagog, ta’lim-tarbiya samaradorligini va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi.

"Deontologiya" so‘zi deontos - "shart", "burch", logos - "ta’limot", degan ma’noni anglatib, ingliz faylasufi Dj.Bentam mazkur tushunchani ilmiy jihatdan asoslagan1. Uning "Deontology of science of morally" 2 asarida deontologiya ya’ni, inson axloqi, etikasi xaqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan. Keyinchalik Dj.Bentam tomonidan deontologiya so‘zi kasbiy etikada keng qo‘llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, xulq, qonunchilik, sud, pedagog, quruvchi, hamda davlat boshqaruvi tizimida burch, odob-axloq normalarini ifodalaydi. Pedagogik odobni, burchni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy

natijalar beradi. Bunday muhitda o‘zaro fikr almashish shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirayotgan qarashlar bilan taqqoslash ularning tug‘riligi, haqqoniyligiga ishonch xosil qilish mavjud bilimlarni yanada boyitishga imkoniyat yaratadi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda odob, axloq, burch va majburiyatlarni yuqori darajada xis etish va unga amal qilish haqida sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, zamonaviy pedagog olimlarimiz, Barno Abdullaeva, Oynisa Musurmonova, Xayrixon Raxmatova va boshqalar o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususidagi fikrlarini bayon qilganlar. "Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligini va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi", - deb ta’kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib deontologiya fani qoidalariga asoslanib o‘qituvchilarimizga quyidagi maslahatni tavsiya qilamiz:

a) o‘qituvchilik kasbining asosiy burchi va uning mazmuniga e’tibor berish;

b) qo‘yilgan talablarning bajarilishida pedagogik xulq-atvor muhim ekanligini inobatga olish.

Har bir vazifani bajarilishi o‘qituvchining axloqiy qoidalari va me’yorlariga mos kelishi zarur.

Zamonaviy o‘qituvchi o‘z sohasi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish, kasbiy mahorat sirlarini puxta o‘zlashtirishdan tashqari, bir tomondan, o‘quvchilarning bilimdonligi va intellektual rivojlanishini ta’minlashi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularda sog‘lom dunyoqarash, mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishi lozimdir. Shu tufayli o‘qituvchi-mutaxassislarni tayyorlashda ularning kasbiy sifatlari bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilarda media kompetentlikhi qaror toptirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Chunki o‘qituvchining o‘zi media kompetentlikga ega bo‘lmasa, o‘quvchilarida bunday xususiyatni shakllantira olmasligi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Luriya A.R. Lektsii po obщeu psixologii. – SPb.: Piter, 2016. – 320 s.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014
3. Козырева О.А. Компетентность современного учителя: современная проблема определения понятия Стандарты и мониторинг в образовании. –2004. – № 2. – С.48-51.
4.Qambarov M.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik komponentlarini shakllantirish //NamDU Ilmiy axborotnomasi.-Namangan, 2021-y. №11. – B.681-686.
5. Qambarov M.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari // NamDU Ilmiy axborotnomasi.-Namangan, 2021-y. №12. – B.693-697.
6. Qambarov M.M. Talabalar mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish. Monografiya-Namangan: Arjumand mediya. 2021-y.
7. Qambarov M.M. Pedagogik atarixi. Toshkent: Bayoz. 2022-y.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING NATIJALARI

Azizaxon Nuriddinova
NamDU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ta’lim tizimi islohotiga doir chiqarilgan farmon va qarorlar xalq ta’limi hodimlari, jumladan boshlang‘ich ta’lim mutahassislariga ham ma’sulyatli vazifalarni yukladi. Boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim fanlari orqali o‘quvchilarning umuminsoniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: To‘g‘ri o‘qish, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion metodlar, pedogogik texnologiyalar.

Аннотация: Изданными указами и решениями о реформировании системы образования перед работниками народного образования, в том числе перед специалистами начального образования, были поставлены ответственные задачи. Совершенствование начального образования является одной из актуальных задач современности. Известно, что общечеловеческие и нравственные качества учащихся, начальные навыки грамотности формируются через предметы начального образования.

Ключевые слова: Правильное чтение, начальное образование, инновационные методы, педагогические технологии.

Abstract: The issued decrees and decisions on the reform of the education system assigned responsible tasks to public education workers, including primary education specialists. Improving primary education is one of the urgent tasks of today. It is known that general human and moral skills of students, primary literacy skills are formed through primary education subjects.

Key words: Correct reading, primary education, innovative methods, pedagogical technologies.

Ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini dunyo qarashini, o‘z-o‘zini anglash, jismoniy sog‘lom bo‘lishga, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirishga, mamlakatimiz boyliklarini ko‘z-qorachig‘iday asrashga, tabiatga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. O‘quvchi

maktabga kelgan dastlabki kunidan boshlaboq o‘qishga havas qo‘yishi savodli o‘qishi, dastlabki amallarni to‘g‘ri bajarishga o‘rgatishi kerak O‘qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘qishni bilmagan odamning ko‘zi ojiz kishidan farqi yo‘q. O‘qish faoliyati boshlang‘ich sinflarda barcha fanlar tarkibida amalga oshiriladi, lekin o‘qishga o‘rgatish o‘qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik oshdagi o‘quvchini o‘qishga o‘rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olish zarur.

Ta’limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni olib kirish va eng zamonaviy, takomillashgan o‘qitish usullarini qo‘llagan holda yuqori samaraga erishish bugungi kunning oldidagi dolzarb vazifalaridan biridir. O‘quvchilarni qiziqarli topshiriqlar asosida o‘qitish o‘qishga o‘yin tusini beradi. Bola o‘ynab charchamaganidek, o‘qib charchaganini sezmaydi. O‘qishga qiziqmaydigan, darslarga kelibkelmaydigan o‘quvchilar ham o‘yinga qiziqadi. Darslarda turli o‘yin mashg‘ulotlarini tashkil etish bu o‘quvchilarda ham qiziqish uyg‘otadi. O‘quv materiali hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o‘qishni tashkil etish, bolani o‘qish mashg‘ulotidan bezdiradi. Natijada o‘quvcilarda bo‘sh o‘zlashtirush va ulgirmovcilik sabablari yuzaga keladi. O‘qish fanlaridan bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun nimalarga alohida e’tibor qaratish lozim: Darslarda yangi pedagogik, zamonaviy texnalogiyalar, noan’anaviy usullardan keng qo‘llash; ko‘rgazmali, didaktik, test, tarqatma materiallaridan keng foydalanish; o‘quvchilarga do‘stona munosabatda bo‘lish; o‘qish sifati va samaradorligiga e’tibor berish; o‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga orgatishda turli mashqlardan foydalanish; nutq o‘stirishga alohida e’tibor qaratish; yangi axborot texnalogiyalardan foydalanish; lug‘at ustuda ishlashga o‘rgatish; Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish; “She’riyat gulshani”, “Ifodali o‘qish” kabi to‘garaklar tashkil etish; bo‘sh vaqtlarda ulgurmovchi o‘quvchilar bilan alohida, yakka tartibda ish olib borish; fanlararo bog‘liqlikka ahamiyat berish. O‘quvchilar bilishini nazorat qilib borishda albatta past o‘zlashtirgan o‘quvchiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni o‘qishning bir necha turlari yani, ongli, tez, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatib boriladi. O‘qituvchi ongli tez, to‘g‘ri, ifodali o‘qishga o‘rganishda ulgurmayotgan o‘quvchilar bilan qanday ishlar olib boorish kerak? To‘g‘ri o‘qish tushinarli qilib xatosiz o‘qishdir. Ma’lumki ayrim o‘quvchilar ko‘pincha ba’zi xarflarni tushurib, bog‘inlar, so‘zlarning o‘rnini o‘zgartirib o‘qiydilar. Bunday xatolarga yo‘l qo‘ymasliklari uchun qiynalib o‘qiydigan o‘quvchilarga katta xajmdagi matnlarni qismlarga bo‘lib o‘qishni tavsiya qilish anchagina yengillik yaratadi. To‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

- dastlab 3-4 bo‘g‘inli so‘zlarni o‘qish ,
- 5-6 bo‘ginli so‘zlarni esa bo‘g‘inlarga bo‘lgan xolda o‘qish;
- tanish matnlarni o‘qitishda o‘qish surati biroz oshiriladi.

Shunday qilinganda bolalar notanish matnlarni ham tutilmay o‘qish malakasiga ega bo‘ladilar; - to‘g‘ri o‘qishni bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar o‘zlashtirishi uchun tovush, bo‘g‘in va so‘zlarni to‘g‘ri, aniq, sof talaffuz etish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, talaffuzda p yozuvda esa b yoziladigan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qushga o‘rgatish (oftob,serob); r tovushini l, y deb (bayroq - bayloq, o‘rtoq - o‘ytoq) talaffuz etishlarining oldini olish uchun bunday so‘zlar yo‘zilgan ko‘rgazmalardan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘qish tezligini oshirish ancha murakkab jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bola tez o‘qiyman deb shoshiladi,natijada xatolarga yo‘l qo‘yadi. O‘qituvchi bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda yaxshi kayfiyat uyg‘ota olishi, sinfda yaxshi muhit yaratishi, har bir bolada “To‘g‘ri va ravon o‘qiy olaman” degan ishonchni uyg‘otishi lozim.

Ongli o‘qish jaroyonida o‘qilayotgan matnni tushunib, asosiy maqsadni o‘qib, asardagi ayrim o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlarni izohlash, bunday so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish, tuzilgan gaplarni mazmun tomondan jamlab, kichik hikoya hosil qilish, matnning tugallangan qismidagi asosiy fikrni topish mashqlarini tez-tez o‘tkazish, matndagi tabiat tasvirini, insonlarning yaxshiyomon odatlarini misollar yordamida, asardagi voqealarga bog‘lab gapirib berish

maqsadga muvofiq. Qaysi ishlar yaxshi va ularga ergashish mumkin, qaysilari yomon, ulardan nafratlanish kerakligini izohlab berishni o‘quvchilarga topsjiriq tariqasida tavsiya etish mumkin. O‘quvhilar to‘g‘ri, ongli, tez o‘qishni egallagan taqdirdagina ifodali o‘qiy oladilar. Ifodali o‘qishga o‘rgatish, o‘qishga o‘rgatish bilan bir paytda amalga oshiriladi. Ifodali o‘qishga ulgurmayotgan o‘quvchilarga kichik misrali she’rlardan yod olishga topshiriq berish, kichik misradagi she’rdagi ohangga, tinish belgilariga alohida e’tibor bilan yod olish aytiladi.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarda o‘z aksini topmoqda. Mamlakatimizda ta’lim oluvchi-yoshlarning ijodiy g‘oyalarini har tomonlama qo‘llabquvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Darhaqiqat, boshlang‘ich ta’limda bola shaxsining aqli, dunyoqarashi, savodxonligi, mantiqiy tafakkuri, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, o‘qish darslarida bola borliq, atrof-muhit bilan tanishadi, yaxshini yomondan ajratishni anglaydi, vatan tuyg‘usini his qiladi. Ko‘rganini va o‘qiganini qayta hikoyalash ko‘nikmasi shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziquvchanligi va bilishga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda pedagogik va axborot texnologiyalaridan darslarda samarali foydalanish bugungi kun pedagoglaridan zamon bilan hamnafas bo‘lishni talab qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarni darsdagi faolligiga erishilinadi, dars mazmuni o‘quvchilarga tushunarli tilda bayon etiladi. Bu borada “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” singari metodlar bilan bir qatorda “O‘zim tekshiraman”, “Bo‘lishi mumkin emas”, “Ortiqchasini top”, “Juftini top” singari didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” metodlarida boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan barcha o‘quv fanlarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanilganida juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash mumkin. Savod o‘rgatish darslarida

“Ortiqchasini top” didaktik o‘yinini qo‘llash orqali sinf o‘quvchilarining eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Ushbu didaktik o‘yinni tayyorgarlik davrida rasmlar yoki tayyor predmet va o‘yinchoqlar asosida tashkil qilinganida ham yaxshi natijalar qo‘lga kiritiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘qitish tamoyillaridan biri sanalmish ta’lim-tarbiyaning ko‘rgazmalilik tamoyili asosida darslarni tashkil qilishga harakat qiladi. Bunda talab asosida ko‘rgazmalilik aniq predmet va narsalarni kuzatish va ko‘rsatish orqali; Mavjud predmetlar va narsalarning modeli va nusxasidan foydalanish orqali; Hodisaning tasviri, rasm, jadval yoki xaritalarni ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.O‘qituvchi ushbu tamoyilni amalga oshishida multimediya vositalaridan foydalanishi mumkin. O‘tilayotgan mavzuni bola tasavvurida yaqqol hosil qilish va ta’lim sifatini oshirishda multimediya vositalari orqali namoyish qilishning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi kunda ta’lim sohasida o‘qitishni avtomatlashtirishga katta e’tibor berilmoqda. Chunki zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O‘qitishni avtomatlashtirish (axborotlashtirish) yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish murnkin:

a) ta’lim tizimining barcha pog‘onalarida axborotlashtirishning yetakchi bo‘g‘inligini ta’minlash;

b) barcha sohalar bo‘yicha bilim berishda axborotlashtirishni riyojlantirishni loyihalash va yaratish (monitoring), resurs markaz tizimi;

d) axborotlashtirish sohalarida me’yoriy bazalarni yaratish (metodlar, ilmiy-metodik birlashmalar va h.k.);

e) texnik ta’minotni - kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari (fotoapparat, kamera), ularga xizmat ko‘rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;

f) telekommunikatsiya (havo orqali, yerning sun’iy yo‘ldoshlari va boshqa aloqa kanallari) tarmoqlari; g) ta’minot resurslari (dasturiy ta’minot, internetdagi axborotlar majmui, ma’lumotnomalar va h.k.).

Boshlang‘ich ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish bugungi kun ta’lim jarayoninig muhim vazifasi hisoblanadi. Ayniqsa tabiatshunoslik darslarida televideniya orqali berib boriladigan ilmiy-ommabob filmlar, audio-video texnikasi vositalari orqali beriladigan o‘quv materiallari, kompyuter va internet materillaridan foydalanish mumkin. Hozirda boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchilari darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan birga axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalangan holda tashkil etish orqali oquvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaxkamlash mas’uliyati yuklanadi. Kompyuter orqali darslarni tashkil etish uchun fan o‘qituvchilari avvalo kompyuterda ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim. Har xil ko‘rinishdagi darslarni tashkil qilish asnosida vizual informatsiyalarga yuqori darajada talabgor bo‘lgan o‘quvchilarining xohishi amalga oshadi, mashg‘ulot zerikarli ko‘rinishdan mazmunan boy va ta’sirchan darsga aylanadi, ko‘rgazmalilikning amalga oshishi natijasida diqqat va yangi mavzuning xotirada uzoq muddatga saqlanib qolishi ta’minlanadi. Darsni mazmunli o‘tishiga tayyorgarlik ko‘rilishi natijasida esa, o‘qituvchining ijodkorligi va zamonaviy bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi rivojlanadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Matnazarova K. O‘qitishning faol metodlari// Boshlang‘ich ta’lim, 2009, 5-son
2. Ishmuhamedov R.,Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T:, 2008-yil
3. ”Boshlang‘ich ta’lim jurnali”. 12-son, 2014- yil –dekabr
4. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi.- Toshkent, 2019
5. Yo‘doshev J.G‘, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.
6.F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M.N. A'zamova. Maktabgacha pedagogika Tafakkur" – Toshkent – 2019.
7. Qambarov M.M. Talabalar mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish. Monografiya- Namangan: Arjumand mediya. 2021-y.
8. Qambarov M.M. Pedagogik atarixi. Toshkent: Bayoz. 2022-y.

KREDIT-MODUL TIZIMI VA UNING AMALITOTGA JORIY ETISH TAMOYILLARI (OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AMALIY FANLARNI O‘QITISHDA)

Madaminov Furqatjon Shuhratjonovich
NAMDU Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlangan davlatlar eksperimentlari asosida O‘zbekiston OTM amaliyotida kredit-modul tizimini joriy etish va aynan, amaliy fanlar sohalarini o‘qitishga bu tizimni tadbiq etishning afzalliklari va mutaffakkirlarning mustaqil fikrlashga qaratilgan tavsiyalari haqida ma’lulot beriladi.

Kalit so‘zlar: kredit-modul, tamoyil, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, , ijodkorlik, nazariya, akademik- mobillik, kognitiv, hamkorlik, mustaqil ishlash, talab, kreativ, kadrlar tayyorlash, afzallik, amaliy fanlar , rivojlanish.

КРЕДИТНО-МОДУЛЬНАЯ СИСТЕМА И ПРИНЦИПЫ ЕЕ ВНЕДРЕНИЯ В АМАЛИТО (ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРИКЛАДНЫХ НАУК В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ)

Мадаминов Фуркатжон Шухратжон угли.
Преподаватель кафедры изобразительного искусства и инженерной графики НАМДУ

Аннотатция: В данной статье представлена информация о внедрении кредитно-модульной системы в практику вуза Узбекистана на основе экспериментов развитых стран, а именно о преимуществах внедрения этой системы в преподавание областей прикладных наук и рекомендациях мыслителей, направленных на самостоятельное мышление.

Ключевые слова: кредит-модуль, принцип, саморазвитие, , креативность, теория, академическая мобильность, познавательная, сотрудничество, самостоятельная работа, спрос, креатив, обучение персонала, предпочтение, прикладные науки , развитие.

THE CREDIT-MODULE SYSTEM AND THE PRINCIPLES OF ITS INTRODUCTION INTO AMALITOT (IN THE TEACHING OF APPLIED SCIENCES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS)

Madaminov Furqatjon son of Shuhratjon
Teacher of the Department of graphic design of Fine Arts buds NAMDU

Annotation: In this article, on the basis of the experiments of developed countries, the implementation of a credit-module system in the practice of the OSCE of Uzbekistan and the implementation of this system in the teaching of the fields of Applied Sciences will be given a report on the advantages and recommendations of thinkers aimed at independent thinking.

Keywords: credit-module, principle, self-development,, creativity, theory, academic - mobility, cognitive, collaboration, independent work, demand, creative, personnel training, preference , Applied Sciences, Development.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlarida ta’lim oluvchilarga ijobiy munosabatda bo‘lish, ularga talaba emas shahs sifatida qarash, dars mashg‘ulotlarida talabalarni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish, talabalarnini egallayotgan bilimlar to‘g‘risidagi fikrlarini qo‘llab- quvvatlash va

ularni o‘zlariga bo‘lgan ishinchlarini oshirib borish va rag‘batlantirish pedagogdan innavatorlik talab etadi.

Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy “Har bir avlod to‘plangan tajribani keyingi avlodga qoldiradi, u esa bu tajribani yanada rivojlantiradi va boyitadi”- deb yozib qoldirgan. Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalariga kredit-modul tizimini joriy etilganligi ham OTM talabalari uchun keng imkoniyat va qulayliklar yaratdi.

Kredit- modul tizimi talabaning o‘quv faoliyati sifatini nazorat qilish va uning keying ta’limini rag‘batlantirish vositasidir. O‘qitishning reyting tizimi talabalarni o‘qishdagi yutuqlari haqida aniq va ishonchli ma’lumotlarni tezkorlik bilan ta’minlaydi, ularni o‘ziga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlaydi, ichki motivatsiyani rag‘batlantiradi.

Modulli o‘qitish – qulay va tartibli o‘qitish demakdir. Modullar birinchi navbatda, ta’lim mazmuniga dahldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiy bog‘lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga hizmat qiladi. Modulli ta’limda pedagog tinglovchining o‘zlashtirish jarayonini nazorat qiladi, faoliyatlarini boshqaradi, tegishli maslahat beradi, baholaydi. Talaba esa yo‘naltirilgan obekti tamon mustaqil ta’lim olishga yo‘naltiriladi.

Aynan amaliy fanlarni o‘qitishda bu tizimni tadbiq etishning ahamiyati shundaki, barchaga ma’lumki amaliy fanlarni o‘rganishda kuchli tafakkur, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik talab etiladi. Bu fanni o‘qitish va o‘rganish uchun OTM larida kredit-modul tizimini tadbiq etish ta’lim samaradorligini sezirarli darajada oshiradi. O‘zbekistondagi amaliy fanlar sohalarini o‘rgatuvchi oliy ta’lim muassasalarini jahon miqyosidagi nufuzli universitetlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga imkon beradi. Kredit-modul tizimiga o‘tish amaliy fanlar sohasida o‘qiyotgan talabalarga qanday imtiyozlar berdi:

Birinchidan, akademik mobillik – talabalar kreditlarini saqlagan holda istalgan mos oliygohga o‘qishni qiyinchiliklarsiz ko‘chirib o‘tishlari mumkin bo‘ladi. U hoh jahon universiteti hoh o‘zimizdagi istalgan OTM bo‘lishining

ahamiyati yo‘q. Faqat talaba to‘plagan krediti ko‘chirib o‘tish kreditiga etsa bo‘lgani.

Ikkinchidan, talabalarga o‘qituvchini tanlash erkinligi beriladi, bu orqali o‘qituvchi va talaba o‘rtasida akademik muloqat ta’minlanadi.

Uchinchidan, talabalar o‘zlari ihtiyoriy holda fanlarni tanlaydilar . Albatta bu o‘rinda majburiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan (mutahasis) fanlar ham bor ammo talaba mustaqil tanlov fanlarini belgilay oladi. Amaliy fanlar sohasidagi talabalar uuchun bu ayni muddao. Sababi, ular mutahasis fanlarini mukammal o‘rganishlari uchun bu ularga etarlicha vaqt beradi.

To‘rtinchidan, talabalarga ta’lim dasturini mustaqil shakillantirish imkoniyatini yaratish va qo‘yiladigan baholarnning oshkoraligini ta’minlash yo‘lga qo‘yiladi.

Oliy ma’lumot olganligi to‘g‘risidagi diplom esa belgilangan kreditlar yig‘ilganidan so‘ngina beriladi. Semestr yakunida talabalar bahosining 50 foizini fan o‘qituvchisi va 50 foizini OTM rahbariyati qo‘yadi. Ya’ni bir semester davomida oraliq nazorat, uyga vazifalar vaamaliy mashg‘ulot (labaratoriya) ishlarini professor - o‘qituvchilar baholaydi. Yakuniy nazorat OTM rahbariyati tamonidan olinadi. Unda o‘qituvchi- professor ishtirok etmaydi.

Demak, kreditlarni yig‘ich uchun talabalardan darslarga o‘z vaqtida ishtirok etish berilgan topshiriqlarni bajarish, egallagan bilimlarini samaradorligini namoyon etish talab etiladi.

Shu bilan birga ta’lim kredit-modul tizimi o‘quv jarayonini tashkil qilish tamoyillarini takomillashtirish, talabalar bilimini nazorat qilish, oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchi- professorlar tarkibini moddiy rag‘atlantirish va mehnat haqqini yahshilash tamoyillarini ham ko‘rib chiqishni talab etadi. Bundan tashqari o‘quv qo‘llanma va maeriallar bilan ta’minlanganlik, amaldagi me’yorlarni ta’lim krediti tizimini talabalarga mos bo‘lishi ham muhmdir. Asosiy muhim jihatlaridan yana biri talabani mustaqil ishlashga yo‘naltiriladi. Mustaqil ishlash orqali esa mustaqil fikrlashga va shahs sifatida erkin rivojlanishiga imkon

yaratiladi. Shu o‘rinda mustaqil ishlashga o‘rgatishning afzalligi va olimlarimizning tavsiyalariga to‘xtalib o‘tsak.

X.Tillashevning ma’lumot berishicha, Umar Hayyom ham mustaqil fikrlash o‘quvchi taraqqiyotining har bir bosqichida o‘ziga hos tarzda namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlagan.U o‘zidan avvalgi olimlarning ishlarini o‘rganib, ularda o‘quvchini qiziqtirish uchun mustaqil erkin fikrlash ,olingan bilim va malakalarni ongli ravishda o‘zlashtirish bilan bog‘liq faoliyatning yo‘qligi nomaqul ekanini ta’kidlagan. Umar Hayyom u yoki bu matematik holatlarni tushuntirishda erkin yondashuv zarurligini qayd etgan va o‘quvchi ta’lim jarayoni davomida mutassil ravishda mustaqil fikrlshga da’vat qilib, yo‘naltirib turilishi kerakligini ko‘rsatgan.U mahsus yo‘llar bilan o‘quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga odatlantirish, masalani o‘zi hal qilishga o‘rgatish zarurligini ko‘rsatgan .

Abu Nasr Farobiyning fikricha, aql quvvatining eng muhim vazifalarining biri, mantiqiy mustaqil fikr operasiyalarni bajarishdir. Bu vazifa aql quvvatiga kiruvchi mustaqil “quvvai fikriyya” inson mantiqiy fikrlash jarayoni tomonidan amalga oshiriladi, ya’ni agarda “quvvai natifiya” (quvvat natijasi) bilan anglashadigan narsani bilib olish zaruriyati tug‘ilsa, “quvvai fikriyya”(quvvat fikri) ishga kirishadi. Bu faoliyat fikr yurgizish, tushuncha va hukmlar yordami bilan amalga oshirilib, keyinchalik xulosalar chiqarish bilan yakunlanadi. Uni tafakkurga umumlashtirish va mavhumlashtirish, analiz va sintez qilish kabi xususiyatlari xosligi haqidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega.

Bundan ko‘rinib turibdiki mustaqil fikrlash va mustaqil ishlashga o‘rgatish nafaqat ta’limning balki, biz pedagoglarning ham oldimizdagi eng ustuvor maqsadimiz bo‘lishi kerak. Kredit- modul tizimi esa bizlarga bu yo‘lda keng imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston OTM ta’lim tizimiga kredit-modulni to‘liq joriy etish mamlakatimizdagi barcha sohalarning rivoji yo‘lidagi kata burilishni yasaydi. Zotan oliy ta’limdan etishib chiqqan bilimli kreativ kadrlar yurtimiz kelajagi poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanova.M, Jumanova.M – Kredit-modul tizimi va uning amaliyotga joriy etish tamoyillari. 2020 yil.
2. Каримбеков. С. Узбекистан в XXI веке. Обучение и исползованием системы кредитов. Переспективы развития висшего оброзования № 3 Ташкент. 2015. 115- с.
3. Erkaboev. I, Yakubova .SH.- Talabalarda mustaqil fikrlashni shakillantirish vositalari. 2022 yil.
4. Mahmudova.N.A.- O‘quvchilarda o‘zini-o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish. Namangan.2022 yil bet-22

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DEVIANT XULQNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Axmedova Dilrabo Sa’dulla qizi
NAMDU Boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi.
Hayitmirzayeva Muazzam Valijon qizi
NAMDU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 303 guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya haqida mutaffakkirlarning tavsiyalari, kreativ yondashuv asosida deviant xulqni bartaraf etish yo‘llari, to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: kreativ, deviant xulq, faollik, hamkorlik, tarbiya, intellekt , aspekt, motivation, shahsiy fazilatlar, me’yor, shahs, og‘ish.

СПОСОБЫ УСТРАНЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Ахмедова Дилрабо Садулла кызы
Преподаватель кафедры методики преподавания социально гуманитарных дисциплин в начальных классах НАМДУ
Хайитмирзаева Муаззам Валиджон кызы.
303 студента факультета дошкольного и начального образования НАМДУ, отделение начального образования Глыски

Аннотация: В данной статье представлена информация о рекомендациях мыслителей о воспитании, способах устранения девиантного поведения на основе творческого подхода.

Ключевые слова: творчество, девиантное поведение, активность, сотрудничество, воспитание, интеллект, аспект, мотивация, личностные качества, норма, личность, девиация.

WAYS TO ELIMINATE DEVIANT BEHAVIOR BASED ON A CREATIVE APPROACH

Daughter of Akhmedova Dilrabo Sadulla
Teacher of the Department of Teaching Methodology of Social and Humanities in Primary Education
Hayitmirzayeva is the daughter of Muazzam Valijon
303 students of the Faculty of Preschool and Primary Education of NAMDU, Primary Education Department Glysky

Abstract: This article provides information about the recommendations of thinkers about education, ways to eliminate deviant behavior based on a creative approach.

Key words: creative, deviant behavior, activity, cooperation, education, intelligence, aspect, motivation, personal qualities, norm, personality, deviation.

Bugungi globallashuv davrida sog‘lom, yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash va ularning muammolarini bartaraf etish jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayev ta’kidlaganidek, “Biz yoshlar bilan ko‘proq gaplashib, ularning qalbiga quloq solib, dardini bilib, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak[6]**.** Shuning uchun ham, mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va ularning muammolarini bartaraf etish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ma’naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohatlarning tizimli bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Yosh avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan insonlar, ya’ni oilada-ota-onalar, mahallada qo‘ni-qo‘shni va keng jamoatchilik, ta’lim muassasasida o‘qituvchi va murabbiylar kelajak avlod barkamolligi yo‘lida yoshlarning ulug‘ ajdodlarimizga munosib bo‘lishlari uchun mas’uldirlar. Biz yoshlarimizni xulqidagi o‘zgarishlarni salbiy tomonga og‘ib kuchayib ketmasligi, oxiri achinarli holatlarga bormasligi uchun tarbiyaga kreativ yondashishimiz juda muhimdir.

Kreativlik o‘zi nima?

Kreativlik tushunchasiga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud:

1. G‘arb talqini: kreativlik – yangilik sanalib, uning negizida noan’anaviylik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘ladi.

2. Sharq talqini: kreativlik – ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni.

XX asrning 50-yillarida ingliz-amerika psixologlarining izlanishlarida kreativlik deb nomlanadigan (creation- lotincha “yaratish”) alohida qobiliyatlarni o‘rganish katta ko‘lamda qiziqish uyg‘otdi. Kreativlikni alohida o‘rganishga an’anaviy intellekt testlari bilan muammoli vaziyatni muvaffaqiyatli yechimi orasida aloqaning mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlarning aniqlanishi turtki

[6] Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017 -yil 30-iyun kuni “Kamolot” yoshlar harakatining IV quriltoyida so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi, 2017-yil, 6- iyul

bo‘ldi. E’tirof etilishicha, kreativlik ma’lum masalaning yechimini topishdagi axborotlarni tez sur’atda foydalanish qobiliyatiga bog‘liq. Bu qobiliyatni kreativlik deb atadilar va uni intellektga bog‘liq bo‘lmagan holatda – individning yangi tushunchalar yaratuvchi va shakllantiruvchi yangi malakalari sifatida o‘rganadilar. Kreativlik shaxsning ijodiy ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Kreativlikni o‘rganish asosan ikki yo‘nalishda olib boriladi:

1-yo‘nalish. Kreativlikni intellekt bilan bog‘liqligi masalalarini va kreativlik bilan bog‘liq ta’limiy jarayonlarni belgilashni o‘rganadi.

2-yo‘nalish. Shaxs va uning psixologik o‘ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi, shaxsga va uning motivatsion chizgilariga urg‘u berilishi bilan tasniflanadi.

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me’yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me’yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmudir. Ijtimoiy me’yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me’yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar jamiyat tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib brogan sari o‘rnatilgan me’yorlar ham eskirib boradi va yangi me’yorlar o‘rnatiladi. Yangi me’yorlarni o‘rnatish jarayoni jamiyatda o‘rnatilgan mavjud me’yorlar doirasini kengaytirish va o‘zgartirishdan iboratdir. Jamiyat a’zolarining mazkur me’yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy institutlar deyiladi. Ushbu institutlarga olia, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolar kiradi. Insonlar bolalarga ijtimoiy me’yorlarni o‘rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me’yoriy talablarining to‘g‘ri bajarilishini ham nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo‘ladi, agar butun bir jamoa, oila, do‘stlar, maktab, mahalla, qo‘ni-qo‘shnilar tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo‘ladi hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi. Inson tarbiyasida eng birinchi va

eng muhimi jtimoiy nazorat instituti – bu oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog‘lom oila muhitining o‘rni katta. Bola tug‘ilgan kundan boshlab oila institutida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Oiladagi ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlardagi muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi. Shunga o‘xshash belgilar to‘liq bo‘lmagan oilalarda tarbiyalangan bolalarga xosdir. Ba’zida bitta ota-onaning g‘amxo‘rligi va nazorati yetarli emas. Ota-onalardan birining o‘limi, ajralishlar, kattalar uchun bolalarning ruhiy holati haqida o‘ylash uchun imkoniyat, har xil muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi.

Bugungi kunda yoshlarimizga buyuk qalb sifatida qarashimiz va ularni qalbida o‘zlariga ishonch tuyg‘ularini shakllantira olsak, ularni yon atrofdagi vaziyatlar, insonlar tufayli xulq-atvorlarini salbiy tomonga og‘ishini oldini olgan bo‘lamiz. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Tibbiyot ilmining sultoni abu Ali ibn Sino “Xulqlarning barchasi o‘zi tabiati bilan go‘zal, yomon xulq-atvorga esa keyin erishilgan bo‘ladi”, – deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, xulq-atvor tarbiyasiga e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik natijasida me’yordan xulqiy og‘ish kabi holatlar yuz beradi.

Abu Homid G‘azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikrlarni bildiradi: ”Bilgin – bola tarbiyasi eng mihim ishlardandir. Farzand ota-onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan holi gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko‘ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o‘rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta, bu savobga uning ota-onasi, muallimi va unga tarbiya bergan har bir kishi sherikdir. Agar bola e’tiborsiz tashlab qo‘yilsa, yomonlik ichida o‘ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va halok bo‘ladi”.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarning ma’nan yetuk, jismonan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi uchun, avvalo, ularga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil va muammolarni bartaraf etish lozimdir. Bu esa, o‘z navbatida, hamkorlik asosida amalga oshirilib, har bir fuqarodan mas’uliyat, fudoiylikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017 -yil 30-iyun kuni “Kamolot” yoshlar harakatining IV quriltoyida so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi, 2017-yil, 6- iyul.
2.Egamberdiyeva N.Ijtimoiy pedagogika. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009 y.
3.Abduqodirov A. A. “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2015 y.
4.Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA KASBIY - IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MASALALARINI YORITILISHI

Najmiddinova Muhayyo
NamDU psixologiya mutaxassisligi magistranti

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy, ruhiy yo‘nalishlarda keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatimizda olib borilayotgan ma'naviy, ruhiy islohatlarning natijalaridan biri barkamol avlodni voyaga yetkazish hisoblanadi.

Barkamol avlodni voyaga yetkazish esa kasbiy-ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari diqqatga sazovordir: "Biz bu haqda gapirganda, avvalo, ongli yashaydigan, mantiqiy fikrlashga qodir bo‘lgan, o‘z qarashlarining ma'no-mazmunini har tomonlama asoslab, isbotlab beradigan odamlami nazarda tutamiz".

Respublikamizning bugungi va ertangi taqdiri yosh avlodning kasb mahorati, intelektual darajasi, ma'naviy taraqqiyoti, jismoniy sog‘lomligiga bog‘liq. Barkamol avlodni shakllantirishda shaxs tarbiyasi o‘ta muhim

masala hisoblanadi. Shaxs tarbiyasi esa bevosita ularda kasbiy-ijodiy tafakkur jarayonini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq. Chunki kasbiy-ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxs jamiyatda sodir bo‘layotgan har qanday voqeaga hamda uning oldiga qo‘yilayotgan vazifaga kasbiy-ijodiy munosabat bildirishligi bilan harakterlanadi. Shu nuqtai nazardan, shaxslarda kasbiy-ijodiy tafakkumi shakllantirish masalasi davrimizning o‘ta muhim va dolzarb masalasi hisoblanadi. Agar iqtisodiyotimiz baquvvat bo‘lsa, yaxshi rivoj topsa, bundan madaniyatimiz ham madad oladi, rivoj topadi. Agar ertangi kunimizni o‘ylab ish qilmoqchi bo‘lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan, bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg‘uradigan bo‘lsak, avvalo, yoshlami tarbiyalash ishiga munosabatimizni o‘zgartirishimiz kerak". Ta'lim-tarbiya – inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi. Ta'lim-tarbiya davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliy masaladir. Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir. Ta'lim va tarbiya ajratib bo'lmaydigan uyg'unlik hisoblanadi. “Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi” ta'lim jarayoni mazmunini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Ta'limni insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda or-nomusni, vatan va xalq oldidagi mas'uliyatni, yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan hamda ma'naviy-ruhiy fazilatlarni singdirishdan iborat. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda ta'lim va tarbiya ishlarining ahamiyati benihoya katta.

Ta’limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilar egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llash, ularda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o‘tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo‘yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin

Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy o‘quvchilarga yangi bilimlami

berishda ulami zeriktirmaslik va ulardagi bilimga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish ta'limda asosiy masala ekanligini ta'kidlaydi.

O‘zbek shoiri va jamoat arbobi Alisher Navoiy o‘zi tashkil etgan "Ixlosiya" madrasasida ilm olayotgan o‘quvchilarga bilim berishda ularning kasbiy-ijodiy tafakkurini, faoliyatlarini, bilishga qiziqishlarini tarbiyalashga asosiy e'tibor berdi.

O‘zbek pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida ham ta'lim jarayonida o‘quvchilami bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirib, kasbiy-ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalasi katta o‘rin egallaydi. Shu bilan birga ta'lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli va maqsadli foydalanish talablari umuminsoniy va milliy qadriyatlari, milliy an'ana, urf-odatlar va marosimlar haqida keng, mukammal ma'lumotlar berish ulardagi kasbiy-ijodiy tafakkurga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, ularning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. O‘quvchilarning kasbiy-ijodiy tafakkurini tashkil qilish va ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish muammosi o‘zbek xalq pedagogikasida, undan keyingi davrda ham ta'limni tashkil etishning asosiy omili bo‘lib hisoblangan. Kasbiy-ijodiy tafakkumi shakllantirish va bilishga qiziqish uyg‘otish, asosan, uchta holat orqali olib borilgan:

1. O‘quvchining bilish, kasbiy-ijodiy tafakkur faoliyatiga bo‘lgan ijobiy tuyg‘ulari.

2. Bu tuyg‘ulardan bilishga bo‘lgan qiziqishning mavjudligi.

3. Faoliyatdan kelib chiquvchi bevosita motivning mavjudligi. Bundan ta'lim jarayonida o‘quv faoliyatiga, uning mazmuni, amalga oshirish va usullariga nisbatan o‘quvchilarga ijobiy munosabatlami shakllanishini ta'minlash g‘oyatda muhim masala, degan xulosa kelib chiqadi.

Hulosa qilib aytganimizda, o‘quvchilarning pishiq va puxta bilim olishida ulami bilimga bo‘lgan qiziqishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanganligi, aqliy mehnat qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari

muhimdir. Maktablarda o‘quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ilg‘or tajriba to‘plagan o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining dars jarayonida aqliy mehnat qilishlarini, bilim olishga qiziqishi borasida tinmay izlanmoqdalar. Ular bilish jarayonida o‘quvchilarni emotsional ma'naviy rag‘batlantirish usullaridan keng foydalanmoqdalar. Ma'lumki, o‘quvchining diqqatini o‘ziga tortib, uni kasbiy-ijodiy tafakkur qilishga jalb etish, bilimga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, eng avvalo, darsda badiiylik, obrazlilik, yorqinlik, qiziqarlilik, ajablanish, ma'naviy kechinmalar ruhini uyg‘otish kabi omillar yig‘indisidan kelib chiqadi. Shu bilan birga darslarda yaratilayotgan qiziqarli vaziyatlar o‘rganayotgan muammoning yordamchi detallarini emas, balki asosiy egasini bilishdan shodlanish quvonchidan kelib chiqishi kerak. Shundagina o‘quvchi bilimga qiziqadi, unda kasbiy-ijodiy tafakkur qilishga zaruriyat tug‘iladi. O‘qish faoliyatining o‘ziga qiziqish uyg‘otishning, o'quvchilarni kasbiy-ijodiy tafakkurga chorlashning asosiy manbai, eng avvalo, uning mazmunidir. Mazmunning qiziqarli bo‘lishi esa uning ilmiyligi, uning hayot bilan aloqasi, izchilliligi va rivoj lantiruvchi ta'siriga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Бадритдинова, М. Б., & Аъзамов, У. (2020). Психологические особенности развития когнитивного стиля в учебнем процессе. *Учёный XXI века*, (1 (60)), 74-78.
2. Бадритдинова, М. Б. (2014). НЕКОТОРЫЕ СОВРЕМЕННЫЕ ВОПРОСЫ ПСИХОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ. *ИНСТИТУТЫ И МЕХАНИЗМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ: МИРОВОЙ ОПЫТ И РОССИЙСКАЯ ПРАКТИКА*, 37.
3. Baxromovna, B. M. (2019). KOGNITIV USLUB BILAN BOG‘LIQ METAUSLUBLARNING RIVOJLANISHI. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, (6).
4. Badritdinova, M. B. (2019). COGNITIVE METHODS AND PERSON NATIONAL PECULIARITY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(10), 380-386.
5. Badritdinova, M. B. (2019). COGNITIVE METHODS AND PERSON NATIONAL PECULIARITY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(10), 380-386.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGAGIK MEXANIZMI

Nishanova Muslima
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti
Namangan filiali 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada bolajak tarbiyachilar kompetentsiyasini shakillantirish bosqichlari, tarbiyachi shaxsini shakillantirish, tarbiyachini jamiyatdagi tutgan o‘rni, oliy malumotli pedagoglarga talab ko‘rsatilayotgan etibor, tarbiyachi qobilyati tog‘risida yoritilgan

Kalit so‘zlar: komptensiya, kompetentlik, pedagogik madaniyat, professional

Annotation: In the article , the formation of the competence of future educators, the role of the educator in society, the attention paid to highly educated pedagogues, the ability to aducate is covered

Аннотация: статья рассмитроваются этапиы формирования компетентности формирование лисности воспитателя роль васпитателя в обществе узали о спообностях воспитателя высоко образованный винимвние педагогам

Yangi O‘zbekistonda faqatgina davlatimiz emas, balki davlatimiz bilan birgalikfa insonlarimiz hayot tarzimiz hayotga qarashlarimiz bilan birgalikda talablarimiz xam ozgardi Davlat va jamiyat talabini qondirish maqsadida bugungi kunda talim sasiga juda katta etibor qaratilyapti jumladan maktabgacha talim soxasiga xam juda katta e’tibor qaratilmoqda 2016-yil 29-dekabrdagi Pq 2707 – sonli qarorida zamonaviy pedagagik tehnalogiyalari va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha talim tashkilotlariga pedagog kadrlarnitayorlash va malakasini oshirishning o‘quv reja va dasturlarni takomillashtirish hamda 2200 ta maktabgacha ta’lim muassasasini moddiy-tehnika bazasini mustaxkamlash zamonaviy talablarga javob beradigan interval jihoz o‘quv-metodik qo‘llanmalar va multimediali vositalar bilan ta’minlash vazifalari qoyigan

Prezidentimizning bu boradagi fikrlari ya’ni maktabgacha ta’lm tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichlarga olib chiqishda pedagog xodimlarni o‘rni juda katta ekanligi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining 39-maqsadida quydagicha aytib otildi boxcha xodimlarining professional tayorgarligi va Mahoratini oshirib boorishning takomillashtirilgan tizimi joriy etildi 2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarni malakasini oshirish

Bugungi kunda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarini ma’lumotlarini oshirish maqsadida oily ta’lim muaassalarida maktabgacha talim ashkilotlarida ishlayotgaan orta maxsus tarbiyachilarga ish staji tajribasi yetarli saloxiyati bor xodimlarni tavsiyonama asosida oily talimda talim olosh imkoniyati yaratib berildi

Oloy talim muassasida talim olayotgan bolajak tarbiyachilar bugungi kun talabiga binoan oz mutaxasisliklarini chuqur bilishlari tarbiyachilik qobilyatini shakillangan bolishi, bola shaxsizi xurmat qilish, adolatli bo‘lishi, atrof muhit to‘g‘risida bilimlarni egallagan bo‘lishi, milliy urf odatlarimizni bilishi qadriyat larimizni bolajonlarga sindira olishi , kelajagimiz davomchilariga ham tarbiya xam talim bera olishi zarur bo‘lajak tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandi qilib tarbiyalashdek muhim ,faxrli va shu bilan birga ma’suliyatli vazifani bajarishi lozim tarbiyachi ijshtimoiy faol bolishi lozim

TARBIYACHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodislari kattalarning mehnati haqida boshlangich bilim va tushunchalar berdi ,ularga madaniy axloq, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo‘lish odatlarini sindiradi. Ularda yaxshilik xaqiqat g‘oylik ,adolat,jasur, kamtarinlik komkattalarga xurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish kuzatuvchanglik, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxorlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarning mehnati natijalarini asrab avaylash kabi axloqiy sifatlarini shakillantirish

Xalq san’ati, musiqa ashula tasviriy san’atni bilsh san’atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bu esa bolalar bilan olib boradigan ishida yorda beradi

Tarbiyachi va uni jamiyatda tutgan o‘rni. Jamiyatda pedagog (o‘qituvchi, tarbiyachj), birinchi navbatdan o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, kkinchidan, mehnatkash xalqimizning har tomonlama bilim berishdek savobli va mas’uliyatli vazifalarni bajaradi

Tarbiyachining qadr qimmati shu qadar buyukki o odamni ma’naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga iloxiy nurga toldiradi. Dunyoda biron kimsa yo‘qki, uning ustozi bo‘lmasa xukumat raxbarini, buyuk alomani shifokorni, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qoli gul kosibmi, qo‘yinki barcha-barchaning o‘z ustozi va hayot yo‘lini charogn etib turuvchi yo‘lboshchisi bo‘ladiю Tarbiyachining eng buyuk burchi xalqqa naïf tegadigan aql - idrokli qobilyatli, uquvli shogirtlar tayorlashdir. Tarbiyachi shunday buyuk zotki , boshqa kasb egalari masalan: shifokor, kosib, shafyor, tikuvchi, faqat o‘zlarini farzandlarini suyadi, erkalaydi,tarbiyalaydi, lekin tarbiyachi boshqani farzandi bolishiga qaramay o‘z bolasidek ko‘rib suyib, talim-tarbiya beradi tarbiyachilar ana shunday buyuk qalb egasidirlar. Tarbiyachilar bir vaqtni o‘zida ham yig‘lab xam kulib beraoladigan insondirlar

Bundan tashqari, bo‘lajak pedagoglar kasbiy kompettentlikni shakillantirishning o‘ziga xos xususiyatlarida kompetentsiya tushunchasi muhimdir.

Kompetensiya – o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni shu kun va davr talablarini xis etishi, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab etadi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxasis muammolarini yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishning yaxshi bilish hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi to‘gri kelmaydiganlarni rad etish, masalasiga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi

Bo‘lajak pedagog tajribasi tuzilmasidan ortiqcha yuk bo‘lib hisoblangan va bir tizimga keltirilgan bilimlar hech kimga kerak bo‘lmagan narsa bolib qoladi. Shuning uchun ham bolajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakillantirishda nazariy tayorgarlikning shakillariga e’tibor qaratish zarur. Bunday nazariy faoliyat o‘qituvchilarda analitik, bashorat qilish loyihalash va

refleksiv ko‘nikmalar mavjudligini nazarda tutuvchi pedagagik fikirlashni umumlashgan holda bilishda namoyon bo‘luvchi faoliyatdir

Pedagadik madaniyati - tarbiyachilik burchi, mas’uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e’tiqodini nazarda tutib, pedagogning talabchangligini, adolatli, komilligi, rostgo‘yligi, to‘g‘riligini anglatadi. Pedagagik mahorat tizimida **pedagagik nazorat** [takt]-pedagogning pedagogik maqsadga muofiq, foydali, qimmatli xarakterlarning o‘lchovi, me’yori va ta’sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi.

Kompetentsiya – biror soha bo‘yicha xar tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishinchli hisoblangan kishini sifati

Kasbiy kampatensiyani shakllantirishning bosqichlari:

- **O‘**z- o‘zini taxlil qilish va zarur narsalarni anglashi
- O‘zini rivojlantirishning maqsad vazifasi belgilash
- O‘zini namoyon etish va kamchiliklarni tuzatish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasining presidentning 2707 - sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasini 2022- 2026 yillarga mo‘ljallanga taraqqiyot strategiyasi
3. Maktabgacha ta’lim pedagigikasi N.M.Egamberdiyev T.Hasanov H.K.Fayziyeva

MUAMMOLI TA’LIM MUSTAQIL FIKRLASH OMILI SIFATIDA

Badritdinova Madina Baxromovna
NamDU psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bugungi islohotlar davri o‘qitishning samarali metodlarini yaratishni, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni, inson shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning yetakchiligini ta’minlashni, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg‘ularini e’tiborga olib, ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni

taqazo qilmoqda. Pedagogik jarayondagi ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish uchun o‘qitish sifatini tubdan yangilash, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi munosabatini yo‘lga qo‘yish, o‘zaro sog‘lom raqobat muhitini qaror toptirish va yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etishimiz zarurdir.

Zamonaviy ta’lim tizimi har bir pedagogdan juda katta kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishni, o‘qitishning eng ilg‘or texnologiyalarini o‘zlashtirishni, fanning so‘nggi yutuqlaridan xabardor bo‘lishni, o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish malakasiga ega bo‘lishni taqozo etmoqda. Milliy dasturning ikkinchi bosqichi sifat bosqichi hisoblanib, bunda o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda xorijlik mutaxassis olimlar bilan bir qatorda respublikamizning bir qator pedagog olimlari S.Ashirboyev, I.S.Sayidaxmedov, R.X.Jo‘raev, B.L.Farberman va boshqalar tomonidan ham samarali ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mamlakatimiz o‘quv yurtlarida ham pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar va tushunchani o‘ziga xos talqin qilishlar, shuningdek pedagogik texnologiyani o‘quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondoshuvlar sodir bo‘lmoqda.

Zero, o‘qitishga texnologik yondoshuvning o‘zbek xalq pedagogikasi g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirib o‘quv jarayoniga tatbiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta’lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o‘rin tutishi muqarrardir. Bizga ma’lumki, zamonaviy ta’lim texnologiyasida muammoli ta’lim alohida o‘rin tutadi. Muammoli ta’lim texnologiyasining zamirida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan muammolar zanjiri yotadi. Muammoli ta’lim metodiga asoslangan ta’lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

* Dastlab muammoli vaziyat hosil qilish;

* Muammolarni shakllantirish va muammoni yechish uchun umumiy taxlil qilish;

* Tahmin qilingan yechimni tekshirish;

* Amaliy va nazariy xarakterdagi masalalarda qo‘llash,ularni tartibga solish hamda siyosiylashtirish.

Dars jarayonida o‘quvchi muammoni yechar ekan, o‘zicha muhim bo‘lgan “kashfiyot” qiladi. Bu hol o‘quvchida o‘ziga ishonch xosil qiladi (ya’ni mening kashfiyotim, men topdim, ixtiro qildim).

Mana shu tomoni bilan muammoli ta’lim texnologiyasi boshqa barcha o‘qitish texnologiyalaridan ustun turadi. Chunki, bunda o‘quvchi izlanish olib borish, taxlil qilish, emperik xulosa chiqarish, boshqa vaziyatga qo‘llash, fikr-muloxazalarini taxminan sistemalashtirib isbotlash, kelgusida amaliy faoliyatga qo‘llash malakalarini egallab boradi.

Muammoli ta’lim an’anaviy o‘qitish metodikasiga tayanadi. O‘qituvchi muammoli vaziyatni o‘quvchilar oldiga qo‘yish bilan bir qatorda, uni yechish uchun izlanish zarurligini, izlanish uslublarini o‘quvchilarga o‘rgatadi. Muammo yechimini topish, izlashga o‘tish uchun, eng avvalo zaruriy muhit yaratilishi kerak. Muammo aniq bo‘lishi, o‘quvchilar uni yechimini izlash jarayonida oldingi mavzularda, fanlarda olgan ma’lumotlari, tushunchalari, bilimlaridan foydalana oladigan bo‘lishi kerak. O‘quvchilar oldiga qo‘yilgan muammo o‘zining dolzarbligiga ega bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi izlanishni ma’lum bir sistemada, muayyanlikda bo‘lgan muammo ustida olib borish kerak. SHunda o‘quvchi muammoni taxlil qiladi, qismlarini ajrata oladi va yechish uchun kirishadi. Ta’lim jarayonini loyihalash bevosita muammoli ta’limni qo‘llashga va aksincha, muammoli ta’lim ta’limini loyixalashga olib keladi. Muammoni o‘qitish texnologik loyixalashtirilgan o‘quv jarayonini amalga oshirishning didaktik konstruktsiyasi sifatida qo‘llaniladi.

Amerikalik olim U.Gordon (1960) o‘quvchilarga muammolarni, uning tashkil qiluvchi elementlarini shakllantirishni o‘rgatishni, izlanishning bosh maqsadini ajrata bilishni, turli-tuman xarakterdagi masalalar yechimining o‘xshashlarini qidirishni o‘rgatish muammoli ta’lim jarayoni uchun muhimligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi muammoni qo‘yishni bilibgina qolmay, uning yechimini topish

usullarini o‘quvchilarga o‘rgatishi kerak. Muammoni yechimini izlashning quyidagi usullari bor.

* Muammoni yechimini to‘g‘ri izlash (muayyan masalaga o‘xshash, masalalar qanday yechiladi);

* Muammoni yechimini shaxsiy izlash (muayyan masalada berilgan ob’ekt obraziga kirishga xarakat qilish va shu nuqtai-nazardan muloxaza yuritishga urinib ko‘rish);

* Simvolitik (ikki jumla orqali masalaning mohiyatini obrazli aniqlashni berish);

* Fantastik (bu masalani ertak qahramonlari qanday yechgan bo‘lar edilar).

Muammoli vaziyatni bunday usulda yechishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarni sinektik, abstraktsiyalash, fantaziya qilish, o‘zgalarni eshitish, oddiydan g‘ayrioddiyni, g‘ayrioddiydan oddiyni topish, o‘xshatishlardan mohirona foydalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasida fikrlar almashishinishini boshqarish; ishonchli dalillar asosida o‘z fikrida tura olish; muxolif tomonning fikrini munozara qilish, malakasini rivojlantirish; o‘quvchini aktiv fikrlash faoliyatiga asoslash, masalani dolzarblashtirish, o‘z fikrini bayon qilishnigina emas, balki boshqalarni ham eshitish mahoratini rivojlantirish, o‘quvchilar bildirgan fikrlardan foydali axborotni olish va zurur xulosalar chiqarish va o‘quvchilar ixtirochilik, tadqiqotchilik, loyihalovchilik kabi zaruriy sifatlarni shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. T.: 2022.
2. Ishmatov K. Pedagogik texnologiyalarni nazariy asoslari. Ta’lim muammolari, Toshkent.: 1999
3. Mirzaabdullaeva M Yangi pedagogik texnologiya. Toshkent.: 2005

HARBIY XIZMATCHILARINING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEZONLARI

Sultonova Gulzoda Yashnarjon qizi
NamDU 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Badritdinova Madina Baxromovna psixol.f.b.PhD

Harbiy xizmatchilarning psixologik qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bois, bugun yurtimizda Qurolli Kuchlar oldiga qo‘yilgan asosiy talablardan biri ham axloqiy-ruhiy ta’minot ishlarining samaradorligini yanada oshirishdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018-yil 10 -yanvar kuni O‘zbekiston Respulikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xavfsizlik kengashining yig‘ilishida “men harbiy xizmatchilarimizning jismonan va ruhiy tayyorgarligi bilan bog‘liq bir qator muammolarga e’tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, jismoniy tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karerasida va umuman, turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lishi zarur. Harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamligi bo‘lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlarda ko‘zga tashlanayotgan bir holatga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Ya’ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta’sir va zarbalar bilan bog‘liq ekani ma’lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch sharoitda ham davolash juda murakkab masaladir”, deb takidlab o‘tgan edilar [1].

Darhaqiqat, bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatchilarni ruhiy jihatdan tayyorlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakat tinchligini va xafsizligini ta’minlash har bir davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tinchlik va

xafsizlikni ta’minlashda boshqa davlat organlari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, milliy gvardiya bo‘linmalari harbiy xizmatchilari jangovar-xizmat majburiyatlarini bajarishda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini muhofaza qilish bo‘yicha har bir shahar va viloyatda xavsiz hudud loyihasida kunu tun uch smenali patrullik rejimida patrulpost xizmati va yo‘l-patrul xizmati, blok postlarda xizmat majburiyatlarini bajaradilar [2].

Xizmat va jangovar vazifalarini bajarish paytida harbiy xizmatchilarning xatti-harakatlari xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish psixika va ekstremal vaziyatlarning ta’sir mexanizmlarini tushunishga va harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining o‘quv jarayonida psixologik tayyorgarlikni shakllantirish bo‘yicha uslublar, treninglar ishlab chiqish va amalga oshirishni taqazo etadi [3].

Yuqorida ta’kidlangan vazifalarni bajarishda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari turli xizmat qiyinchiliklariga, ya’ni fuqarolar, huquqbuzarlar, jinoyatchilar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil qarshiliklarga, tazyiqlarga, bildirilgan salbiy munosabatlarga uchrashi mumkin. Bunday vaziyatlarda harbiy xizmatchilardan xushmuomalada bo‘lish, muloqatga kirishib ketish, tezkorlik bilan qaror qabul qilish, qat’iyatli bo‘lish, hissiyotlarga berilmaslik va kuchli irodali bo‘lish kabi psixologik xususiyatlarni egalashni taqazo etadi.

Yuqorida ta’kidlangan vazifalarni amalga oshirish o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatida psixologik tayyorgarlikni takomillashtirishni taqozo etadi.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda “shakllanish”, “rivojlanish” va “takomillashtirish” tushunchalariga ko‘plab tariflar keltirilgan bo‘lib, mualliflardan bir qanchasi “rivojlanish” deganda shaxsdagi jadal o‘zgarishlar, uning asosiy ehtiyoj va motivlari, irodasi va boshqa xususiyatlarini tavsiflashga xizmat qiluvchi

jihatlarini nazarda tutganlar. “Rivojlanish” tushunchasidan farqli ravishda “shakllanish” ko‘pincha tashqi va ichki omillar asosida faol ta’sir ko‘rsatish orqali shaxs xususiyatlarining rivojlanishi darajasi sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi tushunchalarga yaqin ma’noda “takomillashtirish” tushunchasi “rivojlanish” va “shakllanish” jarayonlarining natijasini ifodalaydi [4].

Harbiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan psixolog Ch.Nasriddinovning ta’rificha, “psixologik tayyorgarlik – harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarda jangovar vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan psixologik sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus chora tadbirlar tizimidir”, - deb takidlab o‘tgan [5].

Harbiy sohada ko‘plab tadqiqotlar olib borgan harbiy psixolog olim A.G.Karayaning ta’kidlashicha, “harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda psixologik fazilatlarni shakllantirish, ularning jang maydonidagi faol va samarali harakatlarga psixologik tayyorgarligini va zamonaviy kurash vositalari ta’siriga qarshilik ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan o‘zaro bog‘liq choratadbirlar tizimini aks ettiradi”, deb takidlab o‘tgan.

Aynan psixologik tayyorgarlikning yo‘qligi harbiy xizmatchilarda sarosimaga tushish, o‘zini boshqara olmaslik, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, qo‘pollik, dag‘allik, qonunni buzish, jiddiy kasbiy buzilishlarga yo‘l qo‘yish kabi nojo‘ya hatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Darhaqiqat, psixologik tayyorgarlikning mohiyati psixotravmatik omillar muhitida ayrim harbiy xizmatchilar va harbiy qismlarda jangovar xizmat faoliyatda sodir bo‘layotgan voqealar bo‘yicha harakat qilish, tahlikali tendensiyalarni aniqlash, ularga o‘z vaqtida va to‘g‘ri javob berish imkoniyatini beradigan psixologik xususiyatlarni samaradorligini oshirish va faollikni saqlash hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar armiyalarida psixologik tuzilmalarining tarixi va kundalik faoliyati sinovlar va xatolar, ko‘tarilish va qulashlar, turg‘unlik va haqiqiy yutuqlarning bebaho tajribasini o‘z ichiga oladi. Ushbu tajriba bilan tanishish rus harbiy psixologiyasiga jahon harbiy psixologiya fanida o‘z o‘rnini baholash,

rivojlanishning umumiy yo‘nalishi dinamikasi va sodiqligini baholash imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan, jahonning etakchi harbiy psixologiyasini rivojlantirishning holati, Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari imkoniyatlari va eng muhim joylari bilan tanishish imkonini beradi.

Jumladan, o‘zining dolzarb ahamiyatiga ko‘ra rus harbiy psixolog olimi

A.G.Karayanining fikriga ko‘ra, harbiy psixologiyada harbiy xizmatchilar uchun psixologik tayyorgarlikning quyidagi turlarini ajratish an’anasi shakllandi: umumiy, maxsus va maqsadli [7].

Umumiy psixologik tayyorgarlik-butun harbiy xizmat davomida barcha harbiy xizmatchilar bilan strategik, operativ va taktik darajalarda (zvenolar) amalga oshiriladi va zamonaviy jangovar faoliyatda harbiy xizmatchilarni stress-omillarga psixologik barqarorligini shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyat sanaladi [8]. Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, psixologik barqarorlik umumiy psixologik tayyorgarlikning tarkibi hisoblanadi. Harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi - bu shaxsning majmuaviy (kompleks) xususiyati, o‘z ichiga kiruvchi tarkibiy qismlar hisoblanadi: motivatsion, kognitiv, hissiy-irodali, operativ (tezkorlik) va regulyativ (boshqaruvchanlik) [8].

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, shaxsning majmuaviy xususiyatlarini va o‘zi ichiga olgan tarkibiy qismlarini shakllantirish orqali psixologik barqarorlikka erishiladi. Harbiy xizmatda umumiy psixologik tayyorgarlikni amalga oshirishda bo‘linmaning jangovar vazifasidan kelib chiqib tayyorlash maqsadga muvofiq. Chunki tayyorgarlik davrida harbiy xizmatchida bilim, ko‘nikma, malakalar shakllanadi, rivojlantiriladi. Eng asosiysi harbiy hizmatchida avvaldan tassurotlar va ko‘nikmalar shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jahonning rivojlangan armiyalari tajribasida psixologik tayyorgarlikka katta ahamiyati bermoqda. Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarida psixologik tayyorgarlik yo‘nalishlari va bosqichlari Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan psixologik tayyorgarlik yo‘nalishari va bosqchilari bilan bir xil mazmundaligini

ko‘rishimiz mumkin. Mazkur davlatlar Qurolli Kuchlari ko‘plab jangovar harakatlarda ishtirok etganligini hamda tajribaga ega ekanligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida psixologik tayyorgarlikning umumiy, maxsus va maqsadli turlariga bo‘lib, tashkillashtirishni shuningdek, harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlikni shakllantirishning quyidagi motivatsion, kognitiv, hissiy-irodali, operativ (tezkorlik) va regulyativ (boshqaruvchanlik) me’zonlari asosida olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Xavfsizlik kengashining yig‘ilishidagi ma’ruzasidan. Toshkent.www. Gazeta.uz.10.01.2018.
2. Jo‘rayeva, O. N., & Juraeva, S. N. (2020). Strategies for using alternative assessment methods in language and literature classes. International Journal of Innovations in Engineering, Research and Technology (IJIERT), 141-146.
3. Rashidov, A. A., & Jo‘raeva, S. N. (2021). Chet tilida nutqni tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar. Harbiy etakchining shakllanishida xorijiy tillarni bilishning roli” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 10-12.
4. Djuraeva, S. N. (2018). Specifity and Features of Application Modern Innovative Technologies Training to Higher Education. Eastern European Scientific Journal, 4, 136-139.
5. R.M.Djuraev. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarini zamonaviy talablar asosida amalga oshirish. O‘RMG HTI Axborotnomasi. -2020.- № 1,- 3 b.
6. S.D.Mamayusupov. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida axloqiy ruhiy ta’minotni tashkillashtirish masalalari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari. Toshkent., 2021, 5 b.
7. А.Ю.Голубенко. Современные способы формирование психологическое готовности у военнослужащих Натсионалной гвардии Республики Узбекистан исходя из спесифики служебно-боевых задач. Т.: ВТИ РУ Ахборотнома. 2020. -№ 3 (11),- 209 стр.
8. Ch.Nasriddinov. Harbiy psixologiya. T., 2004. 126 b.

THE IMPORTANCE OF AN INTERNATIONAL STEAM STUDY IN DEVELOPING CREATIVITY IN CHILDREN IN PRIMARY EDUCATION

Yuldasheva Rahima Bokhodirovna
Primary school teacher at the 50 th comprehensive school of the Namangan city, department of public education.

Annotation. The article provides information on the importance of STEAM research in assessing the level of knowledge of primary school students.

Keywords: international studies, assessment program, PISA, TIMSS, STEAM

International assessment and training programs In our country, large-scale reforms are being carried out in order to fully support and encourage the creative ideas of young students. In particular, in order to develop research and innovation activities of young people, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 8, 2018 "On measures to organize international research in the field of education quality assessment in public education” Resolution No 997.

An overall analysis of students' knowledge and skills determines the level of quality of education in the country. For this purpose, internal and external monitoring is carried out in each educational institution during the academic year. As a result, the sequence of the most exemplary schools, the potential of teachers and the level of mastery of students will be determined. As this process is an important criterion for the development of education, the Ministry of Public Education has taken the first steps to implement international programs to assess the knowledge of secondary school students. In other words, in order to bring students' knowledge to international standards, it is planned to use assessment programs such as PISA (Program for International Student Assessment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study),

STEAM is one of the most innovative methods in the world today. At first glance, the abbreviation STEAM seems very complex, but if we look at it separately, we can see that it is simple and clear: S - science, T - technology, E - engineering, A - art, M - mathematics, or natural sciences, technology, engineering, creativity, mathematics. Simply put, they are the most sought after sciences in the modern world. It is no secret that in order to achieve great success in many disciplines, it is necessary to integrate knowledge in different areas. But how can we prepare students for this, because it is very difficult to see the connection between school lessons. STEAM helps to solve such problems. This method allows you to conduct a mixed type of education and develop the skills to apply the acquired theoretical knowledge in everyday life. STEAM is an innovative technology that enables in-school and out-of-school project and

teaching and research activities. With this method, sciences are taught in an integrated way, not in separate networks, showing the general interdependence. In addition to showing that science is relevant to everyday life, technology can also show students creativity. This approach presents a number of tasks to students ’activities, with the student learning to be creative in solving them. With the help of such tasks, the student not only invents ideas, but also learns to implement them in everyday life. In this way, the student learns to solve their problems within the limits of the tasks and available opportunities. STEAM (S-science, T-technology, E-engineering, A-art, M-mathematics) is a modern approach that combines science, technology, engineering, art and mathematics.

STEAM helps children develop the following important qualities and skills Comprehensive understanding of problems Creative thinking Engineering approach Critical thinking Understanding and application of scientific methods Understanding the basics of design This approach will help children solve life problems in the future. Today, STEAM education is evolving as one of the major trends in the world and is based on the integration of five areas into a single curriculum in the application of a practical approach. The conditions for such education are its continuity and the development of children's ability to communicate in groups so that they can gather ideas and exchange ideas. Therefore, the core curriculum includes modules for developing logical thinking, such as Lego technology and children’s research. Thanks to the STEAM approach, children understand nature, explore the world on a regular basis, and thereby develop their interests, engineering thinking style, ability to cope with critical situations, teamwork skills, and the basics of leadership, self-expression, in turn, provides a radically new level of child development.

STEAM programs are also characterized by active communication and teamwork. During the discussion phase, they learn not to be afraid to comment. Often, they do not sit around a table, but test and develop "products" based on their own designs. They are always busy interacting with educators and their friends in a

collaborative team. Develop an interest in technical sciences. The task of STEAM education in preschool and primary school age is to create the preconditions for the development of interest. For children, love of work in the natural and technical sciences is the basis for developing interest. STEAM is very fun and dynamic for children and prevents children from getting bored. They don't feel like time is running out and they don't get tired.

References:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogical technology of teacher training. -T .: TSUP. 2000. p.52
2. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Methods of teaching primary education OUM. HTXQTUMOHM under the TSUP named after Nizami., 2017.
3. Ziyo.uz.
4. Saviya.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA BILIM BERISHDA MULTIMEDIA AFZALLIKLARI

O‘.M.Janazaqova
NamDU Maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim fakulteti magistranti
M.O. Hamidova
Namangan davlat universiteti professori

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinflarda qiziqarli darslarni tashkil etish va o‘quvchilarni fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda multimedia vositalaridan foydalanish муҳим аҳамият касб этиши атрофлича ёритиб берилди.*

Tayanch so`zlar*: мултимедиа, мултимедиали воситалар, мултимедиали ёндашув, таълим жараёни, мактабгача таълим, бошланғич таълим,* bilim, aqliy qobiliyat, bolaning psixologik xarakteri, aydiomatnni tinglash, axborot komminikatsiya texnologiyalari

Аннотация: В статье подробно разъяснялась важность использования мультимедийных средств в организации интересных уроков в начальных классах и повышении интереса учащихся к науке.

Ключевқе слова*:* мультимедиа, мультимедийные средства, мультимедийный подход, образовательный процесс, дошкольное образование, начальное образование, знания, умственные способности, психологический характер ребенка, прослушивание аудиотекста, информационно-коммуникационные технологии.

Abstract: In the article, the importance of using multimedia tools in organizing interesting lessons in primary classes and increasing students' interest in science was explained in detail.

Keywords: multimedia, multimedia tools, multimedia approach, educational process, preschool education, primary education, knowledge, mental ability, child's psychological character, listening to audio text, information communication technologies.

Bugungi kunda multimediali vositalar orqali yosh avlodga ta’lim berish ta’lim jarayonidagi eng samarali metod hisoblanadi. Ingliz olimi Walsh o‘zining boshlang‘ich ta’lim uchun raqamli kitoblarga asoslangan multimediali dizayn loyihasida ta’limga quyidagicha tarif beradi: Ta’lim shunday jarayonki, u yosh avlodni ijtimoiy qoldirilgan merosi bo‘lib, uchta xususiyatni o‘zida jamlaydi. Ular quydagilar bilim, aqliy qobiliyat, bolaning psixologik xarakteri. Dunyoda deyarli barcha mamlakatlarda eng muhim qadam maktabgacha ta’lim jarayonida singdiriladi. Shuning uchun ham aynan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda bilim olish kompetensiyasi maktabga tayyorlov davridayoq olib boriladi. Bunda multimediali ta’lim metodikasi eng samarali yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun ham multimediaga asoslangan ta’lim metodikasi xalqaro miqyosda ta’lim natijalarini samaradorligini oshirishda eng yetakchi usul hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim jarayonlarida milliy o‘quv dasturi asosida yosh bolalarga axborotlarni yetkazib berish uchun bir nechta yondashuvlar mavjud bo‘lib, eng samarali usullardan biri sifatida avdiomatnlarni tinglash sanaladi. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda avdiomatnlarni tinglash kam kuch sarflab, ko‘proq samaradorlikka erishishga yordam beruvchi faoliyat hisoblanadi. Audiomatnni tinglash orqali o‘quvchining tasavvuri kengayadi va o‘z tafakkurida hikoyani qayta jonlantiradi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, multimediali yondashuv o‘quvchining ongida nafaqat matnni yaratadi, balki o‘quvchining ongini matnga bog‘laydi. Hamda bolaning tushunish va o‘z tushunchasini tinglovchiga yetkazib berish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Amerikalik olim T.Sanchez o‘zining “Boston Massacre” hikoyasining multimediaga tayangan natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga keladi: “Shunday hikoyalar borki, ular maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning axloq normalari, milliy qadriyatlarini, vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishda tayanch vazifasini o‘taydi.” T.Sanchez o‘zining “Boston Massacre” hikoyasini Amerika qo‘shma shtatlarining Boston shtatida”King Street”

1770-yilning 5-martida bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘alonga asoslanib yaratgan. Bu hikoya bizning milliy qadriyatlarimiz singdirilgan “To‘maris”, “Shiroq”, “Jaloliddin Manguberdi” singari Amerikada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishda eng samarali avdiomatnli qo‘llanma hisoblanadi.

Axborot komminikatsiya texnologiyalari (AKT) ga asoslangan holda boshlang‘ich ta’limda multimediali audiomatnlarni tinglash XXI asr boshlarida boshlandi. Yunesko ta’lim samaradorligini oshirishda boshlang‘ich ta’limda avdiomatnlarga asoalangan yondashuv boshlang‘ich ta’limning har bir yosh darajasida ta’limning majburiy qismi sifatida Milliy o‘quv dasturiga kiritilishini taklif etdi.

Boshlang‘ich sinflarda multimediali texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Aytish joizki, multimedia ilovalarini har bir darsda qo‘llash natijasida o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash yanada rivojlanadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, axborot kommunikatisiya vositalarining boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llanilishi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Darslarda ko‘rgazmalilikni ta’minlash, turli xil didaktik materiallardan foydalanish dars samaradorligini oshirish imkonini beradi. O‘quvchilar uchun iqtidor va qobiliyatni yanada o‘stirish, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish, chuqur bilim olish istiqbolini rivojlantirish, bilim sifatini oshirish; fikrlashning yangi usullarini shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Multimediali o‘yinlar ta’lim berishning zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyalaridan biri sanaladi. Multimediali ta’limiy o‘yinlar uch asosiy vazifani bajaradi:

1. Vositali – aniq bir ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

2. Gnostik – o‘quvchilarning olgan bilimlarini shakllantirish va fikrlashini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

3. Ijtimoiy-psixologik – o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham matematika darslarida multimediali kompyuter o‘yinlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Dasturimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o‘qtish va matematika fanini mustaqil o‘rganmoqchi bo‘lgan yosh matematiklar uchun mo‘ljallangan. Dastur desktop va mobil platformalar uchun mo‘ljallab yaratilgan bo‘lib kompyuter va mobil dasturlar orqali o‘yinlar asosida matematik fanini onson va qiziqarli o‘rganish imkoniyatini yaratib beradi. Dastur C++ Builder dasturlash tili yordamida matematika fanini o‘qitishning so‘ngi metodlariga asoslangan holda yaratilgan.

Ma'lumki, boshlang‘ich ta'lim yoshidagi o‘quvchilar ertaklarni yoqtiradilar. Shuning uchun multimedia dasturlari ertak qahramonlari bilan tavsiflangan bo‘lib, bu bolalarni yanada qiziqtirish imkonini beradi. Matematika fani murakkab fan bo‘lganligi sababli boladan fikrni bir joyga jamlashni talab etadi. O‘yin jarayonidagi bu multfilim qahramonlari bolani qiziqtirish bilan bir qatorda, o‘yinga chuqur e’tibor bilan qarashni talab etadi. Bu albatta fanni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi bosqich bir muncha osonroq, qolgan bosqichlar esa asta-sekinlik bilan qiyinlashib boradi. Keyingi bosqichlarga o‘tish uchun avval undan oldingi bosqichlardagi topshiriqlarni bajarib kerakli ballni to‘plash talab etiladi. Bu yana ham tushunarliroq bo‘lishi uchun keling bir necha bosqichlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchi bosqich tanlanganidan so‘ng quyidagi ko‘rinishdagi ertaklar shahri ko‘rinishidagi oyna ochiladi. Bu shaharda joylashgan bosh qal’a o‘yin maydonining boshlanishi hisoblanadi. Boshlash uchun qal’a ustiga bosiladi.



1-rasm. O‘yinning birinchi bosqichi

Qal’a ustiga bosilgandan so‘ng. O‘yining birinchi bosqichi ishga tushadi. Birinchi bosqich bir muncha sodda bo‘lib o‘quvchidan sodda geometrik shakllarni to‘g‘ri tanlashni talab etadi. O‘quvchi ekranda ko‘rinib turgan geometrik shakllarni ko‘rsatilgan kataklarga joylashtirib chiqadi. Bu o‘quvchining xotirasini kuchli bo‘lishiga, geometrik shakllar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishiga yordam beradi. Har bir to‘g‘ri bajarilgan topshiriq uchun rag‘batlantiruvchi ballar taqdim etiladi. O‘quvchi nechta geometrik shaklni kataklarga to‘g‘ri joylay olgan bo‘lsa shuncha ko‘p rag‘bat ballarni qo‘lga kiritadi. Bundan tashqari ekranda ko‘rinib turgan multfilm qahramonlarini ozod eta olmaydi. Agar o‘quvchi yetarli ballarni to‘plasa birin ketin multfilm qahramonlari ozod etila boshlaydi.

Bu o‘quvchini qiziqtirishi bilan bir qatorda, sonlarni va sodda hisob-kitob jarayonini qiziqish bilan o‘rganishiga yordam beradi. Chunki har bir o‘quvchi o‘zi to‘plab borgan ballarini qo‘shib hisoblab boradi.To‘plangan ballar keyingi bosqichga o‘tish uchun yetarli bo‘lganida ikikinchi bosqich uchun yo‘l ochiladi.

Keyingi bosqich uchun yo‘nalish ertaklar shahrida o‘z aksini topadi. Kerakli ballar to‘planmasa keyingi bosqich eshiklari ochilmaydi.

Ikkinchi bosqich bir muncha qiyinroq bo‘lib o‘quvchilardan sodda hisob-kitoblarni talab etadi. Ular rasmlarda ko‘rsatilgan mevalarning sonini maxsus katakchalarga to‘ldirishlari lozim bo‘ladi. Bu esa o‘quvchidan tez va tog‘ri hisoblay olish ko‘nikmasini talab etadi.Tekshirish tugmasi bosilganda nechtasi to‘g‘ri bajarilgani ekranda namoyon bo‘ladi. Agar o‘quvchi berilgan topshiriqning hammasini to‘g‘ri bajargan bo‘lsa, ekranda “Ofarin, barchasi to‘g‘ri” degan javob namoyon bo‘ladi. Agar o‘quvchi berilgan topshirig‘da bitta yoki ikkita xato bajargan bo‘lsa, ekranda xatolar soni “Afsus, bittasi xato” yoki ikkitasi xato bo‘lsa, “Afsus, ikkitasi xato” deb javob beradi. Birortasi ham to‘g‘ri bo‘lmasa, “Qayta urinib ko‘ring” degan yozuv ekranda namoyon bo‘ladi.

Dasturning uchinchi bosqichi ikkinchi bosqichga qaraganda bir muncha qiyinroq bo‘lib, o‘quvchilardan diqqatni bir joyga jamlashni talab etadi. Ular ekranda ko‘rsatilgan raqamlarning qaysi biri mavjud emasligini topadilar. Topilgan sonni belgilaydilar. Topshiriqlar borgan sari murakkablashib boraveradi.

Umuman olganda, multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkun. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -104 b.
2. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –56 b.
3.Ahmedova Nazira. Uzviylik- ta’lim samaradorligi kafolati // “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2017-yil. -6-son, B.7.
4Ashurova A.I. Axborot tizimlarini loyihalash ”fanidan dasturiy qobiq yaratish va ta’limda foydalanish pedagogikasi. Avtoreferat kand. disser.- T.,:2020.

4.Begmatova H. Maktab yoshidagi bolalarga ta’lim berishda multimedia tehnologiyasi tushunchalarini shakllantirish. // “Xalq ta’limi” jurnali, 2010- yil.- 2-son.
5.Sayidaxmedov N.S., Ochilov A. Multimediali texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2020.- B. 55.
6.Ona tili va o‘qish savodxonligi: 3-sinf.O‘qituvchilar uchun qo‘llanma.- Toshkent, 2022.- 286 b.

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ И ПОДГОТОВКА К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Махмудов Абдурасул Носиржон ўғли
НамГУ преподаватель

Аннотация: Ҳар бир касб ўз мазмунига кўра махсус ёндошувни талаб қилади. Ушбу мақолада бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил фикрлаш маданиятини риожлантириш инновацион муҳит шароитида амалга ошириш билан боғлиқ масалалар кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, касбий таълим тизимида мустақил фикрлаш маданиятини шакллантириш усуллари ва воситалари, шарт-шароитлари, таъсир этувчи омиллар тавсифи келтирилган.

Аннотация: Каждая профессия по своему содержанию предлагает специального подхода. В предлагаемой статье изложены вопросы формирования самостоятельного мышления у будущих учителей в инновционных условиях.

Представлена классификация методов, средств, условий, факторов воздействия на культуру самостоятельного мышления в системе образования.

Annotation: Each profession demands special approach as its content. In this article it was indicated questions the development of future teachers’ autonomous making point culture in innovative atmosphere condition concern with implementation.

So, in professional education system there have been development styles and means of autonomous making point culture, conditions, and aspect of influence factors.

Калит сўзлар: инновацион фаолият, инновацион жараён, инновацион муҳит, мантиқий фикрлаш, инновацион режа, инновацион ғоя, инновацион тизим, таълим, инновацион технология, инновацион таълим, мустақил фикрлаш, интеллектуал қобилият, таҳлил, баҳолаш, психологик адаптация, ижодий жараён, касбий маданият, “Устоз-шогирд” тизими.

Ключевые слова: инновационная деятельность, инновационный процесс, инновационная среда, логическое мышление, инновационный план, инновационная идея, инновационная система, обучение, инновационная технология, инновационное обучение, самостоятельное мышление, интеллектуальная способность, анализ, оценивание, психологическая адаптация, творческий процесс, профессиональная культура, система «наставник-ученик».

Key words: innovative activity, innovative process, innovative atmosphere, logical making point, innovative plan, innovative idea, innovation, innovative system, education, innovative technology, innovative education, autonomous making point, intellectual ability, analysis, assessment, psychological adaptation, creative process, professional culture, “Master-apprentice” system.

Важной составной частью общей культуры человека является культура мышления. По своей сущности культура мышления выступает как

определенный уровень развития способности человека к адекватному отражению в понятиях и других мыслительных формах объективной логики бытия и своего собственного существования.

Является процесс профессиональной подготовки в вузе специалистов для средних педагогических учебных заведений. Сегодня современным обществом выдвигаются все новые требования к различным социальным институтам, главным из которых справедливо определено образование. Оно представлено новой образовательной парадигмой, определяющей условия, в которых главным образом, представлена деятельность, направленная на формирование и развитие личностных качеств человека. В настоящее время система образования развивается с учетом новых ценностных ориентиров общества, направленных на субъектную позицию, диалогическую культуру, внутреннюю и внешнюю интеграцию взаимодействия, а также мобильность, определены критерии, показатели и уровни развития культуры самостоятельного мышления в учебно-познавательной и практической деятельности обучающихся в вузе.

Практика показывает, что процесс развития в образовании определяется инновационной деятельностью, представленной различными формами и методами работы, современными образовательными технологиями. Однако, успешность инновационной деятельности в образовании в большей мере зависит от заинтересованности главных субъектов организации образовательного процесса – педагогических кадров, их квалификации и компетентности.

В связи с этим, целью данной статьи определено – рассмотреть необходимость формирования культуры мышления будущих учителей как высшего показателя его профессиональной готовности в условиях современного образования.

Модель – образ педагога, представленный в целевой программе развития определяет главный ориентир, направленный на решение проблемы

– формирование культуры мышления учителя, способного не только организовывать собственную педагогическую деятельность, но и самостоятельно создавать необходимые условия для этой деятельности. В этом направлении значительное содействие оказывает степень сформированности уровня культуры мышления учителя.

Человек с этих позиций воспринимается в отношении соответствия принятым нормам, и это соответствие обозначается категорией «личность»: личность – это человек, соответствующий социокультурным ожиданиям. Культура – это высокий уровень какого-либо вида деятельности, высокое развитие, умение (культура речи, культура голоса, культура производства). В этом понимании к категории «культура» приближаются категории «компетентность», «квалификация», «профессионализм». Культура предполагает наличие ценностных ориентиров и способности воплощать эти ценности на практике (педагогическая культура – это ориентация на определенные ценности и умение их воплотить в своей профессиональной деятельности)

Учителя – практики любой образовательной области обучаются не только методике, специфичной его учебному предмету, но и совокупности теоретических принципов, обозначенных в науке методологическими. Однако многие из них за понятием “методология” видят мало им понятное, нечто далекое от реальной действительности и образования в целом, что свидетельствует о низком уровне сформированности культуры мышления учителя. В сфере образования культура мышления рассматривается в проявлении способности мыслить, самостоятельно сравнивать, сопоставлять различные точки зрения, выявлять собственную позицию, научно ее обосновывать и профессионально отстаивать. Для этого учителю требуется необходимый набор инструментов, с помощью которых он будет выполнять указанные выше операции, действия. К этим универсальным действиям следует отнести полученные ранее знания определенных методологических

норм (правил научного познания) и умения их применять в процессе различных педагогических условий, нестандартных ситуаций.

Учителя – практики любой образовательной области обучаются не только методике, специфичной его учебному предмету, но и совокупности теоретических принципов, обозначенных в науке методологическими. Однако многие из них за понятием “методология” видят мало им понятное, нечто далекое от реальной действительности и образования в целом, что свидетельствует о низком уровне сформированности культуры мышления учителя. В сфере образования культура мышления рассматривается в проявлении способности мыслить, самостоятельно сравнивать, сопоставлять различные точки зрения, выявлять собственную позицию, научно ее обосновывать и профессионально отстаивать. Для этого учителю требуется необходимый набор инструментов, с помощью которых он будет выполнять указанные выше операции, действия. К этим универсальным действиям следует отнести полученные ранее знания определенных методологических норм (правил научного познания) и умения их применять в процессе различных педагогических условий, нестандартных ситуаций.

При развитии культуры самостоятельного мышления студентов высшего педагогического учебного заведения целесообразно учитывать нижеследующее:

обеспечение развития таких компонентов культуры самостоятельного мышления, как индивидуальные, общественные, профессиональные, социальные и исторические знания;

учет специальности, опыта и культурного уровня при выборе метода; создание возможности при выборе метода; обеспечение возможности сохранения индивидуальности и проявления своеобразия личности при использовании методов развития культуры самостоятельного мышления;

учет педагогических условий развития культуры самостоятельного мышления студентов в образовательной среде и прогнозирование результатов применения методов, дающих эффект.

Литература:

1. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе изучения дисциплин педагогического цикла. – Тошкент, Фан, 2003. – 177 с.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014
3. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. – Тошкент, Сано стандарт 2015. – 81 б.
4. Migranova Ye.A., Pozilova Sh.X. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018.
5.F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M.N. A'zamova. Maktabgacha pedagogika Tafakkur" – Toshkent – 2019.
6. Qambarov M.M. Talabalar mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish. Monografiya-Namangan: Arjumand mediya. 2021-y.
7. Qambarov M.M. Pedagogik atarixi. Toshkent: Bayoz. 2022-y.

SPIRTLI ICHIMLIKLAR ISTE’MOL QILUVCHI O‘SMIRLAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Xolmirzayeva Diyora Fazliddin qizi
NamDU, Pedagogika-psixologiya fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar*: *M.S.Bannayev

Annotatsiya: Ushbu maqolada spirtli ichimliklar iste’mol qiladigan o‘smir yoshdagi bolalar, spirtli ichimliklar ichishiga qanday sabablar bo‘lishi va spirtli ichimlik iste’mol qiladigan farzandi bor ota-onalarga tavsiyalar hamda ular bilan ishlash yo‘’lari keltirilgan.

Annotation: This article provides advice on how to deal with teenagers who drink alcohol, what causes them to drink alcohol, and how to work with parents of children who drink alcohol.

Аннотация: В этой статье даны советы о том, как вести себя с детьми-подростками, употребляющими алкоголь, что заставляет их употреблять алкоголь, и как работать с родителями детей, употребляющих алкоголь.

Bolalar ichkilikbozligi va ayniqsa uning yoshlar o‘rtasida keng tarqalishi eng jiddiy ijtimoiy pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. O‘smirlik davrida ichkilikbozlik muammosi shaxs ijtimoiylashuv jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘smirlar boshqalarning ta’siriga juda moyil. Aksariyat hollarda, agar kimdir ichkilik taklif qilsa, ular qarshilik qila olmaydi. O‘n yoshga to‘lgunga

qadar, spirtli ichimliklar bilan birinchi tanishish ota-onalarning o‘zlari tufayli sodir bo‘lishi mumkin. O‘smirning qiziqishi ko‘pincha spirtli ichimliklarni iste’mol qilishga olib kelishi mumkin. O‘n uch yoshdan boshlab, obro‘liroq ko‘rinadigan tengdoshlarning fikriga bog‘liq ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qilishadi. O‘g‘il bolalar, ayniqsa, tengdoshlari orasidagi eng obro‘li do‘stiga taqlid qiladi. Bundan tashqari, bolarda spirtli ichimliklar iste’mol qilishga bo‘lgan moyillik hisi nafaqat tengdoshlari, balki oilasi tomonidan ham amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin. Bolalarni oila davrasida spirtli ichimliklar bilan tanishtirish muammosi nafaqat mamlakatimiz uchun juda xarakterlidir. Ayniqsa, ota-onalarning o‘zlari spirtli ichimliklar va quvnoq ziyofatlardan doimiy foydalanishi bolaga salbiy o‘rnak ko‘rsatish hisoblanadi. O‘smirning ruhiyati juda beqaror, shuning uchun spirtli ichimliklarni sinab ko‘rish vasvasasiga qarshi turish juda muammoli bo‘ladi. Hatto uzoq vaqt davomida vaqti-vaqti bilan ichish haqiqiy spirtli ichimliklarga qaramlikning shakllanishiga olib kelishi mumkin. O‘smirning tanasi alkogol qaramligiga zaif, o‘sib borayotgan organizmga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ko‘p miqdorda spirtli ichimliklarni bir marta iste’mol qilish ham o‘smirning ichki organlarining normal ishlashini buzadi. Spirtli ichimliklarni juda kichik dozalarda iste’mol qilganda ham, o‘smirning miyasida nerv impulslarining uzatilishi buziladi. Chunki, o‘smirlar tanasida suv miqdori ko‘p bo‘lib, butun tana bo‘ylab qon orqali tarqalib ketadi.

O‘smirlik davrida bolalar ko‘pincha noto‘g‘ri harakatlar qilishadi. O‘tish davri deb ataladigan davrda - ota-onalar bilan doimiy norozilik va janjallar bilan o‘tadi. Bunday hollarda, uni tushunadigan, unga doim to‘g‘ri yo‘l ko‘satadigan inson sifatida, faqat tengdosh do‘sti deb o‘ylaydi, garchi u xato yo‘lga boshlasa ham. Xuddi shunday o‘ylashi uning katta xatosi bo‘ladi. Agarda, 15-17 yoshli bola spirtli ichimliklarni doimiy ravishda iste’mol qilsa, u 2-3 yilda spirtli ichimlilarga butunlay ruju qo‘yadi. Ichkilikbozlik, ya’ni alkogolizm irsiy ham bo‘lishi mumkin. Xomiladorlik va emizish davrida spirtli ichimliklar iste’mol qilish bolada irsiy moyillikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, alkogolizm sabablariga tarbiyaning

sustligi, spirtli ichimliklar haqida, ularni iste’mol qilgandan so‘ng uning oqibatlari haqida o‘smirlarda tushunchalarning bo‘lmasligi, boshqa yaqinlari iste’mol qilganda unga nisbatan qiziqishning paydo bo‘lishi kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

O‘smirlar alkogolizmining oldini olish uchun, uning hayotidagi ushbu dargohlar o‘zini namoyon qilishi kerak: Oilasi – bolaning oilasida ishonch va o‘zaro tushunish muhitining bo‘lishi. Ota-onalar farzand tarbiyasiga ko‘proq e’tibor berishlari kerak. Bolalar muassasalari ya’ni maktablar, maktab shifokorining tarbiyaviy va profilaktika ishlari, o‘qituvchi bilan muloqot qilish, ijtimoiy ishlar va sport mashg‘ulotlariga faol jalb qilish. Davlat miqiyosida spirtli ichimliklar reklamasini ko‘rsatishni taqiqlash, voyaga yetmaganlarga spirtli ichimliklar sotish va ularni spirtli ichimliklar ishlab chiqarish joylarida ishlashlarini taqiqlash.[2]

O‘smirlarni muvaffaqiyatli davolashda birinchi navbatda, muammoga duch kelgan o‘smirga to‘g‘ri davolash chorasini ko‘ra olish lozim. Farzandini alkogolizmdan qutqarishni istagan ota-onalar quyidagilarni qilishlari kerak: farzandingizning muammolarini chuqur o‘rganishga harakat qiling zero, u nima uchun bunday holatga tushganini bilish uchun, o‘smirning axloqiy holatini yumshatish uchun hamdardlik bildiring, farzandingizni birinchi navbatda tushuning, bolaning hayotida bevosita ishtirok eting, o‘smirni davolashda psixolog va narkologlardan yordam so‘rash zarurligiga befarq bo‘lmang, bolaning tanasida xavfli kasallikni yengish uchun immunomodulyatorlar, vitamin preparatlari va umumiy mustahkamlovchi vositalardan qo‘llang, psixolog qabuliga oilaviy boring, oiladagi munosabatlarni yaxshilash uchun, bola va ota-onalar o‘rtasida ishonchli munosabatlar o‘rnatish uchun, atrofidagi do‘stlariga e’tiborli bo‘ling va bunday alkogolizmning oxiri nima bilan yakun topishini farzandingizga tushuntiring. Axir, bolalar bizning kelajagimiz, agar bugun bunga e’tibor bermasangiz, ertaga kech bo‘lishi mumkin! Abdulla Avloniyning bir gapi bor edi: “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, givohvandlar

kecha tarbiyasiga e’tibor qilmagan bolalarimizdir…”. Shuning uchun hamma narsani o‘z vaqtida oldini olish kerak!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdieva N.M “Ijtimoiy pedagogika”. T. 2009-y
2. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/alkogolizm-bolalar-xulqida-deviantlikni-vujudga-keltiruvchi-shakli-sifatida
3. https://minikar.ru/uz/health-and-beauty/podrostkovyi-alkogolizm-eto-ne-problema-eto-beda-podrostkovyi/

SPORT MASHG‘ULOTLARI ORQALI O‘QUVCHILARDA MILLIY VA UMUM INSONIY XIS TUYG‘ULARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZIMLARI

Kamolova Azimaxon Odiljon qizi
NamaDU Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

Annatatsiya: Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim tarbiya tizimidagi isloxotlar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan dasr jarayonlarining va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning bola saxsini shakilanishiga uning barkamol shaxs bo‘lib yurt tinchligi vatan ravnaqi uhun o‘z xissasini qo‘shadigan kadrlarni tayyor olamiz.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tarbiya tizimi, muassasalart, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, o‘quv mashg‘ulotlari, psixologik xususiyatlari, mulliy g‘urur, estetik dunyoqarash, estetik xatti-harakatlar.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЧУВСТВ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ СПОРТИВНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация: Реформы в системе образования в нашей стране организуются в общеобразовательных средних учебных заведениях, а внеклассные мероприятия организуются в общеобразовательных средних учебных заведениях, которые способствуют развитию ребенка как всесторонне развитой личности и мирного стране, мы подготовим кадры.

Ключевые слова: Система образования, учреждения, физическое воспитание, оздоровительное воспитание, воспитательная подготовка, психологические особенности, национальная гордость, эстетическое мировоззрение, эстетическое поведение.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim tarbiya tizimidagi isloxotlar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan dasr jarayonlarining va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning bola saxsini shakilanishiga uning barkamol shaxs bo‘lib yurt tinchligi vatan ravnaqi uhun o‘z xissasini qo‘shadigan kadrlarni tayyor olamiz. Hozirgi kunda mmumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “jismoniy tarbiya va sport, sog‘lomlashtirish tadbirlari” jismoniy tarbiyava sog‘lomlashtirish

dasturi asosida tashkil etiladi. Jismoniy tarbiya dasturlarida belgilangan faoliyatlar o‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini hamda sinfdan tashqari ishlarning mazmunli va zamonaviy talablar asosida shakllantirishga aloxida etibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilar jismoniy tarbiya va sport, sog‘lomlashtirish tadbirlari tashkil etish jarayonlarida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining organizmga ijobiy ta’sirlari hamda o‘quvchilarning individual psixologik shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanish, tabiat omillari suv, quyosh va havo yordamida chiniqtirish muolajalari qabul qilishning qoida va talablari xaqida nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lib boradilar. Bunday nazariy ma’lumotlar bilan qurolantirshda mamlakatimiz va horijiy mamlakatlarining yetuk pedagogik tajribalari va maxsus mutaxassislarning adabiyotlari va ko‘rsatmalaridan hamda internet ma’lumotlaridan keng foydalanish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida keltrilgan fikrlarimizni quyudagi sinfdan tashqari mashg‘ulot misolida ko‘rib chiqamiz.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini eng samarali shakillaridan biri sinfdan tashqari sport mashgulotlari xisoblanadi.

Sport mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur, qadryatlar, umum insoniy xis tuyg‘ularni rivojlantirishga oid bir qator metodik adabiyotlar ham yaratilgan bo‘lib, ularda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari ham aloxida etirof etilgan:

1. jismoniy mashg‘ulotlarni asosiy mashqlarni olib borishning aosiy tamoyillari
2. o‘rganilgan mashg‘ulotlarni amaliyotda qo‘llashning ketma-ketligi
3. amalga oshirilayotan jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilishning shakl va metodlari.
4. O‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqan holda jismoniy yuklama berishning me’yorlari
5. jismoniy harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘quvchilar irodasiga munosabat muammolari tahlil qilingan.

Sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur, qadryat va an’analar tuyg‘usini rivojlantirishda, qo‘llaniladigan pedagogik metodlar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o‘quvchilarda mashg‘ulotlarni mazmunli tashkil etishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yishimizga sabab bo‘ladi.

Sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilar o‘zlarida shakilantirishlari zarur bo‘lgan milliy g‘urur tuyg‘usini jismoniy tarbiya darslrida quyudagi strukturalarda ko‘rishimiz mumkin:

- jismoniy tarbiyaga nisbatan xissiy munosabat, unga qiziqish va ishonchning namoyon bo‘lishi;

- sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda jismoniy tarbiya bilimlarini egallashning muhim omili sifatida qarashning paydo bo‘lishi, unga erishish uchun belgilangan me’yor asosida mashq va boshqa harakatlarni bajarishning muhimligi;

- shaxsning jismoniy va ma’naviy barkamollikka erishishida ko‘nikmani malakaga aylantirib borish va shu orqali mukammalikka erishish;

- jismoniy tarbiya amaliyotiga yangi tajriblarni kiritib borish va maqsadga yo‘naltirish.

Sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning pedagogik jihatlari: ijtimoiy axloqiy majburiyat, pedagogik tajribalar umuminsoniy qadriyatlarni tarixiy davrlar kesimida bevosita bog‘lash asosida aniqlashtirish. O‘quvchi yoshlar uchun olimpiya ta’limining samarali tizimini yaratish” innovatsiya loyiha ishi sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning mazmunan boyishiga xizmat qilgan;

Sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning asosiy mezonlari shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilishi va ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishini targ‘ib etishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etish asosida Olimpiya sport turlari-yutuq va istiqbollari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyada keng ma’lumotlar berilgan.

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, rag‘batlantirilgan, amalda qo‘llanilganda jismoniy tarbiyaga nisbatan milliy munosabatni diagnostikasida aks etgan:

Demak, sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda jismoniy tarbiya darslari, jismoniy tarbiya sohasidagi nazariy bilim va ko‘nikmalari, jismoniy mashqlar vositasida shakllangan turli amaliy ko‘nikmalar va boshqalar sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish modeli tajribalarni o‘rganish, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, mustaqil rivojlanishning empirik darajalarni hisobga olish hamda o‘quvchilarning jismoniy tarbiya bo‘yicha erishilgan yutuqlar ularda milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish, o‘sish ko‘rsatkichlaridagi mavjud holati va samarador usullari, jismoniy tarbiya metodikasining o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlariga moslashuvchanligini sintezlash asosida o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda asosiy motivatsiya va sportga bo‘lgan munosabatlari hamda ularni mohiyati o‘rganishga jalb qiladi:

1) bevosita sportga aloqador nozik estetik xis tuyg‘ular negizida shakllanadigan ijobiy kechinmalar:

- o‘quvchilarda chiroyli, estetik harakatlardan qoniqish hissi;
- o‘zgaruvchan vaziyatlarda o‘quvchilarni o‘zini-o‘zi boshqara olishi;
- o‘quvchilar tomonidan o‘z imkoniyatini ko‘rsata olish orqali atrofdagilar e’tiborini qozonish;
- o‘quvchilarning aksariyatida nomdor sportchilarga taqlid qilish;

2) bilvosita aloqadorlik negizida shakllanadigan tuyg‘ular:

- o‘quvchilarning chiroyli, kuchli va sog‘lom bo‘lish istagi;
- o‘quvchilarda jismoniy imkoniyatlarini namoyon qilishlariga ota-onalarning xohishi.

Xulosa qilib adabiyotlarda qayd etilgan malumotlar tahliliga ko‘ra, jismoniy tarbiya - ijtimoiy taraqqiyot natijasida ishlab chiqarish, madaniyat fan va sport sohasida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratdi. “ bolaning Jismoniy rivojlanish uning tarbiyasiga ta’sir etish davomida organizmda biologik o‘zgarishlar va funktsiyalarning vujudga kelishi, o‘zgarishi ma’lum mudatdan so‘ng takomillashib boradi. Nasldan-naslga o‘tadigan tabiiy hayotiy kuchlar va organizmlarning tuzilishi, inson jismoniy rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Lekin bolaning jismoniy rivojlanishning turli xil yo‘nalishlari, uning xarakteriga, rivojlanish darajasiga, shuningdek, inson o‘zida kamol toptiradigan fazilatlar va qobiliyatlar ham turmush sharoitlari va tarbiyaga ko‘p jixatdan bog‘liqdir”. Biz bolani xar bir individual xususiyatiga ijobiy c\va salbiy tasirlarni o‘rganishimiz lozim va shu asosida ta’lim tarbiya jarayonlarini ishlab chiqishimiz va amalga oshiorsak ko‘zlagan yakuniy maqsadni tezroq amalga oshirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, *3*(12), 590-592.
2. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O‘smirlar o‘rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, *4*(2), 969-972.
3. Nishonova M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O‘SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.
4. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.
5. Bannayev, M. S. (2022). O‘zbeksitonda psixologik diagnostika va psixologik korreksion faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. Science and Education, 3(6), 701–703
6. қизи Ахмедова, Д. С., & қизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОҒИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, *2*(3), 413-416.

IJTIMOIY PEDAGOGNING MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORADIGAN FAOLIYATI

Usmonova Muattar Bahodirjonovna
Nam DU pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy pedagogning maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boradigan faoliyati, G‘abiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy pedagogning ish faoliaytlari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy pedagog, maktab yoshidagi bola, ta’lim, faoliyat, ijtimoiy yordam

Аннотация: В данной статье рассказывается о работе социального педагога с детьми дошкольного возраста, трудовой деятельности социального педагога в странах Западной Европы.

Ключевые слова: социальный педагог, ребенок школьного возраста, воспитание, деятельность, социальная помощь.

Abstract: this article talks about the work of a social pedagogue with children of preschool age, the work activities of a social pedagogue in Western European countries.

Key words: social pedagogue, school-age child, education, activity, social assistance

Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik ishdan tubdan farq qiladi. Bu faoliyat o‘quvchilarning doimiy kamol topishlari va ta’lim olishlariga bog‘liq maktabdagi ijtimoiy pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini bir bobda ochib berishning iloji yo‘q shuning uchun biz eng muhim vaziyatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Respublikamizda maktab o‘quvchilari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish rivojlanmoqda. U qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik tibbiy, psixologik, yuridik faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoqda. So‘nggi yillarda pedagogik jamoalar ham paydo bo‘lib, ularda maktab nafaqat ta’lim-tarbiya masalalarini, balki o‘quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolarini ham echmoqda.

Davlatimizdagi o‘zgarishlar mavjud ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Chunki unda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar aks etmasligi mumkin emas.

Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta’lim-tarbiya olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Zamonaviy maktab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda:

Maktab ma’muriyati, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari, kam ta’minlangan oilalar farzandalriga moddiy yordam, bepul ovqatlanish tashkil qilishadi. Sinf rahbarlarning bolaning oiladagi holatini o‘rganishadi, qiyin bolalar bilan alohida shug‘ullanishadi.

Maktabda psixologlar bola qobiliyatlari va qiziqishlarini o‘rganishadi. Ular ota-onalar va bolalarga maslahat berishadi.

Maktabda mavjud bo‘lgan sog‘liqni saqlash xizmati maktab o‘quvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishadi, jismoniy tarbiya guruhlari tuzishadi, kuchsiz bolalarga maxsus ovqatlanish tashkil qilishadi, karantin sinflarini nazorat qilishadi.

Maktabda ijtimoiy ishga maktab direktori o‘rinbosarlaridan biri rahbarlik qiladi. Tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari maktabning ta’lim muassasalari, turli davlat tashkilotlari bilan aloqasiga katta e’tibor qaratadi.

Ota-onalar qo‘mitasi ham o‘z o‘rnida tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy pedagog ishiga ikki yondashuv mavjud: u maktab bilan hamkorlik qiladi yoki u maktabning shtatli hodimi hisoblanadi.

Maktab bilan hamkorlik qila turib ijtimoiy pedagog tez-tez maktabga borib turadi. Ota-onalar va o‘quvchilarning o‘zaro munosabtlarining yaxshilanishiga yordam beradi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. U bolalar bilan qo‘pol munosabatda bo‘lgan oilalarni, jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni aniqlaydi. Bola yoki oilaga yordam berish maqsadida bolaning uzoq davom etgan kasalligi sabablarini surishtiradi, bola o‘qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida shug‘ullanadi. Bola tarbiyasidagi muammolarni xal qilish uchun huquqshunos, shifokor, militsiya hodimlari xizmatidan foydalanadi.

Ko‘pgina G‘arbiy Yevropa davlatlarida ijtimoiy pedagog maktabning shtatli xodimi hisoblanadi. U ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarni aniqlaydi. Bu bolalar maktab kursini o‘zlashtirishga qobiliyati etmaydigan bolalardir. Bu bolalar maktab yoki oilada ruhiy tushkunlikni boshdan kechirishadi. Odatda bu bolalar voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya ro‘yxatida turishadi. Ba’zan bolalar va ularning atrofidagilar bilan munosabatlarini oydinlashtirish etarli yordam beradi.

Ijtimoiy pedagog o‘quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o‘z tarbiyaviy ishini olib borishida ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlik yuzasidan sektsiya, klublar, har xil mehnat, turistik bo‘linmalar tashkil qiladi. Ijtimoiy pedagog pedagogik jamoaning tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ish olib borishini tartibga soladi. U maktab pedagogik jamoasiga doimiy tarzda sinfdagi psixologik muhit to‘g‘risida axborot beradi. Aynan shu holat maktabda ijtimoiy ish olib borishning rejasini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy pedagog maktabdan haydalgan bolalarga alohida e’tibor qaratishi kerak. U ularni boshqa maktabga joylashtirishga, yangi jamoaga ko‘nikishlariga yordam ko‘rsatadi. Ijtimoiy pedagog dasr soatlari vaqtida noqonuniy ishlab yurgan bolalarni aniqlaydi, ularning o‘qish masalasini hal qiladi. U ko‘p bolali oilalarning barcha imtiyozlaridan foydalanishlari, bolalarning reabilitatsion markazlarga qatnashlarini nazorat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va sinf rahbarlari tumandagi oila va o‘quvchilarni o‘rganib chiqishadi. Ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarga e’tibor berishadi, tarbiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalashda oilalarga yordam berishadi.

O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘z faoliyatida to‘garak, sektsiya, klublarni tashkil qilish, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan individual ishlashini, yashash joyida bolalar bilan konsultatsiya o‘tkazish, alohida pedagogik e’tiborga muhtoj bolalar bilan ish olib borishni nazorat qiladi.

Alohida fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar bolalarning qiziqishlarini o‘rganib chiqib, ularni turli to‘garak va sektsiyalarga jalb qilishadi. Maktabda turli tadbirlar o‘tkazishadi. Bu tadbirlarni o‘tkazishda ota-onalar va sobiq o‘quvchilar yordamidan foydalanishadi, maktabga mashhur kishilarni chaqirishadi.

Maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiylashtirish omili bolalar submadaniyatini shakllantiruvchi tengqurlar jamoasidir. Ijtimoiy pedagog bu hodisalarning funktsiyalarini bilishi, ularning o‘quvchilarning shaxsiy hislatlari va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishdagi o‘rinlarini ko‘ra olishi lozim.

Tengqurlar jamoasi va bolalar submadaniyati. Bola ijtimoiylashuvining shartlaridan biri tengqurlar bilan munosabatga kirishishidir. Bu munosabat MTM guruhi, maktab sinflari, turli norasmiy bolalar va o‘smirlar birlashmalari kabi kichik guruhlarda shakllanadi. Bolalar va o‘smirlar guruhlarida tengdoshlar orasida funktsional, emotsional shaxsiy munosabatlar o‘rnatiladi.

Funktsional munosabatlar bolalar faoliyatining alohida sohalari (mehnat, o‘qish)da qayd etilgan bo‘lib, kattalarning bevosita rahbarligi ostida guruhdagi xulq-atvor normalarini o‘zlashtirish orqali shakllanadi. Tengdoshlar guruhining hamma a’zolari ham yosh jihatdan teng bo‘lmaydi. Bu guruhga har xil yoshdagi, biroq umumiy qadriyatlar, munosabatlar tizimi yoki qiziqishlari bilan birlashgan bolalar ham kirishi mumkin. Tengdoshlar guruhi a’zolarining soni turlicha bo‘lishi mumkin. O‘rtoqlar guruhida 2-3 dan 5 gacha, og‘aynilar guruhida 7-9 gacha, asotsial guruhlarda 20 tagacha, rasmiy guruhlar - sinf, to‘garak va boshqalarda 30-40 tagacha a’zo bo‘lishi mumkin.

Tengqurlar guruhi odatda a’zolarning hududiy yaqinligi asosida shakllanadi. Tengqurlar guruhi individual qiziqishlarning mos tushishi, rasmiy tashkilot(sinf, boshqalar) borligi va guruh a’zolari o‘rtasida shaxsiy munosabatlar mavjudligi tufayli shakllanadi. Bu munosabatlar guruh a’zolarining xarakter va o‘zaro ta’sirlarida, shuningdek sinfda rollarni taqsimlashda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan yetakchi ajralib chiqadi. Eksperimental tadqiqotlarda etakchisi bo‘lmagan guruh aniqlanmagan. Sohaviy yetakchilar ham bo‘lishi mumkin. Masalan, aqliy, emotsional, ishbilarmon etakchi bo‘lishi mumkin. Tenqurlar guruhini bir necha parametrlar bo‘yicha tasniflashimiz mumkin:

- Ijtimoiy tizimdagi yuridik maqomiga ko‘ra tengqurlar guruhlari rasmiy, ya’ni jamiyat tomonidan tan olingan, biror bir davlat yoki jamoat tashkiloti bilan bog‘liq bo‘lgan guruhlar va norasmiy (o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lgan) guruhlarga bo‘linadi.

- Ijtimoiy psixologik maqomiga ko‘ra ular ikkiga bo‘linadi, ya’ni mansublik guruhi – uning haqiqiy a’zolari mavjud (sinf, sport klubi va boshqalar) va inson hayolan tayanadigan referent guruhi.
- Faoliyat yuritishning barqarorligi va uzoq muddatliligiga qarab doimiy, vaqtinchalik hamda tasodifiy guruhlarga ajratiladi.
- Hudud jihatidan ular hovli, mahalla yoki biror bir muassasa tarkibida faoliyat yuritishlari mumkin.
- Etakchilik borasida ular demokratik va avtoritar guruhlarga bo‘linadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda tengqurlar guruhlari voyaga etayotgan avlod ijtimoiylashuvida eng muhim mikroomillardan biriga aylandi. Avvalgi davrlarga qaraganda ularning o‘rni ancha jiddiylashdi, bunga bir qator jarayonlar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Urbanizatsiya shunga olib keldiki, borgan sari ko‘p bolalar, o‘smirlar shaharlarda yashashyapti va u erda ko‘proq tengdoshlar bilan muomala qilish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Bu muomalani kattalar to‘liq nazorat qila olishmaydi. Katta oilaning kichiklashuvi, bir bolali va to‘liqsiz oilalarning ko‘payishi, oilalarning noto‘g‘ri tashkillashtirilganligi, bolalar uchun oiladagi emotsional aloqalarning etishmovchiligini uydan tashqarida to‘ldirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Umumiy o‘rta ma’lumot OAVlar shunga olib keladiki, voyaga etayotgan avlod o‘zlarining savodxonliklari va madaniy rivojlanishlari darajasiga ko‘ra ancha tenglashib qolishdi. Shuningdek, bolalarning tengqurlar guruhlariga birlashishlariga nafaqat kiyim-kechak yoki turmak, balki hayot tarzini ham belgilab beruvchi moda ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Turli yosh va ijtimoiy madaniy xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, tengqurlar guruhining ijtimoiylashuvdagi funktsiyalari universaldir. Birinchidan, guruh a’zolarini shu jamiyat madaniyatiga o‘rgatadi, ya’ni ularning xulq-atvorini guruh a’zolarining milliy, diniy, mintaqaviy, ijtimoiy mansubligiga moslashtiradi. Ikkinchidan, tengqurlar guruhlarida ijobiy xulq-atvorga o‘rgatiladi. Bu ularga namunaviy xulq-atvorlarni ko‘rsatish, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorlarga nisbatan

chora qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Uchinchidan, tengdoshlar guruhlari bolalar, o‘smirlar va o‘spirinlarning kattalar, xususan ota-onalar ta’siridan avtonomlashuvlari jarayonida muhim o‘rin tutadi. To‘rtinchidan, guruh o‘z a’zolariga yosh submadaniyatidan mustaqil bo‘lish imkonini beradi.

Guruhda emotsional va shaxsiy munosabatlar ham shakllanadi. Bolalar va yosh o‘smirlar guruhlarida emotsional munosabatlarning asosiy funktsiyasi tengqurlar xulq-atvorini umumqabul qilingan xulq-atvor normalariga moslashdir. Bu holatda do‘stlik rishtalari, simpatiya birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Aslida ular ontogenezda ancha avval paydo bo‘lishgan. Agar maktabgacha yoshdagi bola ularga amal qilsa, bu holat boshqa bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

Shaxsiy munosabatlar guruhdagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘lib, bunda bir bola xulq-atvorining sababi boshqa bola uchun shaxsiy ma’noga ega bo‘ladi. Shaxsiy munosabatlar bola atrofdagilar bilan munosabatda kattalar rolini bajarganda yorqin namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Sh. Shomansurov «40 savolga javob» -T;1989-yil (133-136-betlar)
2. Safar Muhammad «Uzoq yashash sirlari» -T;Yurist -media markazi» 2011-yil (90-94-betlar)
3. D.D. Sharipova «Valeologiya asoslari» -T;Musiqa nashriyoti, 2010-yil 72-87-betlar)
4. Nodira Egamberdiyeva «Ijtimoiy pedagogika» -T;O‘zbekiston milliy nashriyoti, 2009-yil (195-200-betlar)

SHAXS IJTIMOIY HIMOYASIZLIGINI OG`ISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI

Toshibekova Munojat Xoshimovna
NamDU Pedagogika nazariyasi va kafedrasi o‘situvchisi. PhD
Nurullayev Xayrullo Olimjon o‘g‘li
Pedagogika psixologiya yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada har bir jamiyatga xos bo‘ladigan shaxsning ijtimoiy ximoyasizligini uning xulq atvorga ta’sirni shaxs muamosni tadqiq qilishni, buyuk mutaffakirlarimizni shaxsga bo`lgan etibori, uning qiziqishlari , shaxsga berilgan ta’riflar, “Men” obrazning ijtimoiy psixologik axamiyati, Z.Freyd bo`yicha inson ruhiyatning modeli, (Id), (ego), (super ego), psixoanalitik qonunyatlarini shaxsga bog`lab o`rganildi.*

Kalit so‘zlar: shaxs, shaxs qiziqishlari, *ijtimoiy tabiatga, ijtimoiy normalar, shaxs xulq-atvorni, “Super men”, deviyand xulq atvor, mafkuraviy va g‘oyaviy kurashlar.*

Аннотация: *В статье исследуется социальная незащищенность личности, ее влияние на поведение, проблема личности, внимание наших великих мыслителей к личности, его интересы, определения личности, социально-психологическая значимость образа «Я». Согласно З. Фрейду, модели человеческой психики (Ид), (эго), (супер-эго), психоаналитические законы изучались применительно к личности.*

Ключевые слова: *личность, личные интересы, социальная природа, социальные нормы, поведение личности, «Сверх-Я», девиантное поведение, идейно-идеологическая борьба.*

Annotation: *This article examines the social insecurity of the individual, its impact on behavior, the problem of personality, the attention of our great thinkers to the individual, his interests, definitions of the individual, the social psychological significance of the image of "I" According to Z. Freud, the model of the human psyche, (Id), (ego), (super ego), psychoanalytic laws were studied in relation to the individual.*

Key words: *personality, personal interests, social nature, social norms, personality behavior, "Super I", deviant behavior, ideological and ideological struggles.*

Bugungi kunda jamiyatimizda shaxsga bo`lgan munosabat uning obro`yi ijtimoiy axvoliga qaralayotgan etibor davlat siyosati darajasiga ko`tarildi desak mubolag`a bo`lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat organlari aholi bilan qay darajada ishlash kerakligi to‘g‘risida yuqori mezonlarni belgilab berdi. Bir yil davomida bu jarayonlar faqat quruq so‘z bo‘lib qolmasdan, balki amalda, hayotimizda ro‘y berib, jamoatchilikning fikrlashini o‘zgartiruvchi jiddiy katalizatorga aylanganining guvohi bo‘ldik.

Davlat organlari aholining murojaatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob berishga, oddiy insonlarning muammolarini o‘rganib, ularni hal qilishga, yuzma-yuz muloqot o‘rnatishga harakat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalaridagi keskin o‘zgarishlar yillab o‘z yechimini topmagan ayrim eski muammolarni qayta ko‘rib chiqishga va hal etishga yordam bermoqda. Odatda shaxs ijtimoiy fanlarning o‘rganish predmeti bo‘lib, ular insoniyat tarixida shaxs shakllanishining umumiy qonuniyatlarini, jamiyatning rivojlanish jarayonida inson hayotining ijtimoiy sharoitlariga bog‘liq holda shaxsning o‘zgarishi bilan aloqador masalalarning mohiyatini ochib beradi. Shaxs muammosini tadqiq qilishga biologiya, kognitiv, ijtimoiy fanlar va falsafa fani murojaat qiladi. — Shaxs kategoriyasi psixologiyaning eng muhim, tayanch tushunchasi bo‘lsa, — shaxs psixologiyasi

bo‘limi uning asosini tashkil etadi. Psixologiyaning bu sohani bilish har qanday mutaxassisga samaraliroq ishlash imkonini beradi.

Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida ham qadimiy Sharq xalqlari shaxsga bo`lgan etibor uning qiziqishlari va mayillari xaqida shaxsning odob-ahloqiga, liderlik muammolariga alohida e’tibor berilgan. Bu esa psixologiya g‘oyalari, jumladan, ijtimoiy munosabatlar haqidagi bilimlar faqat Evropada paydo bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniyning (973-1048) “Kitob al-javohir ma’rifat al-javohir”(“Mineralogiya”), “Hindiston”, “Al asorul boqiya anil-qurun Il-xoliya”(“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarlarida jamiyat va inson, uning kamoloti, aql-idroki kabilarga oid g‘oyat qimmatli fikr mulohazalar mavjuddir. Olim o‘z asarlarida inson o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy mavjudot ekanligini, u faqat boshqa kishilar bilan birgalikda yashay olishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning yozishicha, kishilar o‘z ehtiyojlarining ko‘pligi, dushmandan saqlanishi zarurligi sababli, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, bajargan ishlari orqali o‘zlarini ham, boshqalarni ham ta’minlash maqsadida urug‘-aymoqlari bilan jamoalarga birlashgan. Jamiyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi, insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishi kishilarning hamkorlikda faoliyat yuritish zaruratidan kelib chiqqanligi, Beruniy ta’limotida tez-tez eslatiladi.

U jamiyatning ravnaq topishida kishilarning o‘zaro yordam, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy aloqa va munosabatlar asosida birgalikda harakat qilishi singari muhim omillar yotishini o‘rta asrdayoq isbotlab bergan edi. Dunyoda keng shuhrat qozongan olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) “Donishnoma”(Bilim kitobi”), “Risolai ishqi”, “Axloq haqidagi risola”, “Uy xo‘jaligi”, “Ahd risolasi” kabi qator asarlarida inson ijtimoiy mavjudot, u tabiiy-ijtimoiy muhitsiz, o‘zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma’naviy-axloqiy munosabatlarsiz yashamagan va yashay olmaydi, deb hisoblaydi. U bunday o‘zaro munosabatlarda axloqiy tarbiyaning roli muhim ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.Umuman olganda, shaxsning ijtimoiylashuvi Ayniqsa, mafkuraviy va

g‘oyaviy kurashlar avj olgan hozirgi davrda inson ijtimoiy xulqini boshqarish dolzarblik kasb etganligini inobatga olsak, uning jamiyat barqarorligidagidagi uning siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy roli yanada yuksaladi. Shu bois ham hozirda uning tadbiqiy, amaliy ko‘rinishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Shaxs tushunchasining murakkab va ko‘p qirrali bo‘lishiga qaramay Mutaxassislar tomonidan — shaxsga umumiy ilmiy ta‘rif berishga urinib ko‘rilgan. R.S.Nemov shaxsni quyidagicha ta‘riflaydi: — Shaxs – bu ijtimoiy tabiatga ega, o‘z mohiyatiga ko‘ra barqaror ijtimoiy aloqa va munosabatlari, o‘zi va boshqalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kishining axloqiy hatti harakatlarida namoyon bo‘ladigan psixologik tavsiflarga ega kishidir.

Shunday qilib, shaxs ijtimoiy psixologik mavjudot sifatida hamisha ijtimoiy muhit ta’sirida bo`ladi va ularning anglaydi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, roller ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorni ma’lum ma’noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insoning komilligi, uning axloqi, ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul xarakati uning o`ziga ham bog`liqdur. Odamning o`z o`zini anglashi, bilishi va o`z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o`ziga, o`z ichki imkoniyatlari, qobilyatlari, xissiy kechinmalariga qaratilishi taqazo etadi. Ya’ni,ijtimoiy xulq, shaxs tomonidan uni o`rab turgan odamlar, ularning xulq atvoriga e’tibor berishdan tashqari, ozining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlari muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqazo etadi.

Shaxsning o`zi, o`z xulq atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeni tasavvur qilishidan xosil bo`lgan obraz - ‘men’ obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallika yaqinligi shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeni belgilaydi va uning barkamolligi mezonlaridan hisoblanadi. ‘Men’ – obrazning ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasning va tarbiyalanganligning muxum omillaridan xisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya-shaxsning o`zi va o`z sifatlari to`g`risidagi tasavvurlarining shakilanishi jarayonidir, deb tariff berish mumkun.

Demak, har bir inson o`zini, o`zligini qanchalik aniq va to`g`ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo`ladi, y’ani u tarbiyalangan bo`ladi. O`z o`zini anglash, o`zidagi mavjud sifatlarni baholsh jarayoni ko`pincha konkret shaxs tomonidan og`ir kechadi, y’ani, inson tabiati shundayki, u o`zidagi usha jamiyat normalariga to`g`ri kelmaydigan, no‘maqul sifatlarini anglamaslikka, ullarni yashirishga xarakat qiladi, xattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik soxasiga siqib chiqarildi (bu fikr avstryalik olim Z.Freyd nazariyasiga xam mos keladi). Bu ataylab qilinadigan ish bo`lmay, u xar bir shaxsdagi o`z shaxsiyatini o`ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko`pincha turli xil yomon asoratlaridan, salbiy, o`zi uchun yoqimsiz hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, ‘Men’ obrazning ijobiy yoki salbiyligida yana usha shaxsning o`rab turgan tashqi muhit, o`zgalar va ularning munosabati kata rol o`ynaydi. Bugingi kunda ijtimoiy jihatdan himoyasiz qarovsiz va mehirga muhtoj shaxslar ijtimoiy hayotimizda yo`q deya olmaymiz, aynan shunday shaxslarga e’tibor berishimiz darkordur, ularning psixologiyasi va oilaviy sharoyitni o`rganish kerakligi, ularning ruhiyatida ong ostida jamiyatga nisbatan, shaxslararo munosabatlarda ichki qo`zg`ovchi o`z hayotidan va uning jamiyatdagi egalab turgan mavqeyidan ijtimoiy jihatdan himoyasizligi ong ostidagi ichki salbiy motiv uning psixologiyasni o`zgarishiga sababchi bo`ladi. Bu yerda biz Psixoanaliz Z.Freyd bo`yicha inson ruhiyatini ayzberk muz qoyasiga o`xshatadi bunda bizga ko`rinib turgan muz qoya bizning ongimiz, suvning tagida esa muz tog`ning judda kata qismi bu qismi esa ongsizlikdir (ong ostimiz).

Z.Freyd o`z kuzatuvlariga asoslanib, inson ruhiyatni yangi bir modelni yaratdi. Unga asosan bir biriga uzviy bog`liq bo`lgan 3 ta psixologik tuzilma mavjud bo`lib, bular (Id) U, (Ego)Men, (Super ego) Super men, buyerda “Id ” U ongda aks etmaydi, u ong ostida joylashgan, tug`rirog`i, ong ostiga tiqishtirilgan.”id” qoniqish prinsiplariga asoslanib faoliyat ko`rsatadi, bu yerda jinsiy qoniqish alohida o`rin tutadi. Z.Freyd qondirilmagan his tuyg`u yoki

mayilning ruhiy quvvati ong ostida to`planib boradi va o`z ifodasini topishga urinadi, deb fikr yuritadi. “Ego” bu Men, degani. Z.Freyd tabiri bilan aytilganda, bu ong demakdur. Ongli faoliyatimiz ongli fikr yuritishimiz barchasiga ‘Men’ javobgar bo`ladi. Psixoanalitiklar odamni, aniqrog`i uning ruhiyatni, tirik xujayraga o`xshatishadi. Bunda xujayraning tashqi pardasi “Men” bo`lsa, uning ichki tarkibi “Id” dir. Xujayraning ichida moddalar almashinuvi natijasida katta energiya to`planadi va kuchli energiyaga ega bo`lgan “Id” tashqariga yorib chiqisi keladi. Bunga esa xujayraning tashqi pardasi, yani “ Men” yo`l quymaydi. Yani “Men” bu ongli jarayon bizning ongimiz,” Super men” esa “Men” dan oldin turadi demak bu, odamning o`rap turgan muxit, jamiyatda belgilangan qonunlari, axloq prinsiplari va din talablari, odamning xulq atvorni tepadan nazorat qilib turadi . Z.Freydning manashu uchta tuzilmasiga asoslaninb shaxsning ijtimoiy xayotda ximoyasizligi uning ruhiyatida xulq atvorda keskin o`zgarish bo`lishini taqoslashimiz mumkin. Bunda shaxs jamiyatda ijtimoiy ximoyaga muhtoj , lekin unga jamiyatda belgilangan qonunlar va yuqori pog`onadagi mansabdorlar shaxslar unga ijtimoiy axvoliga nisbatan befarq qaralyabdi bunday xolatda shaxsda qoniqmaslik xissi “Id” ong ostimizda yashirin agressiya vujudga keladi uning ruhiyatida , bunday xolatda shaxsning ong ostidagi qoniqmasllik xissi tashqariga turli hil ko`rinish va xolat bilan otilib chiqisi keladi , lekin bunday xolatda bizning “Men” miz ongimiz ongli fikir yuritishimiz unga tusqinlik qiladi, jamiyatda belgilangan qonun qoidalar barchasi uning tashqariga chiqishga to`sqinlik qiladi, yuqorida esa “Men” ga nisbatan “Super men” ham bosim o`tkazadi bunda odamning o`rap turgan muxit, jamiyatda belgilangan qonunlari, axloq prinsiplari va din talablari, odamning xulq atvorni tepadan nazorat qilib turadi . Bunday xolatda shaxsda bu uchta tuzilmadan “Men” ga qiyin bo`ladi, chunki u bir tom ondan “Id” ni qoniqtirishi, ikkinchi tomondan “Super men” talablariga amal qilish kerak. Shaxsdagi bunday holatda uchta psixoanalitik tuzilmada tajovuzkorlik “Id” da ustunlik qiladi. “Id” doimo “Men” va “Super men” bilan murosasiz jang olib boradi, chunki ular “Id” ni dimo nazorat qilishga intiladi. “Id” kuch quvvatga ega

bo`lsada “Men” uni ong ostidan suzib chiqishga yo`l quymaydi. Shuning uchun xam “Id” da tajovuzkorlik yuqori bo`ladi. Shaxsdagi jamiyatda ximoyasizligi uning hulq-atvorda shu yuqordagi psixologik jarayonlar sodir bo`ladi va bizning ong ostimizdagi qoniqmaslik hissi yuqoriga chiqsa unda shaxsda xarakterida deviyand hulq-atvor shakilanishi mumkin, ayrimlarda esa bunday holatlarda og`ir suitsid holatlari yuzaga kelishi mumkin. “Men” nazoratini to`la qo`lga olgunga qadar instinktlar guyoki odamning xayot tarzini, ya’ni hulq-atvorni belgilab bergan. “Men” ni rivojlanishi odamni hayot tarzini o`zgartirib yuvoradi va uning hulq-atvorni nazorat ostiga oladi. Shunga qaramasdan, psixoanalitiklar “ Id”ga odamning xayot tarzini belgilab beruvchi asosiy manba sifatida qarashadi.”Id” o`zgarmas,“Men” esa rivojlanib o`zgarib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1- Н.А.Ғайибова– Психология ўқув-илмий Маркази, “Ривожлантириш психологияси” лабораторияси бош илмий ходими. “Ijtimoiy psixologiya “Moduli bo`yicha o`quv uslubiy majmua Тошкент – 2018
2- Nodira G'ayratovna Kamilova” Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi” Darslik Toshkent – 2020
3- M.Otajonov “Psixoanaliz asoslari” O`quv qo`lanma Toshkent “O`zbekiston” 2004
4- Zarifboy Ubodullaev “ Asab va ruhiyat” Ilmiy- ommabob risola “SHarq “ Nashiryot-Matbaa aksyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati Toshkent-2015
5- F.I.Xaydarov, N.I.Xalolova “Umumiy psixologiya” darslik Toshkent 2016
6- Ijtimoiy psixologiya maruzalar matni Kamalova S.R. Toshkent – 2017
7- www.ziyo.uz
8- https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/689

RINOLALIYA. RINOLALIYA TURLARI

Xikmatillayeva Malohat Ismatilla qizi
NamDU Pedagogika- psixologiya fakulteti Defektalogiya(Logopediya) yo‘nalish 3-bosqich talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada rinolaliya o‘zi qanday kasallik,kelib chiqish sabablari, belgilari, etiologiyasi, omillari kabi xususiyatlari. Rinolaliya kasalligini oldini olish chora tadbirlari haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *manqalanish, yopiq rinolaliya, ochiq rinolaliya, aralash rinolaliya, yoriqlik, artikulatsion, anatomik, tembr, profilaktik, dispanserizatsiya , pediator, refleks, xirurgik, lab operatsiyasi, burun ottenkasi, zvenosi, kommunikatsiya.*

Annotatsiya*: V dannoy state rinolaliya zabolevanie, ego prichiny, simptomы, etiologiya, faktorы i dr. Dana informatsiya o merax profilaktiki zabolevaniya rinolaliey.*

***Klyuchevыe slova**: chixanie, zakrытaya rinolaliya, otkrытaya rinolaliya, smeshannaya rinolaliya, treщina, artikulyasionnaya, anatomicheskaya, tembrovaya, profilakticheskaya, dispansernыy pediatr, refleks, xirurnicheskiy, operatsiya na gube, polost nosa, sustav, svyaz.*

***Abstract:** In this article, rhinolalia is a disease, its causes, symptoms, etiology, factors, etc. Information about measures to prevent rhinolalia disease is given.*

***Keywords**: squinting , closed rhinolalia, open rhinolalia, mixed rhinolalia, cleft, articulatory, anatomical, timbre, preventive, dispensary, pediatric, reflex, surgical, lip operation, nasal cavity, joint, communication.*

Rinolaliya – (grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, rhinos- burun, lalia- nutq) nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir. Rinolaliyaning o‘rganish tarixi juda uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi. Muammoni o‘rganishda shifokorlar, defektoliglar, psixoliglar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shdilar.

Rinolaliya bo‘yicha dastlabki ilmiy ishlar shifokorlar tomonidan yozilgandir. Ularning harakatlari tanglay bo‘rtmasini to‘liq tiklashga qaratilgan edi, qayta hosil qilingan tanglay pardasi yetarli darajada uzun va harakatchan bo‘lishi va halqumning orqa devori uchun birika olishi lozim . Bu samaraga erishish nutqdagi manqalikning yo‘qotishga imkoniyat yaratadi yoki uni bartaraf qiladi .

T.N.Voronsova (1966) ishlarida katta yoshlardagi bemorlarda uranoplastikadan so‘ng logopedik ta’sirning diferensiyasi o‘tkazildi. Yumshoq tanglayning uzunligi, harakatchanligi va halqum muskulatulasining rivojlanishiga qarab muallif bemorlarni 3 guruhga ajratdi va ular bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatdi.

Rinolaliya haqida ta’lumotning rivojlanish tarixi shuni ko‘rsatadiki, mutaxassis logopedlar va shifokorlar ochiq rinolaliyada nutq nuqsoni bartaraf etishning ma’lum bir metodikalarini taklif qilib, halum – tanglay halqasini hosil qilish va mustahkamlashga intilganlar.

Rinolaliya hosil bo‘lishiga ko‘ra dislaliyadan farq qiladi, ya’ni rinolaliyada tovushlarni burun-dimog‘ bilan talaffuz qilish hollari kuzatiladi. Rinolaliyada tovushlar artikulyatsiyasi, fonatsiya , tovush hosil bo‘lish mexanizmlari jiddiy ravishda normadan chetga chiqadi.

Tanglay-halqum birlashish funksiyasini buzulish xarakteriga ko‘ra rinolaliya uch shaklga ajratiladi.

Yopiq rinolaliya. Yopiq rinolaliya nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida fiziologik burun rezonansining pasayishi natijasida yuzaga keladi. M, n burun tovushlari talaffuzida eng kuchli rezonans bo‘ladi. Bu tovushlarning normal talaffuzida burun- halqum yo‘li ochiq bo‘ladi va havo oqimi tog‘ri burun bo‘shlig‘iga o‘tadi. Agar burun tovushlar talaffuzida burun rezonansi bo‘lmasa, unda burun tovushlari b,d tovushlariga o‘xshab talaffuz etiladi.

Rinolaliyaning yopiq shaklining kelib chiqish sababi- burun bo‘shlig‘idagi organik o‘zgarishlar yoki tanglay – xalqum birlashishining funksional buzulishidir. M.Zeeman Yopiq rinolaliyaning(rinofaniya) ikki turini ajratadi: oldingi yopiq rinolaliya- bunda burun bo‘shlig‘ida o‘tkazuvchanlik funksiyasi bo‘lmaydi va orqa yopiq rinolaliya – bunda burun-halqum bo‘shlig‘ida o‘tkazuvchanlik kamayadi.

Oldingi yopiq rinolaliyaning sababi- burun shilliq pardasida surunkali gipertrofiyaning, burun bo‘shlig‘ida poliplarning bo‘lishi, burun devorining qiyshiqligi va burun bo‘shlig‘ida o‘smalarning bo‘lishidir.

Orqa yopiq rinolaliya – bolalarda adenoidlarning ko‘payib ketishi burun-halqumda poliplarning, fibroma va o‘smalarning paydo bo‘lishida kuzatiladi. Funksional yopiq rinolaliya bollarda ko‘p uchrab turadi, lekin doimo aniqlash qiyin. Chunki u burun bo‘shlig‘ining yaxshi o‘tkazuvchanligida va burundan nafas olish buzilmagan hollarda kuzatiladi. Bunda burun tembri va unli tovushlar talaffuzi qo‘pol buzilgan bo‘ladi. Organik yopiq rinolaliyaning sababi- burun bo‘shlig‘ida o‘tkazuvchanlikning buzilishidir. Bunda burundan to‘g‘ri nafas olish yo‘lga qo‘yilsa, ya’ni burun bo‘shlig‘idagi o‘tkazuvchanlik yaxshilansa hamma kamchilik yo‘qoladi.

Yopiq rinolaliyada olib boriladigan logopedik ishning samaradorligi burun-halqum holatiga, uning funksiyasiga va bolaning yoshiga bog‘liq. Logopedik mashg‘ulotning boshlang‘ich davrida nafas mashqlari olib borish tafsiya etiladi.

Bundan maqsad og‘iz va burundan nafas olish nafas chiqarishni differensiatsiya qilishdir. Bu mashqlar avval puflashdan boshlanib, keyin burundan qisqa va chuqur nafas chiqarish bilan almashtiriladi. Shu bilan birgalikda yumshoq tanglay va halqumning orqa devor muskullari harakatini nafas chiqarishni muvofiqlashtirish ustida ish olib boriladi. Bu mashqlar m, n burun tovushlarining talaffuzini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va mustahkamlashga imkon yaratadi. Yakunlovchi davrda unli tovushlarni jarangdorligi va burun tovushlarining qarama-qarshi qo‘yilgan tovushlar (b, p,m, t,d ,n) ustida ish olib boriladi.

Ochiq rinolaliya. Rinolaliyaning ochiq formasiga og‘iz bo‘shlig‘ida hosil bo‘luvchi tovushlar dimog‘da talaffuz qilinadi. I va u unli tovudshlarida tembr sezilarli darjada o‘zgaradi, bu unli tovushlar artikulatsiyasida og‘iz bo‘shlig‘iga hamma tovushlar artikulatsiyasiga ko‘ra toraygan bo‘ladi. A unli tovushlar talaffuzida yuqoridagi holat kamroq uchraydi, chunki bu tovush talaffuzida og‘iz bo‘shlig‘iga kengroq ochiladi. Undosh tovushlar talaffuzida tembr buzilishlari kuzatiladi. Shovqinli va qorishiq tovushlar talaffuzida xirillagan tovush qo‘shilib keladi. Portlovchi b, p,t,k va g tovushlari noaniq talaffuz qilinadi, chunki og‘iz bo‘shlig‘ida yetarli darjada havo bosimi hosil bo‘lmaydi, natijada burun bo‘shlig‘i to‘liq berkilmaydi. Ochiq rinolaliyani aniqlash uchun funksional tekshirish usullari mavjuddir. Eng oddiy tekshirishlardan biri Gutsman usulidir. Bunda logoped bolaga galma-gal a va i unli tovushlarni qaytarishni buyuradi va bolaning burun yo‘lini bir berkitib, bir ochib turadi. Ochiq rinolaliyada bu unli tovushlarning jarangdorligida sezilarli darajada farq bo‘ladi. Ayniqsa a unlisi burun yo‘lini berkitib talaffuz qilinganda i tovush talaffuzi eshitilmaydi, shu bilan birgalikda logopedning barmoqlari burun qanotlaridagi kuchli temranishni sezadi.

Yana aniqlash usullaridan biri, bu fonendoskop tekshirishdir. Bunda tekshiruvchi fonendoskopning bir uchini o‘zini qulog‘iga, ikkinchi uchini bolaning burniga tutib turadi. Bola unli tovushlarni ayniqsa , u va a unlilarini talaffuz qilganda kuchli shovqun eshitiladi. Undosh f, s, sh tovushlar talaffuzida xirillagan ovoz eshitiladi.

Aralash rinolaliya. Rinolaliyaning bu turi burun rezonansining patologik kamayganligi holati havoning burundan chiqib ketishi bilan izohlanadi, oqibatda barcha nutq tovushlarining artikulatsion va akustik tomondan buzilishi kuzatiladi. Ovoz tembri ahamyatli darajada o‘zgaradi. Aralash rinolaliyada ham ochiq, ham yopiq rinolaliyaning belgilari birga qo‘shilgan holda namoyon bo‘ladi. Bunda burun yo‘li to‘silib qolgani holda tanglay –halqum pardasida ham o‘zgarishlar bo‘ladi. Burun tovushlari yopiq rinolaliyadagi singari, boshqa tovushlar esa ochiq rinolaliyadigi kabi talaffuz qilinadi. Aralash rinolaliya ham organik ham funksional xarekterda bo‘lishi mumkin. Organik xarekterdagi aralash rinolaliyaga yumshoq tanglayning kaltaligi yoki falajligi sabab bo‘lsa, funksional aralash rinolaliyaga tanglay halqum yorig‘ining funksiyasi o‘zgarishi natijasida burun yo‘lining to‘silib turishi sabab bo‘ladi.

Davolashdan oldin qaysi biri kamchilik ovoz tembrini ko‘proq buzib, manqalikka ko‘proq sabab bo‘lyotganligini aniqlash zarur. Masalan, bemor burun tovushlari bilan unli tovushlarni boshqa tovushlarga qaraganda yanada ko‘proq manqalanib talaffuz qilyotgan bo‘lsa, demak, unda yopiq rinolaliya ustin bo‘ladi va davolash chorasini shunga qarab belgilanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hozirgi kunda nutq nuqsonlaridan rinolaliya kasalligi jamiyat orasida keng tarqalgan. Rinolaliyani turlari bo‘yicha texnika rivojlanganligi sababli rinolaliyada ochiq va yopiq bog‘inlari oldingiga nisbatan choklarsiz bityotganligi va rinolaliyada tovushlar talaffuzini mutlaqo to‘liq tuzalyotganligini va rinolalik bolalar ham umumiy tipdagi maktab va bog‘chalarda sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda bilim olish imkoniyatlari ko‘paydi.

Foydalanilgan adabyotlar ro‘yxati:

1. M. Ayupova “ Logopediya” 2007 yil
2. Po‘latxo‘jayeva M.R “ Defektalogiyaning klinik asoslari” Toshkent 2012 yil
3. .G. Q. Sodiqova, A. G‘. Axmedov, G.M. Tursunxodjaeva “ Bolalar nevralogiyasi” Toshkent 2008 yil.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA INFORMATSION KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Nazarova Asila Mamarasulovna Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magstranti

Annotatsiya: maqolada talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishva rivojlantirishning asosiy omillari, pedagogik asoslari ko‘rsatib o‘tilgan. Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to`g`ri foydalanib, o`zining rivojlanishi uchun kerak bo`lgan axborotlarni o`rganish, saralash va unga ongli munosabat bildirish kompetentsiyalari talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot madaniyati, "Axborot savodxonligi" kompetentlilik, kreativ, idrok, keraksiz axborot, to`garaklar.

Аннотация. В статье указаны основные факторы формирования и разявития информационной культуры у студентов, педагогические основы. Правильно используя поток информации из истосҳников, интерпретируюця компетенции по изусҳению, сортировке и реагированию на информацию, которые необходимо развивать

Annotation: In this article the main formation of information culture and development on students are shown. By using contents derived from various resources, learning information for one's development, sorting and the methods of consciously responding to it are illustrated.

Key words: information culture, "information literacy" competence, creativity, consciousness, unnecessary information, courses.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniya, internet) orqali qabul qilinadigan axborotlar ko`lami kundan-kunga ko`payib, kengayib bormoqda. Bu yoshlarimiz ongiga o`zining ta`sir kuchini ko`rsatmay qolmaydi, albatta.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq ma’lumot, axborotlarni

mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zaruriy axborotlarni uzatish ko‘nikmalari-ning shakllanganlik darajasidir.

"Axborot madaniyati" tushunchasida "madaniyat" so'zi, bu eng katta semantik yuk. Jarayon, usul, faollik, faoliyat tizimi va o'ziga xos ob'ektni anglatadi.

Shaxsning axborot madaniyati - bu shaxsning madaniyatining ajralmas qismi tizim xususiyatlari Unga axborotning barcha turlarida samarali ishtirok etishga imkon beradigan kishi: ushbu asosda sifat jihatidan yangi ma'lumotlarni yaratish, yig'ish, kodlash va qayta ishlash, uning uzatish, amaliy foydalanish. [Karakozov S.D.]

Ongli inson borki, hayotining har lahzasida yo axborot oladi, yo uni idrok etadi va yoki uzatadi. Ushbu 3 jarayonning 4 - keraksiz axborotdan xalos bo‘lish. Biz axborot erkinligi haqida juda ko‘p gapirdik, endi esa keraksiz axborotdan qutulish muammosi yo‘limizda ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Afsuski, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda mulkingizga aylangan axborot yig‘indisi xonadoningizda hosil bo‘lgan chiqindi emaski, undan osongina voz kechsangiz. Axborot madaniyati mazkur to‘rt bosqichli jarayon ichida eson-omon yashash hamda faoliyat yuritishga zamin yaratadi

Insoniy axborot madaniyati - bilimning eng muhim elementlaridan biri axborot manbalari. Mamlakatimizda ko'plab tashkilotlar yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqsimlash bilan shug'ullanadilar: kutubxonalar, statistika markazlari, axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalari.

Birinchi marta, "Axborot savodxonligi" konsepsiyasi AQShda 1977 yilda joriy etilgan va oliy ta'limni isloh qilish milliy dasturida ishlatilgan.

Lekin, ommaviy axborot vositalari orqali olayotgan ma`lumotlarimizning hammasi ham ishonchli va haqiqiy bo`lavermaydi. Odamlar e`tiborini tortish va turli xil shov-shuvlarni keltirib chiqarish maqsadida ham bunday yolg`on habarlar tarqalishi tabiiy. Shuning uchun ham xalqimizda ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko`nikmalarini

shakllantirishimiz kerak. Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo`l qo`ymaslik va har qanday vaziyatda to`g`ri qaror qabul qilish ko`nikmalarini rivojlantirishimiz zarur. Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to`g`ri foydalanib, o`zining rivojlanishi uchun kerak bo`lgan axborotlarni o`rganish juda muhim. Endi bu mavzuni diniy tomondan ham ko`rib chiqamiz:

(Islom kishilarni ilmga chaqirish bilan kifoyalanib qolgan emas, balki aqliy va fikriy harakatsizlikning oldini olish asoslarini kishilarga ko`rsatgan. Bu quyidagi narsalarda ayon bo`ladi:

1.Islom dalil va hujjat dinidir. Ilm biror narsani hujjat va aniq dalil bilan bog`lamaguncha, uni haqiqat deb tan olmaydi. Qur`on ham musulmonlarga dalilsiz narsani qabul qilmaslikni buyuradi:

“Va ular: “Jannatga yahudiy va nasroniylardan boshqa hech kim kirmaydi “, dedilar. Bu ularning xom xayollaridir.” Agar rostgo`y bo`lsangiz, hujjatlaringizni keltiring”, deb ayt.(Baqara surasi , 111-oyat)

Mana shu oyatdan ravshan ko`rinib turibdiki, har kimsaning aytgan gapiga* dalili *bo`lishi kerak kimki uning gapini eshitsa , dalil so`rasin. Dalil bo`lmasa, qabul qilmasin. Bir narsaga dalil va hujjat bo`lmasa, ishonib bo`lmaydi.

2.Islom aniqlik dini, gumon dini emas.

Ilm doimo mavhum narsani aniq deb aytishdan qaytaradi. Gumonni rost deyish to`g`ri emas. Bir masala to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligini bilish uchun uning hujjati kuchiga qaraladi, agar hujjati kuchli bo`lsa , masala haqiqat, hujjat kuchsiz bo`lsa masala gumon. Mana shu ilmiy farqlash Qur`on ma`lumotlariga ham to`g`ri keladi. Bu ma`lumotlar Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning Iymon nomli kitobidan olindi 14-15-betlar)

Yoshlarimizning bo`sh vaqtlarini samarali va mazmunli o`tkazish maqsadida turli xil to`garaklar tashkil etish va uni mazmunli olib borish eng maqbul usullardan biri hisoblanadi. Sinfdan tashqari ishlarni to`la qamrab olganto`garaklar:

1.Fan to`garaklari

2.Mohir qo`llar to`garaklari

3.Duradgorlik to`garaklari

4.Sport to`garaklari

5.Badiiy xavaskorlik to`garaklari

To`garaklarga qatnashibgina qolmay to`garak qoidalariga rioya qilish ham ahamiyatli masala hisoblanadi:

- to`garakda qat`iy intizom bo`lishi;
- to`garak a`zolari mashg`ulotlarga kechikmasdan kelishlari;
- to`garak topshiriqlarini batartib bajarishlari, uning moddiy boyliklarini ehtiyot qilishlari kerak.

Zamon kundan kunga rivojlanib tilga e`tibor ortib bormoqda. Xalqimizning azaldan aytib kelgan Tilga e`tibor- elga e`tibor, Til bilgan el biladi, kabi maqollari bugungi kunda ham o`z kuchini ko`rsatmoqda . Qolaversa, hozirgi intellektual yoshlarimizga qo`yilayotgan asosiy talablardan biri ham aynan til masalasidir. O`qishdan tashqari vaqtlarda qo`shimcha til kurslariga borib dunyoning istagan mamlakatiga borish imkoniyati ham mavjud. Shuni ham e`tiborga olish kerakki, bugungi kunda yoshlarimizning kitobga bo`lgan qiziqishini oshirish, ularning orasida kitobxonlikni targ`ib qilish ham kelajak uchun barkamol shaxs yetishib chiqishiga katta zamin yaratadi.

Hozirgi kunda axborot madaniyati tushunchasi juda aniq institutsional hisoblanadi. Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi bilan axborot madaniyati sohasi mavjud. 1998 yildan beri ushbu tashkilotning shafe'ligida ilmiy konferentsiyalar Axborot madaniyatiga ko'ra. Shaxsiy ma'lumotlarning axborot xatti-harakatlarini o'rganish muammolari xalqaro fan va texnologiyalarning xalqaro sotsiologiyasi maktabida yoritilgan. Shuningdek, "Axborot madaniyati asoslari" stavkasi bo'yicha o'rta va oliy o'quv yurtlari uchun bir qator o'quv dasturlari ham mavjud. Yuqoridagilarning barchasi rasmiy tan olingan ushbu sohani ko'rib chiqish uchun sabab beradi.

Zamonaviy jamiyatning axborot madaniyatini rivojlantirishning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

- *ta'lim tizimi,* odamlarning intellektual rivojlanishining umumiy darajasini, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini aniqlash;

- *axborot infratuzilmasi* odamlarning ehtiyojlarini olish, topshirish va undan foydalanish imkoniyatlarini aniqlaydigan, shuningdek ma'lum bir axborot aloqa aloqalarini tezda amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi;

- *jamiyatni demokratlashtirish* odamlarning zarur ma'lumotlari, aholining ommaviy axborot to'g'risida xabardor qilish, shuningdek, fuqarolardan muqobil, shu jumladan xorijiy axborot manbalarini ishlatish imkoniyatlarini rivojlantirish;

- *iqtisodiy rivojlanish* kerakli ta'lim olishning moddiy imkoniyatlari, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarini sotib olish va undan foydalanish imkoniyati olinadigan davlatlar olinadi. shaxsiy kompyuterlar radio telefonlar va boshqalar).

Axborot madaniyati, intellektual madaniyat singari, madaniyatning turli darajalarida namoyon bo'ladi - jamiyat darajasi, ayrim ijtimoiy guruhlar va o'ziga xos shaxs. U boshqa funktsional maqsadlarga ega bo'lgan komponentlardan iborat. Axborot madaniyatining tuzilishi quyidagi ekinlarning elementlarini o'z ichiga oladi:

a) kommunikativ (ijtimoiy madaniyat);

b) leksik (til, yozish madaniyati);

c) kitoblar;

d) intellektual (ilmiy tadqiqotlar va aqliy mehnat madaniyati);

e) axborot texnologiyalari (zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati);

e) axborot huquqi;

g) mafkuraviy va ma'naviy.

Axborot madaniyatini tasniflash asoslaridan biri uning turlarini ajratishdir. Istirofot bilan bog'liq bo'lish, axborot madaniyatining turlari axborot

foydalanuvchilarining vakolat darajasi ma'lum. Bu yerdan quyidagi turlarini kuzatib borish mantiqiy:

1) umumiy tayyorgarlik (Talabalar) foydalanadigan foydalanuvchilar madaniyati;

2) Turli xil profillar mutaxassislarining axborot madaniyati (kasblar vakillari);

3) Ma'lumotlarning informatsion ma'lumotlari (faoliyat - ilmiy, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va boshqalar).

Shunday qilib, axborot madaniyati bularning kengligi, ularning xohish va topish istagi va qayta ishlash, qabul qilish va qayta ishlash, qabul qilish va qayta ishlashning mazmunli madaniyatidir, ular maqsadga muvofiqligini va uni unga topshirishadi shuningdek, ushbu sohada erishilgan boshqa tajriba bilan baham ko'ring.

Ushbu muammoning ahamiyati va etarli darajada ko'p sonli nashrlarda aks ettirilganligiga qaramay, bugungi kunga qadar "Axborot madaniyati" ta'rifining yagona ta'rifi ishlab chiqilmagan. Hatto kam rivojlangan. "Axborot madaniyati" atamasi qayd etilgan birinchi ish 1974 yilda e'lon qilingan bo'lsa-da, uning "axborot va taraqqiyot" monografiyasi va ilmiy ishlar to'plami bo'lgan Novosibirsk olimiga uning ilmiy masalalarini rivojlantirish ustuvorligini ta'minlash kerak Informatika va madaniyat "berildi.

Individual axborot madaniyati bir qator tarkibiy qismlarga ega: axborot faoliyati, axborot faoliyati, axborot faoliyati, kognitiv, o'quvchi faoliyat, axborot faoliyatini o'rganish, o'z axborot ehtiyojlarini o'rganish, kommunikativ jarayonga kiritish darajasi. Axborot madaniyatining ushbu tarkibiy qismlari umumiy hisoblanadi shaxsiy fazilatlar, ular orasida quyidagilar ajratiladi:

– intellektual va ta'lim atrofdagi voqelikni idrok etish, baholash, faoliyatni shakllantirish;

– motivatsion axborot faoliyatining markazini belgilaydigan tavsiflangan va maqsadlar;

– hissiy-irodali Ko'rish ishlarini aniqlash Axborot faoliyati;

– aloqaaloqa va axborot almashish normalarini tavsiflovchi.

Axborot madaniyati tushunchasi mutaxassislarning kasbiy yo'nalishga qarab, ko'plab tarkibiy qismlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qambarov M. Talabalarni mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish: Monografiya Namangan. – Arjumand mediya, 2021

2. N.Muratova, E. Grizl, D. Mirzaxmedova Jurnalistikada media va axborot savodxonligi: Toshkent: Baktria press, 2019. - 112 b

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014

4. Козырева О.А. Компетентность современного усҳителя: современная проблема определения понятия Стандарты и мониторинг в образовании. – 2004. – № 2. – С.48-51.

5. Kubey, R. (1998). Obstacles to the Development of Media Education in the United States. Journal of Communication (Winter), pp.58-69.

6. Migranova Ye.A., Pozilova Sh.X. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – 200 b.

7. Универсальная журналистика: опыт проектного обучения. Учебное пособие под общей редакцией Л. Шестерёнкиной. — Челябинск, 2018.

ZAMONAVIY OLAMDA STRESS OQIMLARI VA INSONGA TA’SIRI

Mingboyev Shohruxbek Obidjon o‘g‘li Namangan davlat universiteti pedagogika-psixologiya fakulteti amaliy psixologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Badritdinova Madina Baxromovna

Anotatsiya: *Ushbu maqolada stress va uning insonga ta’siri, turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishi va unga qarshi turishning yangicha, zamonaviy yo‘llari haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda stress nafaqat yoshi katta shaxslarga, balki yosh bolalarga ham birday ta’sir qilmoqda. Buning oldini olish muhimligi ushbu maqolada bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Stress, zamonaviy, depressiya, hissiy, ijobiy, salbiy, lavozim, jarohat, so‘rovnoma, o‘lim.*

Annotation: *This article discusses stress and its effects on a person, innovative, innovative ways to prevent and against a variety of diseases. Today,*

stress affects not only older individuals, but also young children in the same way. The importance of preventing this is described in this article.

Keywords: *Stress, modern, depressed, emotional, positive, negative, position, injury, questionnaire, death.*

Аннотация: *В этой статье рассматриваются стресс и его влияние на человека, инновационные, инновационные способы профилактики и борьбы с различными заболеваниями. Сегодня стресс точно так же влияет не только на пожилых людей, но и на маленьких детей. Важность предотвращения этого описана в этой статье.*

Ключевые слова*: Стресс, современный, депрессивный, эмоциональный, положительный, негативный, позиция, травма, анкета, смерть.*

Ma’lumki, har bir insonda sodir bo‘ladigan yomon hissiy holatlardan biri bu-stress hisoblanadi. Stress har bir insonning yomon holatlaridan, siqilishlardan, depressiyaga tushishdan kelib chiqadi. Insonlarning hissiy holatlarini yomonlashtiradigan, xavotirni kuchaytiradigan zararli psixik jarayon. Bu esa psixologik kasalliklarini keltirib chiqaradi. Stressni keng ma’noda tushunadigan bo‘lsak, insonlarning boshidan kechirgan tashqi taasurotlaridir. Insoda ijobiy va salbiy stress holatlari ham mavjud. Misol uchun, siz yuqori darajadagi ishga taklif qilingan bo‘lsangiz, yoki lavozimingiz ko‘tarilsa siz bunday holatda ijobiy stressni his qilasiz. Har bir inson stress holatlarini o‘zi yaratadi. Valeriy Sinelkinov bu haqida shunday deydi. “Sizning g‘azab va nafratingiz oxir - oqibatda o‘zingizga yana qaytib keladi (o‘xshash o‘xshashini tortadi), biroq kattaroq kuch bilan, o‘zida yanada qo‘rquv, qayg‘u, depressiya va stress vaziyatlarning barcha ko‘rinishlarini ko‘targan holda qaytadi. Buni ko‘tarish esa yanada og‘irroq bo‘ladi. Siz bu fikrlardan ularni kimgadir yo‘llab qayta-qayta qutulishga hatakat qilaverasiz. Bu to ana shu yopiq doira kasallik, yoki jarohat yoki o‘lim bilan uzilmaguncha davom etaveradi [1]. Ya’ni biz stress holatida bo‘lsak va undan qutulish uchun boshqalarga yo‘llasak, albatta, bu bizga undan ham kattaroq stresslarga olib keladi. Insonni fikrlari uni xulq-atvorini yaratadi. Stress - (ing. Stress-bosim, kuchlanish,

tanglik) - odam va hayvonlarda kuchli ta’surotlar natijasida sodir bo‘ladigan o‘ta hayajonlanish, asabiylik holati. Organizmda har-xil taassurotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya. Stress har bir insonning yomon holatlaridan, siqilishlaridan, depressiyaga tushishdan kelib chiqadi. Insonlarni hissiy holatlarini yomonlashtiradigan, xavotirni kuchaytiradigan zararli psixik holatlardan biridir.

Demak, stressning kelib chiqishning bir necha sabablari bilan tanishib chiqamiz.

-kuchli hayajonlanish;

-qattiq qo‘rquv;

-fikrlashning salbiy tomonga og‘ib ketishi;

-tashqi va ichki ruhiy zarba olish;

-kimnidir yo‘qotib qo‘yish;

-o‘zi yaxshi ko‘rgan narsa, yoki shaxsidan ayrilib qolish;

-mayda narsalar uchun asabiylashish;

-ko‘plab xatolar qilish tufayli;

-insonlar bilan chiqisha olmaslik;

-moddiy holatini yo‘qotib qo‘ysa;

-o‘zi yaxshi ko‘rgan ish bilan shug‘ullanmaganda va hokazolar.

Biror kishi o‘zini o‘zi qobilyatsiz deb hisoblaydigan standardlarga erishish kerak deb hisoblasa, bu muammoni yanada og‘irlasha boshlaydi. Biroq, uning paydo bo‘lishiga, yoki ko‘rinmasligiga ta’sir qiluvchi ko‘plab boshqa omillar mavjud. Afsuski, stressdan aziyat chekadiganlar soni ko‘payib borayotganga o‘xshaydi. 2014-yilda Qo‘shma Shtatlarda o‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarning qariyb 50 % o‘rtacha, yoki og‘ir stressni boshdan kechirganliklari haqida xabar berishdi. Siz faqat va faqat yaxshi niyyatlar bilan o‘zingizni hursand qiling. Bu haqida Valeriy Sinelkinovning quyidagi fikrlariga yuzlanamiz “Biz o‘z olamimizni fikr va tuyg‘ulardan yaratamiz. Bizning faoliyatimiz so‘zdan emas, harakatdan emas, balki fikr va tuyg‘ularimizdan

boshlanadi. Fikr energiyaning universal shakli va uning kuchi juda ulkan’’ [2]. Insonlardagi hattoki fikrlar ham unga qarshi ishlashi mumkin. Chunki, har qanday inson o‘z xulq-atvorini o‘zi yaratadi. Misol uchun, siz shirin ovqat qilmoqchi bo‘lsangiz unga turli xil sabzavotlar, ziravorlar va shunga o‘xshash narsalar qo‘shasiz. Inson ham huddi shunday, chiroyli xulq-atvorga ega bo‘lish uchun bilim oladi, diniy ta'lim oladi, ota-bobosidan tarbiya oladi va inson mukammallika erishadi.

Selyening so‘zlariga ko‘ra, rivojlanish jarayoni uch bosqichga bo‘lingan;

Birinchi bosqich (shok holati). Insonni tashvish hissi yengib chiqadi. U o‘zi uchun joy topa olmaydi. Fiziologik nuqtai nazardan, bu buyrak usti korteks gormonlari sintezining faol o‘sishi bilan izohlanadi. Tana moslashish uchun ko‘proq energiya ishlab chiqarish orqali muammoni yengishga harakat qiladi.

Ikkinchi bosqich, yoki “qarshilik fazasi”. Ushbu bosqichda immunitetning bir turi ishlab chiqiladi, tanasi yanada qattiqlashadi. Ammo shu bilan birga, tegishli garmonlar ishlab chiqilishi kamayadi. Shuning uchun, hislar tinchlanib, davlat muvozanatli bo‘ladi. Xavotir alomatlari yo‘q.

Uchinchi bosqich;

Charchoq bilan tavsiflanadi. Tana kurashishdan charchaydi, stress esa oxirgi sharbatlarini siqib chiqaradi. Qarshilik talab qilinadigan darajadan pastga tushadi. Xavotir hissi qaytadi. Agar stress omil uzoq vaqt davom etsa va o‘z ta’sirni ko‘rsatsa, unda fiziologik holat o‘zgaradi. Ular adrenal korteks va boshqa ichki organlarning qaytarib bo‘lmaydigan deformatsiyalarda ifodalanadi.

Inson stressga tushsa, avvalo bu holatning tez orada o‘tib ketishini his qila olishi kerak bo‘ladi. Bu holat o‘tib ketgandan keyin inson o‘ziga savol bera olishi muhim.

Men bu holatdan nima ololdim?

Bu holat meni qay tomonga o‘zgartirdi?

Men bu holatga tayyor edimmi?

Nima uchun bu holat aynan menda bo‘lib o‘tdi?

Men qanday ahvolda bo‘ldim bu holatda?

Bu holatda men nima qila oldim?

Bu holat uchun kimlardan yuz o‘girdim?

Demak, bu holatlardan chiqish uchun inson o‘ziga har qanday savol berishi va o‘ziga nima munosibligini bilish kerak. Chunki, stressning oxiri o‘lim bilan tugashi mumkinligini juda yaxshi biladi. Lekin, bila turib ham shu insonlar stress darajasiga yetib borishi mumkin. Turli xil oqimlar, omillar, internet rivojlanishi ham bizning ongimizga katta ta’sir qiladi.

Stress – bu hayotimizga mehmondir. Nega aynan mehmon. Uyingizga yaxshi va yomon odam mehmon bo‘lib keladi. Siz uni bilmaysiz yaxshi yoki yomonligini. Lekin, u odamning maqsadi bor bo‘ladi, o‘zi yaxshi yoki yomonligini biladi. Stress ham shu mehmon sifatidadir. Agar siz stressni to‘g‘ri tushingan holda tasavvur qilib uni yaxshigina qarshi olsangiz, u mehmon siz uchun yaxshiga aylanadi. Demak insondagi eng katta dushmand bu-stress. Bu borada Mavlono Rumiy shunday ta’kidlaydi, “Boshingga eng qiyin kunlar tushib, sen bardosh bera olmaydigan nuqtaga kelganingda aslo sabringdan voz kechma, ana shu nuqta taqdiringni o'zgartiradigan nuqtadir” [3].

Agar stress yomon bo‘lsa, sizning unga bo‘lgan munosabatingiz ham yomon bo‘ladi va u mehmon siz uchun yomonga aylanadi va siz uchun kattagina yomonliklarni olib keladi. Agar sizda stress holatlari kuzatilsa unda sizga yengish amaliyotini ta’kidlab o‘taman. Bular sizga stressni yengish uchun kattagina foyda beradi:

- Eng yaqin do‘stlaringiz bilan suhbat qilish;
- Eng zo‘r, siz har doim yoqtirib o‘qiyidigan kitobni mutolaa qilish;
- Ko‘chaga chiqib aylanish, sayohat qilish;
- Insonlarga yaxshilik qilish;
- Kunlik rejani tuzish;
- Oldingizga katta maqsadlar qilish;
- O‘zingiz yoqtirgan ovqatni iste’mol qilish;

- Aytgancha, shokolad siz uchun eng foydali bo‘ladi stressni yengish uchun;
- Do‘stlaringiz bilan bir dasturxonda o‘tirish;
- Ko‘ngilochor joylarga tashrif buyurish;
- Ota-onangiz bilan gaplashib o‘tirish;
- Negativlarni tark qilish;
- O‘zingiz sevgan kasb, ish bilan shug‘ullanish;
- Chiroyli narsalarni tomosha qilish;
- Multfilmlar tomosha qilish;
- Foydali ilmlarga qatnashish;
- Treninglarga ishtirok etish;
- Atrofdagi o‘zid bor narsalarni ko‘ra olish;
- Atrof-muhitga yaxshilik qilish;
- Uyingizda bo‘lsangiz gullarni sug‘orish;
- Ko‘chatlar ekish;
- Ayniqsa qishda bo‘lsa qorbobolar yasash bularning barchasi sizga kerakli va foydali motivatsiya beradi;
- Faqatgina zarur vaqtda telefonda foydalanish;
- O‘zingiz yoqtirgan narsa buyumlar yasash;
- Sport bilan shug‘ullanish;
- O‘zingizni eng yaxshilariga ravo ko‘rish;
- Siz uchun yoningizda qolgan insonlar bilan suhbatlashish;
- Hayot qisa, uni o‘tib ketishini ongiga singidirish;
- Barcha narsalar o‘tkichi ekanligini o‘ziga eslatish;
- Uni doimo qo‘llab turuvchilar borligini ko‘ra bilish;
- Xona havosini almashtirish;
- Shirin bo‘lgan hidlarni hidlash, misol uchun hushbo‘y atir, hushbo‘ylagich, freshlardan foydalanish ham inson uchun, uning miyasi uchun foydalidir. Foydali bo‘lganligi uchun miyangiz ham dam oladi;

- Avvalo, siz to‘g‘ri ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish;
- To‘g‘ri uyquni yo‘lga qo‘yish;
- To‘g‘ri tartib o‘rnatish;
- Oldidagi maqsadni katta qo‘yish va uni har doim o‘qish, unga amal qilish, hech qachon esdan chiqarmaslik, uni amalga oshirish uchun harakat emas, kuchli iroda hosil qilish, kurashish eng muhimi hisoblanadi. Kurashgan inson hech qachon yengilmaydi. Yengilmagan insonga qaytib stress yuaqinlashmaydi, yaqinlashsa ham ozgina vaqtda tark etadi.

Foydalanilgan adabiyitlar:

1. Valeriy Sinelkinov “Dardingni sev’’ Toshkent Navro‘z nashriyoti – 2019, B. 66
2. Valeriy Sinelkinov “Niyyatning kuchi’’ Buxoro 2015-yil, 16-bet.
3.https://play.google.com/store/apps/details?id=com.sadirboyprogrammer.mavlon Orumiyhik matlari.

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNI ÕQUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH.

Yusubjonova Oydina
Turan International University BT yõnalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: B. Qõchqorov
Turan International University BTM kafedrasi õqituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida milliy qadriyatlarni singdirish,ularni zamon bilan hamnafas yurishi uchun ayrim tavsiyalar berib õtilgan. Boshlang'ich ta'limda innavatsion rivojlanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar*: milliy qadriyat, milliylik, asrab-avashlash, milliy bayramlar, yangicha usullar, iqtiboslar.*

Аннотация: *В данной статье даны некоторые рекомендации по привитию национальных ценностей в сознании учащихся начальных классов и ведению их в ногу со временем. Разработаны предложения и рекомендации по инновационному развитию в начальном образовании.*

Ключевые слова*: национальная ценность, национализм, сохранение, народные праздники, новые методы, цитаты.*

Abstract: *This article provides some recommendations for instilling national values in the minds of elementary school students and keeping them in step with*

the times. Proposals and recommendations for innovative development in primary education have been developed.

Key words: *national value, nationalism, preservation, national holidays, new methods, quotations.*

Milliy qadriyat, milliy g'oya, milliy iftixor va tuyg'u, milliy an'ana, millliy madaniyat, milliy urf-odat degan tushunchalarni boshlang'ich sinflardanoq farzandlarimizga mazmun mohiyatini tushuntirib ,ongiga singdirib borishimiz bugungi kunning dolzarb mazvzusi . Farzandlarimizni boshlang'ich sinflardanoq jamiki hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun foydalaniladigan sõzlarning mazmun mohiyatini tushuntirib borishimiz juda ham zarur. Misol uchun qadriyat sõzini olaylik.Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar: erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik moddiy va ma'naviy boyliklar qadriyat hisoblanadi.

Bugungi kunda turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas. Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, va mehr-oqibat, ahli ayolini - oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash

singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.Shu õrinda, yurtboshimizning quyidagi sõzlarini nechog'lik tõg'ri ekanligini kõrishimiz va hozirgi zamonga ham ham nafas aytilganini anglashimiz mumkin "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin”.

Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"deya ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, muqaddas qadamjolarni asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamli jarayon birgina o'zbek millatining tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda.

Darhaqiqat, har qanday an'ana, urf-odat hamda rasm-rusumlar hayotiy zarurat tufayli paydo bo'ladi. Ular muayyan xalqning ruhiyati, ma'naviy dunyosi, orzu-istaklarining ifodasi bo'lib, kelgusi avlodlar ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishiga ham hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi.Aksariyat an'analar mazmun-mohiyatida xalqni, elatni ezgulikka, insonparvarlikka, yaxshilikka chorlashdek o'lmas g'oyalar yotadi. Ta'kidlash joiz, bugungi globallashuv davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma'naviy uyg'oq bo'lib yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizdagi millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va

mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'no-mazmunini tushunib yetishimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'lim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.Barkamol avlod ma'naviyatini shakllantiruvchi yagona manba esa tarbiyadir. Ma'rifat va bilimni shakllantiruvchi manba - ta'lim, saboqdir. Binobarin "ta'lim va tarbiya" emas, aksincha, "tarbiya va ta'lim" deb aytish maqsadga muvofiqdir.

"Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi" - deb aytgan edi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongida milliy qadriyatlarni singdirish ularni milliy ruxda ulg'ayishlari uchun men quyidagicha fikr bildirmoqchiman:

1) "Milliy qadriyatlamiz boshlang'ich ta'lim jaronidanoq qo'llashni va õquvchilarga milliy qadriyatlarimiz aks etgan õyinlarni õrgatishni va ularga mehr uyg'otishni va kerak bolsa shu sohada maktabgacha ta'lim muassasalariga alohida ish õrinlari yaratilib yangi kadrlar yetishtirilishini tavsiya etardim;

2) Ma'naviyat soatlarini tashkil etish;

3) Milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga chorlovchi tadbirlar, tanlovlar tashkil etish;

4) Milliy qadriyatimiz hisoblangan milliy o'yinlarimizni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish;

5) Maktablarda "Milliy qadriyatlarga ehtirom" nomli burchak tashkil etish. Bu burchakni o'quvchilar o'z ijod namunalari asosida to'ldirib borishlarini yo'lga qo'yish.

6)Maktablarda õquvchilar formasiga ozgina bolsada milliylikni uyg'unlashtiradigan ,milliy libosimizni yodga solib turadigan yangilik kiritish ;

O'quvchining bolalikdan milliy qadriyatlarga bo'lgan muhabbatini oshirish - kelajakda barkamol avlodlar safining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yosh avlodni tezkor zamonga mos tarzda tarbiyalab, fikrlashini kengaytirib, ma'naviy olamini boyitish yo'lida muntazam izlanmog'imiz talab etiladi. Farzandlarimizni milliy rux va qadriyatlarimizni qadrlagan holda kamol topishi uchun barcha mas'uliyatni maktablarga yuklash bilan cheklanmagan holda biz ota onalar,mahalla ham e'tiborli va mas'uliyatli bolmog'imiz zarur.Zero,

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zlarining Yangi yil munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigi «Inson qadrini ulug'lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi», deb ta'kidlaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari darsligi-8 sinf, Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2015-yil, 69-70-bet;
2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008-yil, 35-bet;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev -madaniyat markazi vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 25.01.2017 Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev -" yoshlar tarbiyasi -eng muhim masalalardan" nomi ostida o'tkazilgan tadbirdagi nutqidan. 2017.16.06, Toshkent.

O‘Z-O‘ZINI IDENTIFIKATSIYA QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMI

To‘raxanov Ummatali Davlatovich, NamDU pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.

ANNOTATSIY : Ushbu makolada shaxsda identifikatsiya ijtimoiy fenomen sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muxokama kilingan. Shuningdek, identifikatsiya muammosini fundamental tadkik etish masalalari yoritilgan.

Kalit suzlar: identifikatsiya, shaxs, psixologiya, axborot olami, inkiroz, ong.

This article discusses the formation of identity as a social phenomenon, its socio-psychological features. It also covers issues of fundamental research on the problem of identification.

O‘z-o‘zini identifikatsiya qilish tizimini o‘rganish nazariyasi va metodologiyasi masalasi turli qarashlar bilan tavsiflanadi. O‘z-o‘zini identifikatsiya qilishning xilma-xilligi, funktsional xususiyatlar, soni va dinamizmi uning murakkabligi va ko‘p qirraliligini ko‘rsatadi.

O‘z-o‘zini identifikatsiya qilishning nazariy va metodologik asoslariga tayangan holda, uning mohiyatini va boshqa unga yaqin hodisalar bilan aloqasini aniqlash bilan birga uning ijtimoiy-psixologik mexanizmini ochish ham muhimdir.

Tadqiqot muammolari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, birinchi navbatda o‘z-o‘zini aniqlash mohiyatan maxsus jarayon bo‘lib, tashqi dunyoni tahlil qilish, mazmuni va ahamiyatini farqlash, aniqlangan ob’ektlarni umumlashtirishga qaratilgan aqliy faoliyatdir.

Shaxsiyat, hayot yo‘lini qurish inson hayotining uzoq muddatli tartibga solinishiga asoslangan o‘tmish, hozirgi va kelajak haqidagi g‘oyalar tizimi tomonidan boshqariladi. Insonning ichki dunyosi doimiy ziddiyatlar holatida bo‘lib, ular keskinliklarda namoyon bo‘ladi. Klassik psixodinamik va psixoanalitik yondashuvlarga ko‘ra, bunday stressning manbaiga inson uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ichki kurash, qarama-qarshi pozitsiyalar va fikrlarga kiradi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, shaxs ko‘pincha ichki qarama-qarshiliklarini tushunmaydi, lekin ular o‘zining hayotiy faoliyatidagi boshqa sohalariga taalluqli ortiqcha tashvish hissini tug‘diradi va odatda xatti-harakatlarga halokatli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday tartibsizliklarni faqatgina pozitsiyalarni taqqoslash va tegishli qarorlar qabul qilish orqali bartaraf etish mumkin. Ushbu yondashuv o‘z-o‘zini identifikatsiya qilish, o‘zgarishlarini amalga oshiradigan mavjud ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni tushunish va ajratishga yordam beradi.

Mohiyatga ko‘ra, yuqoridagi holat o‘z-o‘zini identifikatsiyalashni o‘rganish uchun protsessual yondashuvni aks ettiradi va turli tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Ularning biri dinamik tizim va rivojlanish momenti davridir. Dinamik tizim tushunchasi o‘z ichiga o‘z-o‘zini identifikatsiya qilish hodisasidagi mavjud xususiyatlarni, xususan, shaxs va dunyo o‘rtasidagi munosabatlarning yangi turlarining paydo bo‘lishi sifatida ularning miqdor va sifat o‘zgarishlarini qamrab oladi.

Rivojlanish momenti kontseptsiyasi o‘z-o‘zini identifikatsiya qilishning muayyan bosqichi bo‘lib, shaxsiyat o‘zgarishini tavsiflovchi bosqichni o‘zida aks ettiradi.

Dinamik tizim sifatida o‘z-o‘zini identifikatsiya qilish identifikatsiya qilish tushunchasida aks ettirilgan bo‘lib, u asosan shaxsning harakatini, uning identifikatsiyasini shakllantirish mexanizmini anglatadi. Identifikatsiya tushunchasi harakat momentini, identifikatsiya jarayonida shaxs tomonidan erishilgan holatni ifodalaydi.

Identifikatsiya va identifikatsiyalashning mohiyati, bir tomondan, ularning birligi va boshqa tomondandan esa, ziddiyatdir.

Identifikatsiya va identifikatsiyalash shaxsni ijtimoiylashtirish yo‘lining yagona jarayoni ekan, ikkita nisbatan mustaqil tomonni tashkil etishi va bir-birisiz mavjud emasligi bilan namoyon bo‘ladi. Bu ikki tomonga bir butun birlik deb qaralishi maqsadga muvofiq.

Identifikatsiya qilish, identifikatsiyalash jarayonidagi asosiy xususiyat momentni aks ettirishidir. Moment va ziddiyat jarayon sifatida identifikatsiya qilish rivojlanish birliklari sifatida bir-birisiz bir lahzasiz mavjud emas. O‘zga shaxslar bilan identifikatsiyasiz identifikatsiyalash mumkin emas.

Identifikatsiya va identifikatsiya qilish, birinchi navbatda, o‘z-o‘zini identifikatsiyalashning yaxlit ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘lishidir. Har bir inson jamiyat bilan identifikatsiya qilish orqali ijtimoiylashtiriladi, bu unga tegishli ijtimoiy tajribani o‘rganish imkonini beradi. SHaxsni guruh bilan identifikatsiya qilish istagi uning izolyatsiya qilish istagi kimlar bilan bog‘liq bo‘ladi? Insonning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji uning

shaxsiyatiga bo‘lgan ehtiyojidan ajralib turadi. Jamiyatda faqat o‘zi bilan muloqotda o‘z-o‘zini, o‘z hukmlari, xulosalarini ko‘proq anglay boshlaydi. Ammo keyingi bosqichlarda ularga cheklovlar qo‘yiladi, keyinchalik erkin individuallikning rivojlanishiga to‘sqinliklar boshlanadi. Inson o‘zini tanitgan jamoalarning eskirgan shakllari shaxsni ijtimoiylashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadigan jarayon va vositalar, tushunchalar bilan o‘zgarishi va to‘ldirilishi kerak. Rivojlanish bosqichlari o‘rtasidagi aloqalarni kuzatish ushbu jarayonning dinamikasini tushunish imkonini beradi va bu bosqichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning o‘ziga xos xususiyatlari shaxsni o‘z-o‘zini identifikatsiya qilish harakatini tashkil etuvchi asosiy fikrlarni joylashtirishni o‘z ichiga oladi.

O‘z-o‘zini identifikatsiya qilish insonning o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda juda muhim va ahamiyatlidir. Zotan, u insonning xohish-irodasi va imkoniyatlarini bilish darajasini, muayyan jamiyatga qo‘shilishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, o‘z-o‘zini aniqlash bir vaqtning o‘zida va ijtimoiyatning qiymat-motivatsion vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsning kimligi tekshirilayotgan tadqiqotlarning aksariyatida, tahlillar odatda, ijtimoiy va shaxsiy ikki komponentning pozitsiyasidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda ko‘proq ijtimoiy identifikatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan batafsil identifikatsiya tuzilishi ta’kidlab o‘tiladi. Ular:

ko‘prollilik;

kasbiy mahorat;

etnik;

diniy va boshq.

Ma’lumki, ijtimoiy-madaniy sharoitda o‘z-o‘zini aniqlash identifikatsiya va identifikatsiya qilish o‘zaro muvofiqlikni talab qiladi. Ushbu muvofiqlik natijasi o‘z-o‘zini aniqlash orqali amalga oshiriladi va butun shaxs shaxsiyatning rivojlanishini belgilaydi. O‘z navbatida, jamiyatning talablari va shartlaridan kelib chiqib, shaxsning manfaatlaridan ajralib turadigan yangi hayotiy sharoitlar tufayli nomuvofiqlik paydo bo‘lishi mumkin. Shaxs identifikatsiya qilingan har bir

jamiyat birinchi navbatda o‘z-o‘zini anglash imkoniyatini beradi, ammo keyingi bosqichlarda muayyan cheklovlar qo‘yadi, shuningdek, shaxsning erkin shaxsiyatining rivojlanish doirasini toraytiradi.

Insonning identifikatsiyasini aniqlaydigan jamiyatning eskirgan shakllari o‘rnini yangilari bilan almashtirish kerak, bu esa o‘z navbatida shaxsni ijtimoiylashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu holatlarda qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi, o‘z-o‘zini aniqlashning yangi bosqichlariga o‘tish natijasida bekor qilingan tegishli identifikatsiya inqirozlari namoyon bo‘ladi, bu shaxsning muayyan o‘zgarishlari, ya’ni muhim rivojlanish jarayoni bilan tavsiflanadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oliy ta’lim muassasasi sharoitida har qanday ijtimoiy-psixologik hodisani rivojlantirishning maqsadli vositalarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonida shaxsning ajralmas tuzilishini va bo‘lg‘usi mutaxassisning professional tarkibiy qismini shakllantirishni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tadqiqot doirasida bo‘lg‘usi o‘qituvchining o‘z-o‘zini identifikatsiya qilishni rivojlantirish jarayonida professional va tor yo‘naltirilgan sohalarni uyg‘unlashtirishning zaruriy ehtiyojni oldindan belgilab beradi. Shu bilan birga, ko‘plab tadqiqotchilarning fikricha, bunday murakkab vazifa turli xil ijtimoiy-psixologik texnologiyalarni samarali ravishda hal qilishi mumkin, ular zamirida ijtimoiy-psixologik trening, ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi, ta’lim oluvchining shakllanishini psixologik ta’minlash va uning shaxsiy rivojlanishi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Muxamedova D.G‘., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik,- Toshkent, “Mumtoz so‘z” 2018.-287 b.

2.Расулов А.И. Психодиагностика: ўқув-методик қўл. / А.И. Расулов; ЎзР ОЎМТВ, М.Улуғбек номидаги ЎзМУ. – Т.: Mumtoz so`z, 2010. – 152 б.

3.Антонова Н.В. Проблема личностной идентификации. // Вопросы психологии. 2010. №4. - С. 120-131.

MUNDARIJA

1.	**SO‘Z BOSHI**	**3**
2.	***M.M.Qambarov, M.B.Badriddinova,*** USTOZ HAYOTI – IBRAT MAKTABI	**5**
3.	***Сатаров Александр Хашимович,*** ЧТО ПИТАЕТ ДИНАСТИЮ ПЕДАГОГОВ?	**7**
4.	***Inamov Dilmirza Dedamirzayevich*** TALBALARINING MUSTAQIL FIKRLASH MADANIYATINING RIVOJLANTIRISH SHARTLARI	**9**
5.	***Xalimova Ozoda Ma’murjon qizi,*** PEDAGOGIK QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	**14**
6.	***M.L. Boltayeva, Baxodir Qo‘chqorov,*** ORGANIK KIMYO TA’LIMIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	**21**
7.	***Tohirova Nodira,*** SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGANISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH	**25**
8.	***Qosimova Aziza,*** MAKTABGACHA TA`LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA O`YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	**31**
9.	***Nazarova Asila Mamarasulovna,*** MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI	**34**
10.	***Ahmedov Diyorbek Anvarjon o‘g‘li, Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna,*** AUTIZM SABABLARI, TURLARI VA BARTARAF ETISH METODIKALARI	**38**
11.	***Qambarov Musoxon Muxtorjanovich,*** PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA – DEONTOLOGIK KOMPETENTLIK	**45**
12.	***Azizaxon Nuriddinova,*** BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING NATIJALARI	**48**
13.	***Madaminov Furqatjon Shuhratjonovich,*** KREDIT-MODUL TIZIMI VA UNING AMALITOTGA JORIY ETISH TAMOYILLARI (OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AMALIY FANLARNI O‘QITISHDA)	**54**
14.	***Axmedova Dilrabo Sa’dulla qizi Hayitmirzayeva Muazzam Valijon qizi,*** KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DEVIANT XULQNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	**58**
15.	***Najmiddinova Muhayyo,*** SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA KASBIY - IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MASALALARINI YORITILISHI	**62**
16.	***Nishanova Muslima,*** BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGAGIK MEXANIZMI	**66**
17.	***Badritdinova Madina Baxromovna,*** MUAMMOLI TA’LIM MUSTAQIL FIKRLASH OMILI SIFATIDA	**69**
18.	***Sultonova Gulzoda Yashnarjon qizi,*** HARBIY XIZMATCHILARINING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEZONLARI	**73**
19.	***Yuldasheva Rahima Bokhodirovna,*** THE IMPORTANCE OF AN INTERNATIONAL STEAM STUDY IN DEVELOPING CREATIVITY IN	**77**

	CHILDREN IN PRIMARY EDUCATION	
20.	***O‘.M.Janazaqova M.O. Hamidova,*** BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA BILIM BERISHDA MULTIMEDIA AFZALLIKLARI	**80**
21.	***Махмудов Абдурасул Носиржон ўғли*****,** РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ И ПОДГОТОВКА К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	**86**
22.	***Xolmirzayeva Diyora Fazliddin qizi, M.S.Bannayev,*** SPIRTLI ICHIMLIKLAR ISTE’MOL QILUVCHI O‘SMIRLAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLARNING O‘ZIGA XOSLIGI	**90**
23.	***Kamolova Azimaxon Odiljon qizi,*** SPORT MASHG‘ULOTLARI ORQALI O‘QUVCHILARDA MILLIY VA UMUM INSONIY XIS TUYG‘ULARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZIMLARI	**93**
24.	***Usmonova Muattar Bahodirjonovna,*** IJTIMOIY PEDAGOGNING MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORADIGAN FAOLIYATI	**98**
25.	***Toshibekova Munojat Xoshimovna, Nurullayev Xayrullo Olimjon o‘g‘li*** SHAXS IJTIMOIY **HIMOYASIZLIGINI** OG`ISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI	**103**
26.	***Xikmatillayeva Malohat Ismatilla qizi,*** RINOLALIYA. RINOLALIYA TURLARI	**114**
27.	***Nazarova Asila Mamarasulovna*** BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA INFORMATSION KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH	**120**
28.	***Mingboyev Shohruxbek Obidjon o‘g‘li*** ***ZAMONAVIY OLAMDA STRESS OQIMLARI VA INSONGA TA’SIRI***	**126**
29.	Yusubjonova Oydina BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNI ÕQUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH.	**126**
30.	To‘raxanov Ummatali Davlatovich, O‘Z-O‘ZINI IDENTIFIKATSIYA QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMI	**131**